


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI  
fanidan**

**O'QUV QO'LLANMA**



**Buxoro - 2021**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**Maxmudov R.A., Toirov B.B., Yodgorova M.O., Oltiyev A.T., Ulashov SH.M.**

**STANDARTLASHTIRISH ASOSLARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

*(t.f.d., professor Ismatullaev Patxulla Raxmatovich tahriri ostida tayyorlandi)*

**Buxoro - 2021**

Maxmudov R.A., Toirov B.B., Yodgorova M.O., Oltiyev A.T., Ulashov SH.M.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, MEK) va Butunjahon savdo tashkiloti (BST) qoidalari va me’yorlariga muvofiq standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solishning asosiy tamoyillari, O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining qonuniy asoslari, texnik me’yoriy huquqiy aktlar (TMHA) (texnik reglamentlar, davlat standartlari, korxona standartlari, texnikaviy shartlar)ning turlari va ularga qo‘ylgan talablar, standartlashtirishning asosiy usullari va ulardan mahsulotni yaratishdagi barcha bosqichlaridan foydalanish, o‘zaro almashinuvchanlikni ta’minalash tamoyillari va ularning turlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Oliy o‘quv yurtlarining 5310900 – “Metrologiya, standartlashtirish va maxsulot sifati menejmenti (sanoat)” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavrlar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida mo‘ljallangan, undan ilmiy-texnik va muhandis xodimlar, magistrler, mustaqil tadqiqotchilar, doktorantlar ham foydalanishlari mumkin.

#### **Аннотации**

Учебное пособие охватывает основные принципы стандартизации и технического регулирования в соответствии с правилами и нормами международных организаций по стандартизации (ISO, CEC) и Всемирной торговой организации (ВТО), стандартизации и технического регулирования Республики Узбекистан. системы, виды технических регламентов (ТМХА) (технические регламенты, государственные стандарты, стандарты предприятий, технические условия) и их требования, основные методы стандартизации и их использование на всех этапах разработки продукции, взаимозаменяемость информации о принципах поставки и их видах.

Оно предназначено как учебное пособие для бакалавров высших учебных заведений по специальности 5310900 - «Метрология, стандартизация и управление качеством продукции (промышленность)», в которую входят научные, технические и инженерные кадры, также может быть использовано магистрами, независимыми исследователями, докторантами.

#### **Annotations**

The textbook covers the basic principles of standardization and technical regulation in accordance with the rules and regulations of international standardization organizations (ISO, CEC) and the World Trade Organization (WTO), standardization and technical regulation of the Republic of Uzbekistan. systems, types of technical regulations (TMXA) (technical regulations, state standards, enterprise standards, technical conditions) and their requirements, the main methods of standardization and their use at all stages of product development, the interchangeability of information on the principles of delivery and their types.

It is intended as a textbook for bachelors of higher educational institutions in the specialty 5310900 - "Metrology, standardization and product quality management (industry)", which includes scientific, technical and engineering personnel, can also be used by masters, independent researchers, doctoral students.

#### **Taqrizchilar:**

Maxmudov M.I. - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Energoaudit» kafedrasini mudiri, t.f.d., prof.

Irisov F.J. – “Uz Test” DUK Buxoro filiali boshqaruvchisi

## **So‘z boshi**

Fanni o‘qitishdan maqsad - “Standartlashtirish asoslari” fanining maqsadi respublikamiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va xavfsizligini oshirish masalalarini hal etish uchun va texnik me’yoriy huquqiy aktlarni ishlab chiqishda, O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha olgan bilimlarini amaliyatga qo‘llash, standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohalarida talabalarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu fan talabalarga standartlashtirishning asos bo‘luvchi tamoyillarini, standartlashtirish bo‘yicha tan olingan xalqaro va hududiy standartlashtirish tashkilotlari hamda sanoanti rivojlangan mamlakatlarning standartlashtirish bo‘yicha milliy idoralari va umumiy tan olingan xalqaro tamoyillar va texnik jihatdan tartibga solishning tartib va qoidalari to‘g‘risida bilimlarni shakllantiradi.

“Sandartlashtirish asoslari” faning ahamiyati xalqaro savdo tizimiga O‘zbekiston Respublikasining ingeratsiyalashuvi bilan aloqador standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va metrologik ta’minotning o‘sib borishi byicha bakalavrлarni tayyorlashda undagi ko‘riladigan masalalar bilan etiborlidir.

Fan 5310900 – «Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menedjmenti» yo‘nalishining boshqa fanlari bilan uzviy bog‘liqdir. “Standartlashtirish asoslari” fanini o‘zlashtirish natijasida talaba:

bilishi lozim:

- Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, MEK) va Butunjahon savdo tashkiloti (BST) qoidalari va me’yorlariga muvofiq standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solishning asosiy tamoyillarini;
- O‘bekiston Respublikasining standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining qonuniy asoslarini;
- texnik me’yoriy huquqiy aktlar (TMHA) (texnik reglamentlar, davlat standartlari, korxna standartlari, texnikaviy shartlar)ning turlari va ularga qo‘yilgan talablar;
- savdodagi texnik to‘siqlar (STT) va sanitar hamda fitosanitar tadbirlar bo‘yicha BST Kelishuvining asosiy qoidalarini;
- O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarining elementlarini;
- standartlashtirishning asosiy usullari va ulardan mahsulotni yaratishdagi barcha bosqichlaridan foydalanishni;

- o‘zaro almashinuvchanlikni ta’minlash tamoyillari va ularning turlarini; ko‘nikmaga ega bo‘ladi;
- korxona va tarmoqlarda standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha ishlarning zamonaviy holatini tavsiflash va tahlil qilish;
- standartlashtirish usullarini amaliyatga qo‘llash;
- O‘zbekiston Respublikasining TMHAlaridan, mahsulotlarga majburiy talablarni o‘rnatishda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari standartlari, hududiy va xalqaro standartlardan samarali foydalanish; tasavvurga ega bo‘ladi:
- standartlashtirish bo‘yicha xalqaro, hududiy va milliy tashkilotlarning tuzilmasi va faoliyatları to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasi TMHA va xalqaro standartlarni ishlab chiqish tartibari to‘g‘risida;
- o‘zaro o‘rin bosuvchi davlat standartlari va uyg‘unlashgan yevropa standartlari to‘g‘risida;
- barcha davlatlarda texnikaviy qonuniy aktlar me’yorini uyg‘unlashtirish to‘g‘risida.

Fanni o‘qitishda mashg‘ulot turlarining bajarilish tartiblari mavzular ketma-ketligini va mutanosibligini saqlagan holda amalga oshirilishiga alohida e’tibor berilishi lozim. Nazariy materiallar o‘quv adabiyotlariga asoslanib olib boriladi. Amaliy mashg‘ulotlarini misollar yechish, hamda me’yoriy hujjatlarning tuzilishi, bayon etilishi va rasmiylashtirilishi kabilar tashkil qiladi.

# I-MODUL. STANDARTLASHTIRISHNING UMUMIY QOIDALARI

## 1.1 “Standartlashtirish asoslari” faniga kirish

Mazkur fan 5310900 – “Metrologiya, standartlashtirish va maxsulot sifati menedjmenti (sanoat)” bakalavriatura yo‘nalishi uchun asosiy mutaxasislik fanlari jumlasidan bo‘lib, talabalarga standartlashtirishning xuquqiy, me’yoriy, nazariy, tashkiliy-nazorat hamda iqtisodiy jabhalari bo‘yicha asosiy tushunchalar berishni nazarda tutadi.

Fanni o‘zlashtirish jarayonida talabalar standart turlari, uni ishlab chiqarish va joriy etish jarayonlari, standartlashtirishning xalq xo‘jaligidagi hamda xalqaro munosabatlardagi axamiyatli roli xaqida nazariy bilim va amaliy ko‘niikmalarga ega bo‘ladilar.

5310900 – “Metrologiya, standartlashtirish va maxsulot sifati menedjmenti (sanoat)” yo‘nalishning fanlari bilan uzviy va chambarchas bog‘liq bo‘lgan “Standartlashtirish asoslari” fani matematika, fizika kabi fundamental, materialshunoslik, o‘zaroalmashinuvchanlik, asbobsozlik kabi umumtexnika hamda iqtisodiyot, ekalogiya, tabiat va mehnat muhofazasi kabi maxsus fanlarga tayangan holda o‘zaro taraqqiyotda bo‘ladi.

## 1.2 Fanning maqsadi va vazifalari, iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yunaltirilgan bo‘lishi kerak.

Standartlar darajasiga qarab, xalqaro, mintakaviy davlatlararo, milliy va korxona mikyosida faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qo‘yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va o‘zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste’molchi oralaridagi munosabatlarni yaxshilashga yunaltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o‘z vaqtida yuqori sifatli loyixa - konstruktorlik hujjatlar berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat ko‘rsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak bo‘lsa mahsulotning ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomalada bo‘lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirishda yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga, saqlashga, omborlarda mahsulot sifatini buzilmay saqlashga, transportda olib yurishda, buyumni tarqatish, sotish tashkilotlariga talablar belgilaydi.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo‘nalishlarni bir – biriga bog‘lovchi vosita hamdir.

**Standart** bu ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan, ma’lum sohalarda optimal tartiblashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning har xil turiga yoki natijalariga tegishli bo‘lgan umumiyligi va takror qo‘llaniladigan qonun qoidalar tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatdir.

**Standartlashtirish** bu barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida umumfoydali, jumladan, iqtisodiyotga erishishda takrorlanadigan vazifa (jarayon)larning umum maqbul yechimini topish uchun foydalanish sharti, texnik xavfsizlik va ekologiya talablariga rioya qilingan holda, ma’lum bir sohada, faoliyatni optimal darajada tartiblashtirish maqsadida qoidalar o‘rnatish va qo‘llashdir.

- mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning aholining hayoti, sog‘ligi va mol mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste’molchilar va davlat manfaatini himoya qilish;

- mahsulotlarning o‘zaro almashuvchanligini va birg‘biriga mos kelishini ta’minlash;

- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo‘jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirish;

- barcha turdagи resurslar tejalishiga ko‘maklashish, ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash;

- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

- mudofa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta’minlash;

- o‘lcholarni yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash;

### **Standartlashtirishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- iste’molchi va davlatning manfaati yo‘lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo‘yish;

- davlat fuqorolari va xorijiy mamlakatlar ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me’yoriy hujjatlar tuzilishi va

uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, hujjatlarni nazorat qilish;

- materiallarda energiya sig‘imini kamaytirish, kam chiqindi chiqarish texnologiyalarini qo'llash;
- metrologik me'yor, qoida, nizom va talablarni belgilanishi;
- standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;
- xorjiy mamlakatlarining talablari O‘zbekiston Respublikasining xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondira olgan hollarda ularning xalqaro mintaqaviy va milliy standartlarini mamlakat standartlari va texnikaviy shartlari tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo'llash tajribasini kengaytirish;
- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;
- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xadqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarni tashkil qilish;
- texnik-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va joriy etish.

### **1.2.1 Standartlashtirishning qisqacha tarixi, Standartlashtirish ishlarini qadim zamonda, o‘rta asrda va XX asr boshlaridagi holati**

Insoniyat taraqqiyotining *Homo habilis* (tadbirkor odam) darajasidan *homo Sapiens* (farosatli odam) darajasiga uning faoliyati turlari ichida ko‘zga tashlanganlaridan biri bu biz haqli ravishda atashimiz mumkin bo‘lgan standartlashtirishdir.

Qadim zamon odamlari, o‘ta qiyin tabiiy sharoitlarda hayot kechirish, ya’ni yemoq uchun xayvonlarni ovlash, o‘simpliklarni iste’mol qilish va boshqa tabiat in’omlaridan foydalanishga majbur edilar.

Ovlashning metod va vositalari inson «tirikchiligi» faoliyatida amalda sinalib takomillashib borish bilan birga, qabiladan-qabilaga, avloddan-avlodga me'yoriy - «standart» lar tarzida o‘tib keldi.

Bunday tartiblanishuv inson faoliyatining boshqa jabhalarida ham kuzatila boshladi. Aytaylik, sovuqdan, tabiiy ofat va boshqa kutilgan va kutilmagan hodisalardan yashirinish joylarini qidirish, qurish va mustaxkamlash, hayvon mo‘ynalaridan xayotda foydalanish, po‘stin va cho‘qay tikish kabi ishlarni amalga oshira borish standart talablarining dastlabki ko‘rinishlari sifatida ijtimoiy xayot talablari ekanligini e’tirof etish mumkin.

Qadimgi Misrda, Fraunlar davrida katta tarixiy inshootlar, jumladan, Misr tarixiy piramidasining qurilish jarayonida inson ishqalanish kuchini yengish, kam kuch bilan katta yukni joyidan siljитish uchun avvalo chanasimon sirpanish vositalari, keyinchalik esa g‘o‘lasimon vositalarini ixtiro qildilar. Natijada og‘ir yukni yengil ko‘zg‘alishini ta‘minlovchi aylanma xarakat orqali istalgan ilgarilanish masofasiga eltish vositasi G‘ildirak paydo bo‘ldi. Doimiy o‘zgarmas o‘lchovlarga (60x60x120 sm) ga ega bo‘lgan qurilish materiallari qo‘llanilib ularning o‘lchami nazorat qilib turiladigan bo‘ldi.

Quldorlik tuzumi davrlarida butun Rim imperiyasi uchun jaroxatlangan o‘q otish vositalarining elementlari o‘zaroalmashinuvchan bo‘lishi ta‘minlangan edi. Shuningdek Imperiya shaxar xududi suv ta‘minotida bir xil diametrli boshlang‘ich diametri taxminan 95 mm, tarnov (truba) lar ishlatilib, boshqa o‘lchamlari ta‘qiqlangan edi.

Feodalizm tuzumi davrida, quldorlikka nisbatan taraqqiyot yanada jadallahib va juda ko‘p buyum va vositalar o‘zlarida standart elementlarini mujassamlashtira bordi. Bu borada XII-XIV asrlarda Germaniya xunarmadnchiligidagi yuz bergen ba’zi bir tartiblashtirilgan, masalan maxsulot sifati, ish vaqtining davomiyligi, shogirdlar soni, ish usullari va shu kabilarni belgilab qo‘yish amalga oshirildi. To‘qimachilik sanoatida 1298-yillarda sifat va o‘lcham uchun me’yorlar o‘rnatildi.

1715-yili Rossianing Tula qurol zavodida bir xil kalibr belgilangan. Rossiya Imperiyasining Pyotr I hukmronligi davrida XVII-XVIII asrlarda yaratilgan juda ko‘p qurol aslaxa elementlari aniq bir xil na’munalardan qilinishi belgilanib, hozirgi zamон standartlashtirilishining prototipi tarzida namoyon bo‘lgan.

1785- yili Fransuz muxandisi Leblan 50 dona qurol – aslaxa qulflarini yaratdi, ularning har biri boshqa qurol – aslaxalar uchun ishlovsiz tushar edi.

1846-yilda esa Germaniyada temir yo‘llar eni (koleyasi)ni va vagon ulash ilashmasini unifikasiyasi (birxillashtirish) amalga oshirildi. 1869-yilda esa temir yo‘l relsi profili o‘lchamlari bo‘yicha standart na’munalar to‘plami chikdi.

1870 - yilda Yevropaning bir qator mamlakatlarida Standart g‘ishtlar chiqarila boshladi.

1891- yilda Angliyada, keyinchalik esa boshqa Yevropa mamlakatlarida Standart burama (rezba)lar ishlab chiqarila boshlandi.

XIX asrning oxirlariga kelib yevropa mamlakatlari, ayniqsa ko‘p mamlakatlari Germaniyada standartlashgan deb atalishi mumkin bo‘lgan narsalar soni juda ko‘payib, F. Engel’s ta‘biri bilan aytganda o‘lchash va tarozilashning turlari

shunchalik ko‘pki, hatto bir yillik kunlar soniga tengdir. Chunki buning o‘ziga xos sabablari bor edi. Katta bir mamlakat ichida kichik-kichik respublikalar mavjud bo‘lib, hali umumlashgan talablar ro‘yobga chiqmagan, o‘lchovlar tasodify tanlangan edi. Masalan Genrix-I ma’lum uzunlikka teng o‘lcham "lokot" nomi bilan, buyuk Karl oyog‘i o‘lchamiga teng birlik "fut" nomi bilan yuritilgandi.

1790-yilda Fransiyada ilk bor uzunlik birligi sifatida "metr" yaratilib, u yer meridiani chorak uzunligining o‘n milliondan birini tashkil etdi. Oradan 85 yil o‘tgach, Parij konvensiyasida xalqaro o‘lchov va tarozilov maxkamasi uzunlik birligi sifatida "metr"ni qabul qildi. Bu voqeа ilmiy texnik taraqqiyotning muhim xodisalaridan biri bo‘ldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida texnika taraqiyotida anchagina yutuqlarga erishildi, sanoat va ishlab chiqarishni yiriklashuvi vujudga keldi. Bu esa bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda standartlashtirishga qiziqishni kuchaytirdi. Bu mamlakatlarning ba’zilarida milliy standartlashtirish tashkilotlari paydo bo‘ldi.

Standartlashtirish qo‘mitasi barpo bo‘lgan mamlakatlar orasida Angliya binchi bo‘ldi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi Buyuk Britaniya imperiyasi iqtisodiy salohiyatini, ashyo—mahsulot, harbiy texnika, buyumlariga standartlar ishlab chiqish va uni joriy etish hisobiga amalga oshirishni ko‘zlashdan iborat edi.

Standartlashtirish tarixiy jarayoni tahlili shuni ko‘rsatadiki, Davlatlarning hukmronlikka intilishi, jumladan urush jarayonlari standartlashtirishni jadallashtiradi.

Xususan, birinchi jahon urushi vaqtida va uning tugallanishidan keyin bir qator mamlakatlar: Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Shvesiya Avstriya, Vengriya, Belgiya, Italiya, Yaponiya va boshqalarda standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlar tuzilgan edi.

1905 yilda Avstraliyada meva mahsulotlari uchun 1-chi standart qabul qilingan. Ular mamlakatdan chiqarilayotgan mevalar sifatini aniqlab bergan. Maxsus qarorga ko‘ra olma va noklar faqat standart talablariga muvofiq saralanib, qadoqlangandan keyingina sotilishi mumkin bo‘lgan.

Rossiyada standartlashtirish bo‘yicha birinchi ishlar 1907 yilda boshlangan. Sang-Peterburgda meva, choy va vino birjasи yonida “Doimiy texnik komissiya” tuzilgan. Bu komissiya mevalarni hamma navlarini tovarlik qiymatiga ko‘ra 3 guruhga bulgan:

1. Juda qimmat mevalar,
2. O‘rtacha qimmat mevalar,
3. Arzon mevalar.

Komissiya tomonidan “Mevalarni saralash va qadoqlash qoidalari” ishlab chiqildi. Mevalar quyidagi belgilariga ko‘ra saralanishi kerak bo‘lgan:-massasi,tozaligi,shaklining to‘g‘riliqi.

1930 yilda Butunittifoq standartlashtirish komiteti qabul qilindi. Shu yili olma uchun standart OST-558 qabul qilindi. Bu standartlar savdoga chiqariladigan olmaga qo‘yiladigan talablar yig‘indisidan iborat. OST quyidagi bo‘limlarni o‘z tarkibiga olgan:-

1. Aniqlash,
2. Sinfga ajratish,
3. Saralash,
4. Qadoqlash,
5. Markalash,
6. Qabul qilish qoidalari,
7. Tashish,
8. Saqlash.

1931 yilda yangi meva va sabzavotlardan 80 turdagи navlariga standartlar joriy etilgan. 1940 yilda Oliy kengash Prezidiumining qaroriga ko‘ra standartlar Davlat standarti (qisqacha GOST) deb yuritila boshlangan.

1970-1980 yillarda standartlashtirishning rejasiga binoan respublika texnik shartlari o‘rniga, ko‘plab meva va sabzavotlarning muhim navlariga GOST ishlab chiqilgan. Xalq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha, mavjud standartlarni qayta ko‘rib chiqish va yangilarini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Bu yo‘nalishdagi ishlar hozirgi kunda ham olib boriliyapti. Bunga vazirliklarning yetakchi ilmiy tekshirish institutlari jalb etilgan.

### **1.2.2 Markaziy Osiyo Mamlakatlari va O‘zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari**

Markaziy Osiyo mamlakatlarining, xususan O‘zbekistonda standartlashtirishning boshlanishi xaqida aniq bir raqamli vaqt va makonni keltirish avvalgi bo‘limning bazi bir xolatlariga takror bo‘lishi tabiiy. Alloma donishmanlarimizning tarixiy asarlariga nazar solsangiz bunga hech shubxa qolmaydi. Qadimdan Eron va Turon Zaminida ishlab chiqarish munosabatlari, jarayonlari savdo, iqtisodiy, ilmiy–texnik ishlari o‘zaro yaqin va chambarchas holatda olib borilgan. Shu munosabat bilan eron mutaffakkiri Kaykovusning XI asrda yozilgan "Qobusnoma" asaridan bir parcha eslash kifoya. "Xozirgi men yashayotgan

zamonda inson qo‘l urgan har qanday ish bo‘lmisin ularni tartibsiz qoldirib bo‘lmas, har narsada tartibni anglash zarur". Har qanday sohada me’rosni (an’ana, odat, tarbiya) tartibli (standart) xolatda qoldirilishini anik tasdiqlagan Kaykovus vaqt kelganda ko‘p ishga ulgurishni nazarda tutgan. Asarda san’at, xaykaltaroshlik musiqa va boshka soxalarda inson faoliyati xulq atvoriga qo‘yilgan talablar shu kunlardan o‘z ifoda va mazmuniga ega. Qadimgi allomalarimiz asarlaridagi va ota–bobolarimizning " ...yetti o‘lchab bir kes" kabi xikmatli o‘gitlari standartlashtirtish jarayonlarining elementlaridir.

Standartlashtirish elementlari Turon zaminidagi mamlakatlar, xususan O‘zbekiston mintaqasida bunyod etilgan noyob arxitektura boyliklarida, standart g‘ishtlarni rango–rang bezaklar bilan uyg‘unlashgan o‘lchovlarda qo‘llanilishi insonni maxliyo kiladigan: Go‘ri amir, Bibixonim, Paxlavon Maxmud, Xiva tashki va ichki qal’alari, Ulug‘bek madrasasi, qal’a minorasi, Ko‘kaldosh madrasasi va boshqalarda mujassamlashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va O‘zbekistonda qadimdan: kadoq (400 gr atrofida), chaksa (6kg), pud (16kg), botmon (160kg) kabi massa birliklari; enlik (panja eni, 2sm atrofida) so‘yam (bosh barmoq va ko‘rsatkich barmoq o‘lchovi – 18 sm atrofida), qarich (bosh barmoq bilan chinchaloq barmoq o‘lchovi-23 sm), qadam (ikki oyoqni yurishdagi o‘rtacha oralig‘i-0,75m atrofida), quloch (ikki qo‘lning elka satxida cho‘zilishdagi uzunlik-1,5 m atrofida), bir tosh (taxminan 0,75km), bir chaqirim (taxminan 3 tosh) kabi uzunlik birliklari; tanob (100 m kv atrofida) sirt birliklari standart birliklar sifatida keng qo‘llanilib kelingan. Kirpitch so‘zining–qirbich, kolbasaning–qo‘lbos, utyug (dazmol)ning – o‘t yuk kabi protiplarining turkiy tilda mavjudligi, algebraning al–jabr, meditsinaning–madadi sino kabi tushinchalar bilan uyg‘unligi ham Markaziy Osiyo mamlakatlarida Standartlashtirish ob’ekt va jarayonlari tarixinining yetarlicha chuqur va mazmunliligidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda standartlashtirishning rasmiy bosqichi 1923 yil toshkent shaxrida «O‘lchov va tarozi maxkamasi Turkiston markazi tashkil» etilishdan boshlandi. Bu markazning Qo‘qon, Samarkand, Ashxobod, Olma–Ota shaharlarida shaxobchalari tuzildi.

1926-yilda O‘zbekiston ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissariati huzurida standartlashtirish mahkamasi bunyod etildi. U davrlarda standart uch xil turda tasdiqlanan edi: sinaladigan, tavsiya etiladigan, majburiy qo‘llanadigan.

O‘zbekistonda standartlashtirish, standartlashtirish bo‘yicha Markazqo‘m tasdiqlagan, sohalar taxliliga ko‘ra tuzilgan yillik rejalar asosida olib borilar edi.

1932- yil mart oyida "O'zbekiston mintaqalarini 2 xil vaqt kamariga o'tkazish to'g'risida "Sovnarkom karori kabul qilindi: 4-vaqt kamari (Moskva vaqtiga + 2 soat) va 5-vaqt kamari (Moskva vaqtiga +3 soat).

Shu yili O'zbekistonda ilk bor kunjutning urug'lik navi uchun O'ZREST 50 Respublika standarti kabul qilindi.

O'zbekistonda standartlashtirishning zamonaviy bosqichi 1973 yili O'zbekiston Respublikasi davlat Standart boshqarmasi (O'zdavstandart) tashkil etilganidan boshlanadi.

O'zbekiston suverenlikka erishgandan so'ng, ya'ni 1992 yil mart oyidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 93-son "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil kilish to'g'risidagi karori qabul qilingan vaqtan boshlab, standartlashtirishning yangi davri boshlandi".

1993-1998 va 2000-2003 yillarda O'zbekistonda standartlashtirishni jadallashtirish borasida bir qator o'ta muhim xukumat qarorlari chiqdi, muayyan chora tadbirlar belgilandi. Standartlashtirishni rivojlantirishning xalqaro standartlashtirish jarayoni bilan uyg'unlashgan asosiy yo'nalishlari belgilanib, soxalar standartlari, me'yoriy hujjatlarni ishlab chikish va joriy etish bo'yicha vakolatli davlat muassasalari, nazorat qilish va kuzatib borish bo'yicha idora va tashkilotlar belgilandi.

### **1.3 Halqaro standartlashtirish tashkilotlari faoliyati va tashkilotlari**

Turli xalqaro tashkilotlar standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohalarida me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, dunyo mamlakatlarini shu sohalardagi ilg'or yutuqlarini umumlashtirish va bu sohalar bo'yicha har xil yordam ko'rsatish metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi xalqaro tashkilot, sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti, sinov laboratoriylarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiya, G'arbiy Yevropa mintaqaviy va iqtisodiy tashkilotlari, standartlashtirish va metrologiya bo'yicha arab tashkiloti va boshqalari faol ishlab turibdi.

Ana shu tashkilotlarda amalga oshirilayotgan ishlarni biroz bo'lsada tasavvur qilish, ularning shu sohalardagi ishlari bilan qisqacha tanishish maqsadida Xalqaro tashkilotlarning faoliyatlari to'g'risida fikr yuritmoqlikni lozim topdik.

#### **1.3.1 Halqaro standartlashtirish tashkiloti – ISO va uning faoliyatları**

Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti - Britaniya Assotsiatsiyasi /British Engineering Standards Association/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqazo qildi. Shu maqsadda 1926 yili standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlarning Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISA ning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi.

1938 yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro s'ezd ochildi. Uning tarkibi turli texnika sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalardan tashkil topdi. 1939 yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISA ning faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

- dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni yengillashtirish uchun choralar ko'rish;
- xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarining to'rtadan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin);
- o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish;
- sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi - Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariati kiradi.

ISO da prezident, vitse-prezident, g'azinachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya - ISO ning Oliy Rahbari bo'lib, ISO ning yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi.

Bosh Assambleya o'tkazish vaqtida sanoat sohasida yetakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'rildi.

ISO tarkibi ikkita tashkilotdan tuzilgan bo'lib, ya'ni ISA va 1944 yilda asos solingan, BMT qoshidagi standartlarni muvofiqlashtirish qumitasi – UNSCC, uning shtab-kwartirasi Londonda joylashgan. ISO ni yaratishdan maqsad – "... xalqaro miqyosda sanoat standartlarini unifikatsiyalashtirish va muvofiqlashtirishni yengillashtirish...". Hozirgi kunda 170 ta mamlakat ISO tashkilotining a'zosi hisoblanadi.

ISO xalqaro nohukumat tashkilotidir. ISO rasmiy tili rus, ingliz va fransuz tillari deb tan olingan. Tashkilotning budgeti yillik a'zolik to'lovlaridan va ISO nashrlaridan olingan foydalardan tarkib topgan.

ISO ning qonunchilik idorasi Bosh assamleyasi bo'lib, har uch yilda bir marotaba yig'iladi.

Bosh assambleyaning sessiyalar orasida ISO rahbariyati prezident boshchiligida Kengash o'tkazadi. ISO Kengashini ISO ning bosh direktori boshchiligida Ijro qumitasi va Markaziy kotibiyat orqali faoliyatni amalga oshiradi.

ISO ning asosiy qo'mitalari bo'lib, standartlashtirish bo'yicha ilmiy-texnik axborotlar tamoyilini o'rganish bo'yicha doimiy qo'mita – INFCO, Mahsulotlarni attestatsiyalash bo'yicha qo'mita – SERTICO, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha qo'mita – DEVCO hisoblanadi.

ISO ning eng muhim idorasi bo'lib Standartlashtirish tamoyillarini ilmiy o'rganish bo'yicha doimiy qo'mita (The Standing Committee for Study of Scientific Principles of Standardization) hisoblanadi. Uni qisqartigan holda ISO/STAKO yoki oddiygina STAKO (STACO) deb nomlanadi.

ISO ning asosiy vazifasi maxsus tashkil etilgan texnik qumitalar (ISO/TK) va qumita osti qumitalari (ISO/TK/PK) xalqaro standartlarni ishlab chiqishni bajaradi.

1994 yilga kelib, ISO tarkibiga 100 ta milliy tashkilotlar, jumladan, ular qatoriga MDH mamlakatlari ham a'zo bo'ldi.

ISO ning eng muhim yo‘nalishlari bo‘lib sifat, axborot texnologiyalari, xalqaro standartlar bilan ishlovchi boshqa kooperatsiyalar, atrof-muhit, ta’lim yo‘nalishlari hisoblanadi.

ISO quyidagi hujjatlarni nashr etadi:

- harfli indeksi va sonli raqami mavjud bo‘lgan xalqaro standartlarini (masalan, ISO 1000);

- guruhli mavzulari va qo‘llanish sohasi bo‘yicha joylashtirilgan xalqaro standartlarning yillik katologini (ISO Catalogue);

- ISO tuzilmasi va uning har bir texnikaviy qumitasining faoliyat sohasi haqidagi axborotlardan tarib topgan yillik ma’lumot (spravochnik) larni (ISO Memento).

ISO a’zolari yoki muxbir-a’zolari mamlakatda standartlashtrishning rivojlantirish darajasiga aloqadorligidan kelib chiqib, standartlashtirish bo‘yicha milliy standartlashtirish tashkiloti bo‘lishi mumkin. ISO tarkibiga kirish to‘g‘risidagi takliflar ISO markaziy kotibiatiga jo‘natiladi (Shveysariya, Jeneva shahri).

1972 yilgacha standartlashtirish bo‘yicha ISO hujjatlariga tavsiya sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtida bunday hujjatlar ISOga a’zo-mamlakatlarning barchasi uchun xalqaro standartlar mavqiega ega.

Hozirgi paytda ISO turistik, mehmonxona, moliyaviy, sug‘urtalash xizmatlarni, xo‘jalik texnikalarini ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar va kadrlarni tayyorlash va ta’lim bo‘yicha xizmatlarni standartlashtirish bo‘yicha keng miqyosdagi ishlarni rivojlantirmoqda.

ISO 1995 yilda Internetda o‘zining Welcome to ISO Online <http://www.iso.ch>. nomli sahifasini ochdi.

ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasi 1.5.1.1-rasmda keltirilgan. Bosh boshqaruvi organi General assambleya bo‘lib hisoblanadi. General assambleya sessiyalari o‘rtasidagi vaqtida tashkiliy ishlarni standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlari vakillari kiruvchi ISO Kengashi boshqaradi.

ISO Kengashiga yettita STACO, PLACO, CASCO, DEVCO, COPOLCO va REMCO qo‘mitalari bo‘y so‘nadi.

STACO ISO Kengashiga xalqaro standartlarni ishlab chiqish usuli va prinsiplari bo‘yicha uslubiy va axborot yordam ko‘rsatadi.

U asos soluvchi standartlashtirish prinsiplarini o‘rganish va ushbu sohadagi optimal natijalarga erishish bo‘yicha tavsiyalarni tayyorlaydi. STACO savdoni rivojlantirish uchun xalqaro standartlarni qo‘llash bo‘yicha terminologik va

seminarlarni tashkillashtirish bilan ham shug‘ullanadi. PLACO tomonlarning ishlarini tashkillashtirish va texnikaviy muvofiqlashtirish, ISOning ishlarini rejalashtirish bo‘yicha tavsiyalarni tayyorlaydi.

CASCO mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va sifat tizimi standartlari talablariga muvofiqlikni tasdiqlash, sinov laboratoriylarini layoqatliligi va sertifikatlashtirish idorlariga tegishli masallar bilan shug‘ullanadi. CASCOning eng muhim ishi – milliy va hududiy sertifiatlasmashlarni qabul qilish va o‘zaro tan olish, hamda muvofiqlikni tasdiqlash va sinash sohalarida xalqaro standartlardan foydalanishga ko‘makashadi.

DEVCO standartlashtirish sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar takliflari o‘rganadi va ushbu sohada bu mamlakatlarga ko‘maklashish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqadi.

COPOLCO iste’molchilar qiziqishlarini va standartlashtirish orqali ko‘maklashish imkoniyatlarni ta’minlash masalalarini o‘rganadi hamda xalqaro standartlar to‘g‘risidagi zaruriy ma’lumotlarni ularga yetkazish bilan shug‘ullanadi. Bunda uni nashr etayotgan: “Iste’mol mahsulotlarini solishtirish sinovlari”, “Iste’molchilar uchun mahsulotlar to‘g‘risida axborotlar”, “Iste’mol mahsulotlarini ekspluatatsiya qilish tavsiflarini o‘lchash usullari standartlarini ishlab chiqish” va boshqa qo‘llanmalarini eng katta o‘rin tutadi.

REMCO standart namunalar (etalonlar)ga taalluqli masalalarbo‘yicha qo‘llanmalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari REMCO halqaro metrologiya tashkilotlari, xususan, MOZM – xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti bilan standart namunalar bo‘yicha ISO ning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro standartlarning loyihibalarini texnikaviy qumitalar ishlab iqishadi. Texnikaviy qumitalar (TQ) muayyan texnika sohasida ishlovchi umumtexnik va qumitalarga bo‘linadi. TQ doirasida qumita osti qumitalari (QQ) va ishchi ruhlar (IG) ishlashadi.

ISO ning: xalqaro o‘lchash birliklarini ishlab chiqishi; rezbalarning metrik tizimini qabul qilishi; barcha turdagи transportlarda yuklani tashish uchun konteynerlarning standart o‘lchamlari va konstruksiyasi tizimini qabul qilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yutuqlarga erishgan. Hozirgi paytda juda muhim bo‘lgan, ISO 9000 seriyali standartlarni ishlab chiqish TQ 176 “Sifatni ta’minlash tizimlari” qumitasining ishi ekanligi bilan dolzarb hisoblanadi.

ISO xalqaro standartlari majburiy bo‘lib hisoblanmaydi, biroq, har bir davlat ularni to‘liq qabul qilmasligi yoki umuman qabul qilmaslik huquqiga ega. Ammo, o‘zining mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta’minlash uchun bu standartlarni qabul qilishga o‘z-o‘zidan majburdir. Shuning uchun bir qacha davlatlar standartlashtirish ob’ektlariga o‘zining milliy standartlarini yaratmasdan mavjud bo‘lgan mos standartlarni qo‘llashga intilishadi.

### **1.3.2 Xalqaro elektrotexnika komissiyasi – ISO/IEC**

Elektrotexnika sohasida xalqaro hamkorlik bo‘yicha ishlar 1881 – yilda boshlangan. Bunda Elektr bo‘yicha birinchi xalqaro kongress tuzildi. 1904 – yilda Sent-Luisda (AQSh) hukumat vakillarining Elektr bo‘yicha xalqaro kongressi majlisida elektr mashinalar atamalarini va parametrlarini standartlashtirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus idora tuzish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Bunday idora – Xalqaro elektrotexnik komissiya (MEK) rasmiy ravishda 1906 – yilda Londonda 13 mamlakat vakillarining konferensiyasida tuzildi.

1946 – yilda ISO tuzildi va unga MEK o‘zining moliyaviy va tashkiliy masalalarda mustaqilligini saqlagan holda alohida huquqlar bilan qo‘sildi.

Bu tashkilotlarning sekretariatlari hududiy jihatdan bir binoda Jenevada joylashgan.

ISO va MEK ning faoliyat sohalari aniq chegaralangan – MEK elektrotexnika, elektronika, radioaloqa, priborsozlik sohasida, ISO esa qolgan barcha sohalarda standartlashtirish bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatlar o‘zlarining milliy qo‘mitalari bilan MEK da qatnashadi. Milliy qo‘mitalar sanoatning barcha sohalari manfaatlarini ifodalaydi. Ko‘pchilik mamlakatlarda bunday milliy tashkilotlar qatnashadi. Bu bilan bir qatorda ba’zi mamlakatlarning MEK da qatnashuvchi milliy qo‘mitalar standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlardan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi (masalan, bunday mamlakatlarga Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya va b. kiradi).

Xozirgi vaqtida 41 milliy qo‘mita MEK a’zosidir. Bu mamlakatlarda jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 95 % ni iste’mol qiluvchi yer sharining 80 % aholisi yashaydi. Bular asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar. Shuningdek sanoat tarmoqlariga ega bo‘lgan rivojlanib kelayotgan qator mamlakatlardan iborat. MEK ning rasmiy tili – inglizcha, fransuzcha va ruscha.

MEK ning asosiy vazifasi yuqorida nomi kelitirilgan sohalarda Xalqaro standartlarni yaratishdan iborat.


MEK ning oliy rahbar idorasi Kengash bo‘lib, bunda mamlakatlarning barcha milliy qo‘mitalari qatnashadi. Saylanuvchi lavozimli shaxslarga prezident uch yillik muhlatga saylanadi, vitseprezident, haznachi va bosh sekretar kiradi.

MEK texnik idoralarining tuzilmasi ISO dagi kabi: texnik qo‘mitalar (TQ), kichik qo‘mitalar (KQ) va ishchi guruhlar (IG) dan iborat. Umuman, MEK da 80 dan ortiq TQ bor bo‘lib, bularning bir qismi xalqaro umumtexnik va tarmoqlararo xarakterdagi standartlarni (masalan, atamalar bo‘yicha, grafik tasvirlar, standart kuchlanishlar va chastotalar, iqlim sinovlari va b.), boshqa qismi esa, mahsulotning muayyan turlari uchun (tarnsformatorlar, elektron texnika buyumlari, maishiy radioelektron apparatlari va b.) standartlarni ishlab chiqadi.

MEK standartlarini yaratish protsedurasi uning Ustavi, Protsedura qoidalari va texnik ishlar bo‘yicha Umumiyl direktivalar tomonidan belgilanadi. Har 1-1,5 yilda TQ (KQ) majlislarda o‘z ishlarining dasturlarini tuzadi (yoki to‘g‘rilaydi). Har yili MEK dasturiga 500 gacha va bundan ham ortiq yangi, xalqaro standartlarni yaratishni ko‘zda tutuvchi mavzular kiritiladi. MEK/ISO ishlab chiqqan va 1990 yil 1 fevraldan amalga kiritilgan Direktivalarga muvofiq amaldagi standartni qayta ko‘rib chiqish yangi mavzuni ishlab chiqish kabi qaraladi.

ISO kabi, 1972 yilda MEK o‘z tavsiyanomalarini xalqaro standartlar deb nomladi.

Xozirgi vaqtida 2 mingdan ortiq xalqaro MEK standartlari yaratilgan, bunda MEK standartlari o‘zlarida mahsulotga va mahsulotni sinash metodlariga texnik talablarning mavjudligi nuqtai nazardan ISO standartlariga nisbatan ancha to‘liq tuzilgan bo‘ladi. Buni, bir tomonidan, MEK ning faoliyat sohasiga kirgan mhsulotga talablarda xavfsizlikka oid talablar asosiy hisoblanishi bilan tushuntirish mumkin, boshqa tomondan esa, ko‘p o‘n yilliklar davomida to‘plangan ish tajribasi standartlashtirish masalalarini ancha to‘liq hal qilishga imkon beradi.



1.3.2.2-rasm. MEK xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi

### 1.3.3 Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi xalqaro tashkilotlar

Xalqaro miqyosda metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi xalqaro tashkilot ham mavjuddir. Uni qisqartirilgan holda MOZM (Mejdunarodnaya organizatsiya zakonadatelnoy metrologii) deb ataladi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi - davlat metrologik xizmatlarni va boshqa milliy muassasalarning faoliyatlarini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirishdir.

MOZM faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-MOZMga a'zo bo'lgan mamlakatlar uchun o'lhash vositalarining uslubiy me'yoriy metrologik tavsiflarining birlilagini belgilash;

-qiylash uskunalarini, solishtirish usullarini, etalonlarni tekshirish va attestatlashini, namunaviy va ishchi o'lhash asboblarini uyg'unlashtirish;

-xalqaro ko'lamda birxillashtirilgan o'lhash birliklarini mamlakatlarda qo'llanishini ta'minlash;

-metrologik xizmatlarning eng qulay shakllarini ishlab chiqish va ularni joriy etish bo'yicha davlat ko'rsatmalarining birlilagini ta'minlash;

-rivojlanayotgan mamlakatlarda metrologik ishlarni ta'min etish va ularni zarus texnik vositalari bilan ta'minlashda ilmiy-texnikaviy yordamlashish;

-metrologiya sohasida turli darajalarda kadrlar tayyorlashning yagona qonun-qoidalalarini belgilash.

MOZMning Oliy rahbar idorasi metrologiyadan qonun chiqaruvchi Xalqaro konferensiyasi hisoblanib, u har to'rt yilda bir marta chaqiriladi. Konferensiya tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ishchi idoralarining ma'ruzalarini tasdiqlaydi, budjet masalalarini muhokama qiladi.

MOZMning rasmiy tili - fransuz tilidir.

Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (YeOK)

Sifatni nazorat qilish Yevropa tashkiloti YeOKK (Yevropeyskaya organizatsiya po kontrolyu kachestva) uning bиринчи konferensiyasi 1957 yilda chaqirilgan bo'lib uni nizomi ham tasdiqlandi.

Sinov laboratoriyalarning akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiyasi (ILAK)

ISO va MEK ishlab chiqqan xalqaro qoidalarga asosan laboratoriyalarni akkreditlashdan maqsad sinov laboratoriyalarni aniq sinovlar yoki aniq tur sinovlari (ISO/MEK Rukovodstvo 2. 86) o'tkazishga huquq berishdan iborat.

#### **1.4 Hududiy standartlashtirish tashkilotlari va xorijiy mamlakatlarda standartlashtirish**

Milliy idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish uchun 1992 – yilda MDH mamlakatlarining (Boltiq bo'yi mamlakatlaridan tashqari) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengashi (DAK) tuzildi.

MDH mamlakatlari hukumatlarining boshliqlari 13 mart 1992 –yilda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni olib borish to'g'risida Bitimga imzo chekdi.

Bu Hamkorlik davlatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarning imkoniyatlarini va boyliklarini birlashtirishga, ilgari to'plangan tajribalar va me'yoriy hujjatlardan birgalikda foydalanish va ularni takomillashtirishga, shuningdek faoliyatning bu sohalarida yagona texnik siyosatni amalga oshirishga imkon berdi. DAK ning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi idora sifatida ishlari MDH da quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- yagona me'yoriy baza – davlatlararo standartlar, tasniflagichlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni qo'llanish va rivojlantirish;

- yagona etalon baza va o'lhashlar birlilagini ta'minlash tizimlarini shu jumladan, vaqt va chastotalar, moddalar va materiallarning tarkibi va xossalariiga oid standart ma'lumotnomasi ma'lumotlari davlatlararo xizmatlarini shakllantirish;

- mahsulot va xizmatlarni sinash va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish.

DAK ning texnik siyosati a'zo-davlatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari, ilmiy-texnikaviy komissiyalar (ishchi guruhlari) va standartlashtirish bo'yicha davlatlararo TQ tomonidan shakllantiriladi.

DAK faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-texnikaviy komissiyalar yoki ishchi guruhlar, vaqt va chastotaning bir xil o'lchanishini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida hukumatlararo Bitimni bajarish bo'yicha vakolatli vakillarining Kengashi, shuningdek standartlashtirish bo'yicha 230 dan ortiq davlatlararo TQ doimiy ishlamoqda. Xozirgi vaqtda Kengashning ishchi idorasi Minskda joylashgan standartlashtirish bo'yicha Byurodan iborat. Kengashni rotatsiya asosida DAK a'zo-mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarining rahbarlari boshqaradi.

Kengash davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida qator hukumatlararo bitimlarni tayyorladi va bular MDH mamlakatlari hukumat boshliqlarining majlislarida qabul qilingan. Bunday bitimlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni o'tkazish to'g'risida Bitim (13.06.1992, Moskva);
- Vaqt va chastotani o'lhash birxilligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida Bitim (09.10.1992, Bishkek);
- Qiyoslash va metrologik attestatlash maqsadida chegaradan olib o'tiladigan me'yoriy hujjatlar, etalonlar, o'lhash vositalari va standart namunalarni olib o'tishga bojxona to'lovlari, soliqlardan va maxsus ruxsatnomalarni berishdan ozod qilish to'g'risida Bitim (10.02.1995, Almati);
- O'zaro yetkazib beriladigan mahsulotga mehnat muhofazasi bo'yicha kelishilgan me'yorlar va talablarni ishlab chiqish va rioya qilish tartibi to'g'risida Bitim (12.04.1996, Moskva);
- Erkin savdo hududida texnik to'siqlar bo'yicha Bitim (20.06.2000, Moskva);

- MDH davlatlarida sayohat sohasida davlatlararo standartlarni va sertifikatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha Konsepsiya.

MDH mamlakatlarida amaldagi texnik qonunlarni uyg‘unlashtirish maqsadida DAK da model qonunlar ishlab chiqilgan:

- “Standartlashtirish to‘g‘risida” (Parlamentlararo assambleyaning (PAA) 10-yalpi majlisida qabul qilingan);
- “O‘lchashlar birliligini ta’minlash to‘g‘risida” (MDH PAA ning 11 –yalpi majlisida qabul qiligan).

DAK doirasida quyidagi bitimlar tuzilgan va bajarilmoqda:

- Sertifikatlashtirish bo‘yicha ishlarni o‘tkazish va o‘zaro tan olish prinsiplari to‘g‘risida (04.06.1992, Krasnodar);
- Davlat sinovlari va xilini tasdiqlash, metrologik attestatlash, o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash natijalarini, shuningdek sinovlarni, o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash laboratoriylarini akkreditlash natijalarini o‘zaro tan olish to‘g‘risida (06.10.1992, Toshkent);
- Moddalar va materiallar tarkibi va xossalarning standart namunalarini yaratish va qo‘llanish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida (06.10.1992, Toshkent);
- Moddalar va materiallarning fizik konstantalari va xossalari to‘g‘risida ma’lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida (06.10.1992, Dushanbe);
- DAK standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, MEK) va Yevropa Ittifoqi (SEN) standartlashtirish bo‘yicha tashkiloti, standartlashtirish bo‘yicha hududiy tashkilot tomonidan tan olingan va unga ISO va MEK da qabul qilingan qoidalarga muvofiq “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha Yevro-Osiyo tashkiloti (EASC) nomi berilgan. Yuqoridagi nomi keltirilgan tashkilotlar bilan hamkorlik, axborot va me’yoriy hujjatlar bilan almashinish va o‘tkaziladigan tadbirdarda ishtirok etish to‘g‘risida uzoq muddatli kelishuvlar imzolangan.

EASC imzolangan kelishuv (bitimlar) ga asosan xalqaro va yevropa standartlarini davlatlararo standartlar orqali, EASC ning alohida a’zo-mamlakatlari esa, milliy standartlar orqali qo‘llanish huquqiga ega. Bu davlatlararo va milliy standartlarni ham xalqaro, ham yevropa standartlari bilan yuqori darajada uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Bunday huquqdan EASC ning a’zo-davlatlari, bu tashkilotlarda a’zolik statusidan qat’iy nazar, foydalanadi.

Xozirgi vaqtida MDH davlatlararo standartlarining jamg‘armasida 19000 dan ortiq me’yoriy hujjatlar bor. 1992 – yildan boshlab 3800 dan ortiq davlatlararo me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Jamg‘arma DAK ning standartlashtirish bo‘yicha Byurosi tomonidan, DAK a’zo-davlatlarning milliy idoralari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Davlatlararo me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ularning talablari xalqaro, hududiy va ilg‘or milliy standartlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikda texnik to‘siqlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan yagona me’yoriy-texnik ta’minotni saqlash uchun sharoit yaratadi, shuningdek DAK a’zo-davlatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotni xalqaro va yevropa bozoriga chiqarishga ko‘maklashadi.

#### **1.4.1 Standartlashtirish bo‘yicha Yevropa komiteti (SEN)**

Yevropa ittifoqi uyushmasi (YeIU) doirasida birlashgan bozorni yaratish bo‘yicha vazifalarini amalga oshirish munosabati bilan “texnik to‘siqlarni” bartaraf etish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi. Bunday texnik to‘siqlar buyumlarga standartlardagi farq, ulardan foydalanish qoidalarining zidligi, xavfsizlik texnikasi bo‘yicha farqlanuvchi me’yorlar, sog‘liqni saqlash va tabiatni asrash me’yorlaridagi farqlar hisobiga paydo bo‘ladi.


Bu muammoni hal qilishda yevropa standartlashtirishiga birinchi navbatda ahamiyat beriladi.

Yevropa ittifoqi uyushmasi (YeIU) va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YeESA) vakillarining 23 mart 1961 yilda Parijda bo‘lib o‘tgan majlisida SEN ning tashkil etilganligi e’lon qilindi (SEN 1970 – yilgacha Standartlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi, deb atalgan). SEN a’zolari YeIU va YeESA ning 18 mamlakati: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Islandiya, Italiya, Luksemburg, Norvegiya, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, GFR, Fransiya, Shvesiya va Shvesariya standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlaridan iborat. Bu – yopiq tashkilot bo‘lib, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining yuqorida keltirilgan iqtisodiy guruh a’zolarini birlashtiradi.

SEN ning birinchi majlisidayoq Ustav va protsedura Qoidalari tasdiqlandi. 1970 – yilda SEN Ustavi qayta ko‘rib chiqiladi. Bunda Ustavga ma’lum o‘zgartirishlar bilan birga yevropa standartlari (EN) ni majburiy yaratish ham kiritilgan.

Standartlarni yaratish bo'yicha barcha ishlar texnik qo'mitalar tomonidan olib boriladi. Bunday texnik qo'mitalarda texnik sekretariatlar iqtisodiy guruh mamlakatlaridan biri tomonidan boshqariladi.

SEN doirasida 140 dan ortiq TQ tuzilgan. TQ bilan bir qatorda, alohida masalalarini hal etish uchun maslahat guruhlari tashkil etilgan.



#### 1.4.1.1-rasm SENning tashkiliy tuzilmasi

SEN vazifasi quyidagilar vositasida xizmatlar savdosini va almashinishni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat:

- SEN a'zo-mamlakatlarida yaratilagan standartlarni uyg'unlashtirish va yevropa standartlarini ishlab chiqish;
- o'zlarining direktivalarida va boshqa rasmiy hujjatlarida havola qila olishlari uchun yevropa standartlarini YeIU, YeESA ga, shuningdek boshqa hukumatlararo tashkilotlarga taqdim etish;
- elektrotexnikada standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi va standartlashtirish masalalari bo'yicha boshqa ilmiy-texnik va iqtisodiy hududiy hukumat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- ISO va MEK orqali xalqaro standartlashtirishga va Yevropada ISO standartlarini va boshqa xalqaro standartlar va tavsiyanomalarni bir xilda qo'llanishga ko'maklashish;

– yevropa standartlari asosida sertifikatlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni berish.

SEN da standartlashtirish bo‘yicha ishlar ko‘p jihatdan ISO da erishilgan natijalalarga asoslanadi yoki ularni to‘ldiradi.

SEN quyidagi sohalarda standartlar yaratadi: aviatsiya jihozlari, suv isitish gaz priborlari, gaz ballonlari, ko‘tarish mexanizmlarining detallari, oshxona gaz plitalari, liftlar va yuk ko‘targichlar, payvandlash va qirqish, quvurlar va truboprovodlar, nasos stansiyalari (foydalanish va xizmat ko‘rsatish), stekloplastikadan tayyorlangan sisternalar va boshqalar.

#### **1.4.2 Elektrotexnikada standartlashtirish bo‘yicha Yevropa komiteti (SENELEK) va boshqalar**

SENELEK 1972 – yilda ikkita tashkilot – YeESA (SENEL) a’zolari-mamlakatlarining elektrotexnik standartlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi va YeIU mamlakatlarining elektrotexnik standartlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Yevropa qo‘mitasi (SENELQOM) ning bir-biriga qo‘shilishi natijasida tuzildi.

SENELEK a’zolari 17 yevropa davlatlari: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Luksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, GFR, Shvesariya, Shvesiyaning milliy elektrotexnik qo‘mitalaridan iborat. Bu davlatlar (Luksemburgdan boshqalari) bir vaqtida MEK a’zosi hisoblanadi.

SENELEK ning rasmiy tili inglizcha, fransuzcha va nemischa.

SENELEKning asosiy maqsadlari YeIU bilan yaqin hamkorlikda elektrotexnik standartlar to‘plamini yaratish, shuningdek Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi Sekretariatining yordamida bu hudud mamlakatlarida mollar va xizmatlarning yagona bozorini ta’minalashdan iborat. SENELEK a’zo – milliy qo‘mitalarning to‘liq o‘zaro kelishuvi bilan yaratilgan standartlarga bu vazifani ta’minalash uchun muhim vosita sifatida qaraladi. SENELEK ning asosiy faoliyati a’zo-mamlakatlar milliy standartlari o‘rtasidagi va buyumlarning standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirish protseduralari o‘rtasidagi barcha texnik farqlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Bunday faoliyat savdoda texnik to‘siqlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarur. Bu ish mollarning g‘arbiy yevropa darajasida erkin yurishi uchun zarur kafolat deb hisoblanadi.

## **1.5 Standart va standartlashtirish tushunchasi**

O‘z SDT da asosiy atamalar va ta’riflar O‘z DSt 1.10:1998 da qabul qilingan va ISO/MEK 2:1996 qo‘llanmaga mos keladi.

Standart – umumkelishuv (konsensus) asosida ishlab chiqilgan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan va ma’lum sohada maqbul darajada tartibga solishga yunaltirilgan hujjat. Tan olingan idorada barcha uchun va ko‘p marta foydalanishga mo‘ljallangan faoliyatning turli yunalishlariga yoki ularning natijalariga tegishli qoidalar, umumiy prinsiplar yoki tavsiflar o‘rnatalidi.

“Standart” ta’rifidagi barcha ibora va jumlalar “Standartlashtirish” ta’rifidan tanish. Faqat “tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan” va “konsensus” so‘zları tushuntirishni talab etadi.

Tasdiqlash darajalari Standartlashtirish darajalariga qarab aniqlanadi, O‘z SDT ning asosiy nizomlarida o‘rnatilgan “tan olingan idoralar” ma’nosi kelib chiqadi.

Konsensus umumkelishuv ma’nosini anglatadi. Umumkelishuvda manfaatdor tomonlarning ko‘pchiligidagi muhim masalalar bo‘yicha jiddiy e’tirozlar bo‘lmaydi va barcha tomonlarning fikrini hisobga olishga va mos kelmaydigan nuqtai nazarlarni bir-biriga yaqinlashtirishga intiluvchi protsedura natijasida umumiy kelishuvga erishiladi. Konsensus to‘liq yakdillikni bildirishi shart emas, chunki standartlashtirishning murakkab ob’ektlari bo‘yicha to‘liq yakdillikka amalda erishib bo‘lmaydi.

Standartlashtirish – haqiqiy mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan masalalarda barcha tomonidan ko‘p marta foydalanish uchun ma’lum sohada nizomlar o‘rnatish vositasida maqbul darajada tartibga solishga yo‘naltirilgan faoliyat.

Bu ta’rif mazmuni Standartlashtirish mohiyatini yetarlicha aniq va chuqr tushunishga imkon beradi. Standartlashtirish faoliyati oddiy tartibga solish emas, balki ma’lum sohada tartibga tushirishga yunaltirilgan. Tartibga solishning darjasini va me’yori ham aniqlangan - maqbul darajada tartibga solish ko‘zda tutiladi. Tartibga solish qanday yo‘l bilan erishiladi? Nizomlar (qoidalar, me’yorlar, talablar va b.) ni o‘rnatish vositasida erishiladi. Bu nizomlar kimga - barchaga va ko‘p marta foydalanish uchun mo‘ljallangan. Bunda qanday masalalar hal etiladi? Haqiqiy mavjud bo‘lgan masalalar, ya’ni shu kunning ehtiyojlari va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni va doimiy o‘zgarib turuvchi va tobora o‘sib borayotgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda kelajak ehtiyojlari hal etiladi.

Standartlashtirish ob'ekti – standartlashtirilishi lozim bo'lgan ob'ekt. Standartlashtirish ob'ektlariga mahsulotlar, jarayon yoki xizmatlar, shuningdek har qanday materiallar, komponentlar, uskuna-jihozlar, tizimlar, ularning o'zaro mos keluvchanligi, protseduralar, bayonomalar, vazifalar, ularning faoliyat usullari kiradi. Standartlashtirish har qanday ob'ektning ma'lum jihatlari bilan cheklanishi mumkin. Masalan, poyabzalga nisbatan uning o'lchamlari va puxtalik mezonlari alohida standartlashtirilishi mumkin.

Bu bilan bir vaqtda, Standartlashtirish ob'ektlarining ko'p xossalarga ega ekanligini va ob'ektning o'z ichida va undan tashqarida bog'lanishlarning murakkabligi bilan tavsiflanishini nazarda tutish kerak.

### **1.5.1 Standartlashtirish va unda hal qilinadigan masalalar**

O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi (O'z.R.SDT) standartlashtirish tarmoqlararo tizimi (STT) ning tasnifi bo'yicha I klassga kiradi. STT alohida guruhlar (sinflar) ga birlashtirilgan, tarmoqlararo tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar majmuidan iborat. O'z SDT, standartlashtirishning asosiy vazifasidan kelib chiqqan holda, faoliyatning barcha sohalarida tartibga tushirishga qaratilgan iliiy-texnikaviy faoliyat sifatida, standartlashtirish ishlarining o'zini tashkillashtirish va o'tkazish tartibini belgilaydi. Bunda O'z SDT, tizim sifatida, umumiyl holda, "Bir-biri bilai munosabatda va alokada bulgan, ma'lum bir butunlikni, harakatda yagonalikni tashkil etuvchi elementlarning ma'lum tartibi yoki to'plami" tizim ta'rifidan kelib chiqadi. Demak, O'z SDT "ma'lum butunlik, yagonalikdan" iborat bo'lib, faqat "harakatda", ya'ni doimiy va muttasil ravishda mukammallanish, rivojlanish, dolzarblanish sharoitlarida ishlaydi.

O'z.SDT me'yoriy hujjatlarni rejorashtirish, ishlab chiqish, kelishish, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini o'rnatadi; me'yoriy hujjatlarni tekshirish, bekor qilish, qayta ko'rib chiqish, ularga o'zgartarishlar kiritish; mahsulot ishlab chiqarishni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish, tashish, saqlash, xaridga chiqarish, ta'mirlash, ishlatish (ist'emol qilish), qayta foydalanish (utilizatsiya); me'yoriy hujjatlarning ilmiy-texnikaviy darajasini ekspertizadan o'tkazish va baholash ishlarini o'tkazish usullari; xalqaro, davlatlararo, hududiy, xorijiy standartlarni qo'llanish usullari va h.k. tartibini o'rnatadi.

Asos bo‘luvchi standartlar barcha STT dagi, masalan, Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (O‘z. KHYaT), Texnologik hujjatlarning yagona tizimi (O‘z.THYaT), Mahsulot sifati ko‘rsatkichlari tizimi (O‘zMSKT), Sertifikatlashtirish milliy tizimi (O‘z SMT), Texnik-iqtisodiy, ijtimoiy axborotlarni tasniflash-kodlash yagona tizimi (O‘z.TIIA TKYaT), o‘lchashlar birliligini ta’minlash davlat tizimi (O‘z O‘DT), Mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi (O‘z.MYaIChQT), Akkreditlash tizimi (O‘z. AT), Mahsulotni sinash tizimi (O‘z.MST), Sifat tizimi (O‘z.ST) va b. dagi faoliyatlarini tartibga soladi.

Xalqaro standartlardan foydalanish maqsadlarida SDT da Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot (ISO) va Xalqaro elektrotexnik komissiya (MEK) ning atrof muhitni boshqarish tizimida, standartlar kataloglarini taqdim etish tartibida va xalqaro va hududiy standartlarni O‘zbekiston standartlari sifatida qabul qilish tartibida to‘rt xil nomli standartlar qabul qilingan. “Standartlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuniga o‘zgartirishlar kiritish va standartlashtirishni yanada rivojlantirish va mukammallashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining standartlashtirish masalalari bo‘yicha qator qarorlari (12 avgust 1994 y., №410, 5 yanvar 1998 y. №5, 3 oktabr 2002 y. №342, 5 avgust 2004 y. №373) qabul qilinganligi munosabati bilan asos bo‘luvchi me’yoriy hujjatlarga keyingi yillarda 50 ga yaqin o‘zgartirishlar kiritildi.

Uz SDT, har qanday tizim kabi, quyidagi muhim asoslarga tayanadi:

- tashkiliy asoslar;
- huquqiy asoslar;
- tasniflash;
- atamalar va ta’riflar;
- asosiy qoidalar;
- nazariy asoslar.

### **1.5.2 Standartlashtirish faoliyatları**

Standartlashtirish haqiqiy mavjud yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan masalalarni yechishga, sifat esa belgilangan va mo‘ljallangan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Bunda standartlashtirish bo‘yicha faoliyatning eng muhim natijalari mahsulot (jarayonlar, xizmatlar) ning o‘z vazifasiga muvofiqlik darajasini oshirish, ya’ni belgilangan va mo‘ljallangan ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo‘ladi.

“Me’yoriy hujjat” tarkibiga standartlar va texnik shartlar kiradi. Me’yoriy hujjatlar faoliyat turlariga oid tavsiflarni o’rnatadi.

Standartlashtirish ob’ekti bo‘lmish inson faoliyati sohasi juda keng: fan va texnika; ishlab chiqarish-texnikaga mo‘ljallangan mahsulotni va xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarish; tibbiyat, ta’lim, maishiy, sayohat, transport va h.k. sohalardagi xizmatlardan iborat. Barcha xollarda ham xar qanday sohada faoliyat sifatiga talablar me’yoriy xujjatlarda belgilab quyiladi. Bunda nafaqat mavjud, balki mo‘ljallangan vazifalarni hal etish, ya’ni nafaqat belgilangan, balki mo‘ljallangan ehtiyojlarni ham qondirish ko‘zda tutiladi.

Aytilganlardan ma’lum bo‘lishicha, belgilangan va mo‘ljallangan ehtiyojlarning qoniqarli bo‘lishini ta’minlovchi mahsulot (xizmatlar) tavsiflari majmui me’yoriy hujjatlarda belgilanar ekan, me’yoriy hujjatlarning o‘zini ham yuqori ilmiy-texnik darajada bo‘lishini ta’minlash zarur. Bu masala quyidagi yul bilan hal etiladi:

- a) xalqaro, davlatlararo, hududiy standartlarni qo‘llanish;
- b) mamlakatimiz me’yoriy hujjatlarini xalqaro, hududiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish;
- c) me’yoriy hujjatlarda ananaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ilgarilanuvchi, keljakka mo‘ljallangan dastlabki talablarni o‘rnatish, (o‘zuvchi, oldindan standartlashtirish);
- d) mahsulot (xizmatlar) ning texnik saviyasini va sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish maqsadida me’yoriy hujjatlarning ayrim tafsilotlarini o‘xhash mahsulotga xorijiy standartning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash.

“Mahsulot sifatining darjasи” va “mahsulotning texnik saviyasi” tushunchalarini farqlash kerak.

Mahsulot sifatining darjasи - baholanadigan mahsulot sifat ko‘rsatkichlarining qiymatlarini mos ko‘rsatkichlarning asos qiymatlari bilan taqqoslashga asoslangan, mahsulot sifatining nisbiy tafsilotidir,

Mahsulotning texnik saviyasi - baholanadigan mahsulotning texnik takomillashganligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning qiymatlarini mos ko‘rsatkichlarning asos qiymatlari bilan taqqoslashga asoslangan, mahsulot sifatining nisbiy tafsilotidir.

Bir turli mahsulot guruhlari sifat ko‘rsatkichlarining nomenklaturasi iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bo‘yicha 320 dan ortiq sifat ko‘rsatkichlari tizimiga oid xalqaro standartlar - MSKT (to‘rtinchi tarmoqlararo tizim) da

belgilangan. Qurilish materiallariga MSKT ni belgilovchi qator O‘zbekiston davlat standartlari tasdiqlangan.

Umumiy holda me’yoriy hujjatning ilmiy-texnikaviy darajasini nisbiy baholash lozim bo‘lgan sifat ko‘rsatkichlarining tafsilotlariga quyidagilar kiradi:

**1 Vazifa ko‘rsatkichlari** – o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarni aniqlovchi mahsulot xossalari tavsiflaydi va qo‘llanish sohasini belgilaydi.

Vazifa ko‘rsatkichlari uchta kichik guruhga ajraladi:

a) vazifa va texnik samaradorlik ko‘rsatkichlari -

- ish unumi;
- gazlamaning puxtaligi;
- oziq-ovqat mahsulotlari va b. ning kaloriyalikligi.

b) konstruksiya ko‘rsatkichlari:

- gabarit o‘lchamlari(eng katta tashqi o‘lchamlari);
- yig‘ish koeffitsienti (bloklik koeffitsienti);
- o‘zaro alnashinuvchanlik koeffitsienti va b. ;\*

v) tarkib va tuzilma ko‘rsatkichlari:

- po‘latda legirlovchi qo‘shimchalarning foiz miqdori;
- kislotalarda turli aralashmalar konsentratsiyasi;
- gazlamada sintetik tolalar miqdori;
- oziq-ovqat mahsulotlari va b. da foydali moddalar mikdori.

**2 Puxtalik ko‘rsatkichlari**

a) buzilmay ishlashlik – ob‘ektning ma’lum vaqt davomida yoki ma’lum hajmdagi ishni bajarish davrida o‘zining ish imkoniyatini uzluksiz saqlash xususiyatini tavsiflaydi.

Buzilmay ishlashlik ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- buzilmay ishlashlik ehtimoli;
- buzilish jadalligi;
- buzilishgacha bajargan o‘rtacha ish hajmi;
- buzilishgacha bajargan gamma-foiz ish hajmi va b.

b) Ko‘pga chidamlilik (umrboqiylik) – ob‘ektning belgilangan texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash tizimida chekka holatga kelguncha o‘zining ish qobiliyatini saqlash xususiyatini tavsiflaydi.

Ko‘pga chidamlilik ko‘rsatkichlari:

- o‘rtacha ish resursi;

- belgilangan ish resursi;
- gamma-foiz resursi;
- resurs va b.

b) ta'mirga yaroqlilik – ob'ektning buzilishlarni oldini olishga va buzilish sabablarini aniqlashga hamda ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish yo'li bilan buzilish oqibatlarini bartaraf etishga moslanganlik xususiyatlarini tavsiflaydi.

Ta'mirga yaroqlilik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- ish qobiliyatini tiklash ehtimolligi;
- ish qobiliyatini tiklashga sarflanadigan o'rtacha vaqt va b.;

Tiklanuvchanlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- sifat ko'rsatkichining belgilangan qiymatigacha tiklash o'rtacha vakti
- tiklash darajasi (tiklangandan keyin sifat ko'rsatkichi qiymatining ushbu sifat ko'rsatkichining belgilangan yoki boshlang'ich qiymatiga nisbati) va b.

Izoh - Mahsulotlar va materiallar xossalaring saqlash va tashishdan keyin tiklanishga moslanganligi tiklanuvchanlik ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

c) saqlanuvchanlik – ob'ektning tuzuklik va ishga qobiliyatliilik holatini yoki mahsulotning iste'mol kilishga yaroqlilik holatini saqlash davomida va saqlashdan keyin va (yoki) tashishdan keyin saqlash xususiyatini tavsiflaydi.

Saqlanuvchanlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- saqlanuvchanlikning o'rtacha muddati;
- saqlanuvchanlikning gamma-foiz muddati va b.

**3 Boyliklar (resurslar)ni tejash ko'rsatkichlari** – mahsulotning xom- ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiyani va foydalanish (iste'mol qiliш)da mehnat resurslarini talab etishi darajasi bo'yicha uning texnik mukammalligini aks ettiruvchi xossalari tavsiflaydi.

Boylklarni tejash ko'rsatkichlari uchta kichik guruhga ajraladi:

a) xom-ashyo va materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish ko'rsatkichlari, jumladan:

- xom-ashyoning solishtirma sarfi;
- materialarning solishtirma sarfi;
- belgilangan sharoitlarda xom ashyoning nobud bo'lishi;
- belgilangan (reglamentlangan) sharoitlarda materialarning nobud bo'lishi va b.

b) energiya iste'molining tejamlilik ko'rsatkichlari, jumladan:

- yoqilg'ining solishtirma sarfi;
- energiya (energiya tashuvchi) ning solishtirma sarfi;
- foydali ish koeffitsienti va b.

Energiyadan tejamli foydalanish ko'rsatkichlari sifatida, odatda, solishtirma ko'rsatkichlardan, yani sarflanadigan energiya va (yoki) yoqilg'ining ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan foydali ish hajmiga (ish birligiga) nisbatidan foydalniladi.

c) mehnat resurslaridan tejamli foydalanish ko'rsatkichlari:

- mahsulotdan foydalanganda (iste'mol qilinganda) umumiyl mehnat sarfi;
- mahsulotdan foydalanganda (iste'mol qilganda) asosiy ko'rsatkich birligiga solishtirma mehnat sarfi va b.

Xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va mehnat resurslaridan tejamli foydalanishni tavsiflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar sifatida mahsulotni ishlab chiqish, tayyorlash va foydalanish (iste'mol qilish) dagi sarf-xarajatlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin.

**4 Ergonomik ko'rsatkichlar** "inson – buyum" (jumladan, "inson – mashina") tizimini tavsiflaydi va inson hayotida sodir bo'ladigan gigienik, antropometrik, fiziologik va psixologik xususiyatlar majmuini hisobga oladi

Ergonomik ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- shovqin darajasi;
- yorug'lik darajasi;
- xarorat darajasi;
- mahsulot konstruksiyasining insonning tezlik imkoniyatlariga muvofiqligi;
- mahsulot konstruksiyasining insonning kuch imkoniyatlariga muvofiqligi va b.

**5 Estetik ko'rsatkichlar** axborotning ma'nолиги, shaklning maqbulligi, tuzilish (kompozitsiya) ning butligi va mukammal tayyorlanganligi bilan tavsiflanadi va quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

- asl nus'haligi;
- uslubiy muvofiqligi;
- modaga muvofiqligi;
- vazifasi-konstruksiyasi jihatdan moslanganligi;
- hajmiy-fazoviy tuzilmaning tartibliligi;

- kolorit;
- sirtning puxta qoplanganligi va bezatilganligi;
- firma belgilari, ko'rsatkichlari, o'ramlari va b.ning aniq va puxta bajarilganligi va b.

**6 Texnologik** – mahsulot tarkibi va tuzilmasini yoki konstruksiyasining ishlab chiqarishda, foydalanishda va sifat ko'rsatkichlarini, ishlab chiqarish va ishlarni bajarish sharoitlarini tiklashda xarajatlarning eng kam bo'lishini ta'minlay oladigan xossalari tavsiflaydi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

- mahsulotni tayyorlashdagi solishtirma mehnat sarfi;
- materialning solishtirma sarfi;
- energiyaning solishtirma sarfi;
- ushbu turdagи texnik xizmat ko'rsatish (ta'mir) ning bir martalik o'rtacha mehnat sarfi.

**7 Tashishga moslanganligi** – mahsulotning ochiq joyda ko'chishga (tashishga), ya'ni mahsulotdan foydalanish (iste'mol qilish) bilan bog'liq, bo'limgan harakatlarga moslanganligini tavsiflaydi.

Tashishga moslanganlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- mahsulotni tashishga tayyorlash o'rtacha vaqt;
- mahsulotni tashishga tayyorlaqda o'rtacha mehnat sarfi;
- mahsulotni ma'lum turdagи tashish vositasiga ortishda o'rtacha vaqt sarfi;
- mahsulotni ma'lum turdagи tashish vositasidan tushirishda o'rtacha vaqt sarfi;
- tashish vositasining sig'imidan foydalanish koeffitsienti.

**8 Standartlashtirish va birxillashtirish ko'rsatkichlari** maxsulotning standart, birxillashtirilgan va original tarkibiy qismlar bilan boyitilganligini, shuningdek boshqa buyumlar bilan birxillashtirilish darajasini ifodalaydi.

Standartlashtirish va birxillashtirish ko'rsatkichlariga:

- qo'llanuvchanlik;
- takrorlanuvchanlik;
- birxillashtirilish koeffitsientlari va b. kiradi.

**9 Patent-huquqiy ko'rsatkichlar** mahsulotda foydalanilgan texnik yechimlarning yangilanganlik darajasini, ularning patent bilan himoyalanganligini, shuningdek mamlakat ichida va xorijda xaridga to'siqsiz qo'yish imkonini tavsiflaydi.

Patent-huquqiy ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- patent bilan himoyalanganlik ko‘rsatkichi;
- patent tozaligi ko‘rsatkichi va b.

**10 Ekologik ko‘rsatkichlar** mahsulotdan foydalanganda yoki iste’mol qilganda sodir bo‘ladigan atrof muhitga zararli ta’sir darajasini tavsiflaydi. Bu ko‘rsatkichlarni tanlash va aniqlashda atrof muhitni muhofazalash talablari hisobga olinadi.

Ekologik ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- atrof muhitga chiqarib yuboriladigan zararli aralashmalarning ruhsat etilgan miqdori;
- mahsulotni saqlash, tashish, ishlatish yoki iste’mol qilishda atrof muhitga zararli zarrachalar, gazlar, nurlanishlarni chiqarib yuborishi ehtimolligi va b.

**11 Xavfsizlik ko‘rsatkichlari** mahsulotning ishlatishda (iste’mol qilishda) inson hayotiga, sog‘ligiga va mulkiga, atrof muhitga xavfsizligi xossalariini va xususiyatlarini tavsiflaydi.

Xavfsizlik ko‘rsatkichlari O‘z.RH 51-010:1998 ga asosan mahsulot turlari bo‘yicha shakllantiriladi, masalan, elekrotexnik jixozlar va buyumlarning xavfsizlik ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- elektr tokidan shikastlanishdan saqlanish klassi;
- boshqarish, xizmat ko‘rsatish, ekspluatatsiya qilishda mehnatning xavfsizligi;
- izolyatsiyani doimiy tekshiruvchi qurilmaning mavjudligi;
- shovqin darjasи;
- azot oksidlari, karbon (uglerod) va b. ni atrof muhitga chiqarib yuboriladigan solishtirma miqdori.

Sut va sut mahsulotlari uchun:

- kislotalilik;
- mikrobiologik ko‘rsatkichlar;
- pestitsidlar, og‘ir metallar, aflatoksinlar va b. ning qoldiq mikdori.

Demak, MSKT standartlarida ko‘rsatilgan mahsulot tavsiflari majmui va O‘zbekiston me’yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan rioya qilish majburiy bo‘lgan talablar majmui mahsulot sifatini tashkil etadi va standartlashtirish bilan ta’minlanadi.

## **1.6 Xalqaro standartlar to‘g‘risida umumiylumot**

Hozirgi paytda metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, bo‘yicha qonun-qoidalar va me’yorlarni yaratish bilan shug‘ullanadigan ko‘pgina xalqaro standartlashtirish tashkilotlari mavjuddir. Shular jumlasiga ular ichida eng ko‘p aniq bo‘lgan va tan olingan tashkilotlarga standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot (ISO), Xalqaro elektrotexnik komissiyasi (MEK), qonunlashtiriluvchi metrologiya bo‘yicha Xalqaro tashkilot (MOZM) va Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEK) kiradi.

Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot 1946 yil 14 oktabrda Yevropa iqtisodiy komissiyasining tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, bu konferensiyada 25 ta davlat ishtirok etdi. Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning ustaviga bog‘liq holda, standartlashtirishni tashkil etishning maqsadi, jahon masshtabida xalqaro almashtirish va o‘zaro yordam, shu bilan birgalikda ilmiy, texnik va iqtisodiy faoliyatda hamkorlik qilishni kengaytirish va osonlashtirish maqsadida standartlashtirishni rivojlantirishdir.

Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning asosiy faolligi xalqaro standartlarni yaratish va ularni ko‘paytirish, hamda keng ko‘lamda targ‘ib etishdir. Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning hujjatlari uch xil ingliz, fransuz va rus tillarida chop etiladi. Xalqaro standartlashtirishning loyihalarini yaratishda ishchi idoralar, ya’ni texnik qo‘mitalar tomonidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning ustaviga binoan Bosh Assambleya, Sovet va uning qo‘mitalari, prezident va vitse-prezident, bosh kotib, markaziy kotibiyyat, texnik bo‘limlar va texnik qo‘mitalar tuziladi.

Bosh Assambleya – standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning qonunlashtirilgan idorasi hisoblanib, o‘z atrofida qo‘mita-a’zolari tomonidan belgilangan va tasdiqlangan delegatlardan tashkil topgan. Qoidaga asosan, ular uch yilda bir marotaba chaqiriladi. Bosh Assambleyaning sessiyasida standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning ish faoliyati, ish yakuni muhokama qilinadi va keyingi ish faoliyati belgilanadi.

Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning mavqeい yildan yilga ortib bormoqda, standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot xalqaro standartlari ko‘rsatkichlarni birxillashtirishga ega bo‘lib, jahon fani va amaliyotining zamonaviy yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Buning hisobiga standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning mahsulotga bo‘lgan standartlari jahon bozorlarida yuqori talab darajasiga erishilmoqda.

Shu sababli, ko‘pgina xalqaro standartlarni yaratishda boshqa faoliyatdagi metroologlar va mutaxassislarining ishtirokini talab etadi, hamda standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot qonunlashtirilgan metrologiya bo‘yicha Xalqaro tashkilot, Xalqaro elektrotexnik komissiya va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan Xalqaro tashkilotning texnik qo‘mitalari barcha ilmiy-texnik, iqtisodiy va sotsial faoliyatda Xalqaro standartlarning loyihalarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Eng ko‘p e’tibor kimyo, neft-kimyo, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatiga katta e’tibor beradi. ISO 9000, ISO 9001 va ISO 9004 standartlar raqamida O‘zbekiston Davlat standartlari sifatida qabul qilingan. 11000 dan ortiq standartlar O‘zstandart Agentligining so‘rov-yo‘riqnomasi jamg‘armasida o‘z o‘rnini egallab kelmoqda.

Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot a’zolari standartlashtirish bo‘yicha Milliy tashkilotlar deyiladi. A’zolari bo‘lib, har bir mamlakatdan bir kishi ishtirok etadi. Bosh Assambleyaning yig‘ilishida standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot a’zoligiga har bir tashkilotdan uchtagacha delegat ishtirok etadi. Bunga bog‘liqsiz ravishda har bir qo‘mita standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilot a’zoligiga bir kishi ovoz bilan saylanadi.

1970 yil 14 oktabrdan boshlab, Xalqaro standartlashtirish kuni deb e’lon qilindi. 1972 yilgacha Xalqaro standartlar «standartlash bo‘yicha Xalqaro tashkilot tavsiyasi» degan nom bilan yuritilgan. Standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotning tavsiyasiga binoan 1970 yil Anqara shahrida VIII Bosh Assambleyaning standartlashtirish bo‘yicha Xalqaro tashkilotida «Xalqaro standartlar» deb qabul qilindi va 1972 yildan boshlab kuchga kirdi.

Xalqaro standartlar xalqaro savdodagi barcha texnik to‘siqlardan chetlashtirishda samarali vosita bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, bu tashkilot ilmiy-texnik miqyosini va mahsulot sifatini aniqlaydi.

## **II - MODUL. STANDARTLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI MAQSAD VA VAZIFALARI, TAMOYILLARI**

### **2.1 O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishning huquqiy asoslari**

“O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida” (mart 1992 y.) Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilangan standartlashtirishning tashkiliy asoslari “Standartlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan qonunlashtirilgan. Qonun 28 dekabr

1993 y. da qabul qilingan, 28 fevral 1994 y. umumiy axborot vositalarida chop etilgan va shu kundan boshlab kuchga kirgan.

Qonunda standartlashtirishning asosiy maqsadlari belgilangan:

- iste'molchilar va davlatning mahsulot (xizmatlar) ning aholi hayoti, sog'ligi va mulki, atrof muhit uchun xavfsizligi masalalari bo'yicha manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotning o'zaro almashinuvchanligi va mos keluvchanligini ta'minlash;
- mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- barcha turdag'i boyliklarning tejalishiga ko'maklashish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;
- tabiiy va texnogen halokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishi ehtimolini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash;
- o'lchashlarning birliliginini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida" qonunida belgilanganki, respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini belgilovchi O'z SDT faoliyat ko'rsatadi. Bu qoidalarning o'zi O'zdavstandart tomonidan o'rnatiladi. Davlatarxitekturaqurilish (qurilish, qurilish industriyasi, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalash sohasida), Davlattabiatqo'mitasi (tabiiy boyliklardan foydalanish va atrof muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan saqlash sohasida, Sog'liqni saqlash vazirligi (tibbiyotga mo'ljallangan mahsulotlar, tibbiyot texnikasi buyumlari, dori:-darmonlar sohasida, shuningdek respublikada chiqariladigan va import bo'yicha keltiriladigai mahsulotda inson uchun xavfli aralashmalar borligini aniqlash masalalari bo'yicha) o'zining vakolat doirasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, muvofiqlashtnrish va ta'minlash ishlarini olib boradi. Respublikada ko'llaniladigan me'yoriy hujjatlar ro'yxati keltirilgan:

- xalqaro (davlatlararo, hududiy) standartlar;
- O'zbekiston davlat standartlari;
- tarmoqlar standartlari;
- texnik shartlar;
- ma'muriy-hududiy standartlar;
- korxonalarining standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Standartlashtirish bo‘yicha me’yoriy hujkatlarga shuningdek, standartlashtirish bo‘yicha qoidalar, me’yorlar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlar tasniflagichlari (klassifikatorlari) ham kiradi.

Xalqaro (davlatlararo, hududiy), xorijiy me’yoriy hujjatlar O‘zdavstandart tomonidan belgilangan tartibda qo‘llaniladi. Yagona va uzlucksiz ta’lim davlat tizimida ta’lim davlat standartlari ishlab chiqiladi, respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlashtirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar mamlakatimiz va xorijiy fan va texnikasining zamонавија yutuqlariga asoslanishi va xalqaro savdo uchun ortiqcha то‘сиqlar paydo qilmasligi lozim. Raqobatbardoshlikni ta’minalash uchun o‘zuvchi (oldindan tuzilgan) standartlar yaratilishi mumkin.

Mahsulotni me’yoriy xujjatlarsiz ishlab chiqarish va xaridga qo‘yish man etiladi.

Mahsulotning aholi hayoti, sog‘ligi, mulkiga xavfsizligini ta’minalaydigan me’yoriy hujjatlarning talablari, mahsulotning mos keluvchanligi va o‘zaro almashinuvchanligini, bularni tekshirish usullarining bir xillagini va bir xil tamg‘alanishini ta’minalash uchun rioya qilinishi shart.

Standartlar va o‘lchashlar birlilagini ta’minalash ustidan davlat nazorati idoralari, ob’ektlari va sub’ektlari, davlat nazoratini bajaruvchi davlat inspektorlarining huquqlari va mas’ulligi, shuningdek davlat nazorati sub’ektlarining va bularga rahbar shaxslarning standartlashtirish to‘g‘risida qonunlarni buzganligi uchun, shuningdek standartlardagi majburiy talablarni buzganligi uchun javobgarliklari belgilangan.

Davlat nazorati idoralariga quyidagi huquqlar berilgan:

- aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatma berish;
- jarima solish;
- tadbirkor sub’ektlarning lavozimli shaxslarini ma’muriy javobgarlikka tortish;
- tekshirilgan mahsulotni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki xaridga qo‘yish (yetkazib berish, sotish)ni, foydalanish (ekspluatatsiya qilish) ni to‘xtatish;
- standartlarning majburiy talablariga mos kelmaydigan va davlat ruyxatidan o‘tmagan import mahsulotning xaridga qo‘yilishini taqiqlash;
- mahsulotni ishlab chiqarish yoki xaridga qo‘yishni (yetkazib berish, sotishni) taqiqlash to‘g‘risidagi davlat inspektorining ko‘rsatmasini buzganligi uchun jarima yozish.

Jarima sud tononidan belgilanadi, agar tadbirkor sub'ekt qoidani buzganlikdagi aybini o‘z bo‘yniga olsa va jarimani o‘z ixtiyori bilan to‘lashga rozi bo‘lsa, bu to‘g‘rida qaror davnazorat idoralari tomonidan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 noyabr 2006 y. № 235 qarori bilan Davlat nazorati to‘g‘risidagi Nizomga jarimaga tortish qismida o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilgan (Nizom 12 avgust 1994 y. № 410 hukumat qarori bilan tasdiqlangan).

a) 4 modda beshinchchi abzas quyidagicha tahrirda bayon etiladi:

“xo‘jalik faoliyatini yurituvchi sub’ektlarga nisbatan standartlarning majburiy talablarini buzganligi uchun, lavozimli shaxslarga ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin yil davomida takror buzilishga yul qo‘yganligi uchun xaridga chiqarilgan mahsulot narxining 50 foizi miqdorida jarimalarni qo‘llash tug‘risida qaror qabul qilish”;

b) quyidagi mazmunda 9 modda qo‘srimcha kiritilsin:

“9. Xo‘jalik faoliyati sub’ektining oxirgi hisobot sanasida joriy aktivlarining summasidan 20 foizdan ortiq jarimalarni undirish qaror qabul qilingan kundan boshlab 6 oyga har oyda to‘lash sharti bilan cho‘zilishi mumkin”

Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ishlar ro‘yxati belgilangan:

- xalqaro, davlatlararo, hududiy me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish yoki qatnashish;
- standartlashtirishning muayyan ob’ektlari bo‘yicha qonun hujjatlarining loyihibarini ishlab chiqish;
- asos bo‘luvchi tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va uning ishlashini ta’minlash;
- texnik-iqtisodiy axborot tasniflagichlarini ishlab chiqish, bular to‘g‘risida rasmiy axborot tayyorlash va chop etish, shuningdek barcha foydalanuvchilarga tarqatish:
- umumdavlat ahamiyatidagi ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish
- standartlarning majburiy talablariga rioya qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- me’yoriy hujjatlar davlat jamg‘armasini shakllantirish va olib borish. Standartlarni, mahsulot va xizmatlar katalogini belgilangan tartibda xaridga qo‘yishdan olingan mablag‘lar, shuningdek standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarni buzganligi uchun jarimaga tortishdan olingan mablag‘larning bir qismi ham moliyalash manbalari bo‘lishi mumkin.

Davlat budjeti mablag‘laridan moliyalashtiriladigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini me’yoriy ta’minalash bo‘limlari nazarda tutilishi lozim.

Muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alangan mahsulot chiqaruvchi korxonalarini, shuningdek ananaviy texnologiya immoniyatlaridan o‘zuvchi, istiqbolga mo‘ljallangan talablar standarti bo‘yicha mahsulot ishlab chiqargani uchun iqtisodiy yordam va rag‘batlantirish davlat kafolati Qonunda ko‘zda tutilgan.

### **2.1.1 Standartlashtirishning asosiy tushuncha, maqsad va vazifalari**

Faraz qilaylik, endi dam olay deb, dam olish xonasiga kirib, chiroqni yoqqan edik, lip etib yondi-yu, o‘chdi. Nima qilamiz? Darhol boshqa lampochkani olib, almashtiramiz. Xo‘s, buning nimasi g‘ayri tabiiy? Siz bunda kuygan lampochkani o‘rniga boshqasi aynan, ham kuchlanish bo‘yicha, ham qo‘vvati bo‘yicha, ham o‘lchamlari bo‘yicha to‘g‘ri kelishini ostida qanchalar inson mehnati yotganligini hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Odatda biz standart bo‘yicha degan iborani ko‘p ishlatamiz.

Xo‘s, standart nima? Standart - bu ko‘pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma’lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo‘naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo‘lgan umumiyligini va takror qo‘llaniladigan qoidalar, umumiyligini qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatdir.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan va jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Standartlar darajasiga qarab, halqaro, mintaqaviy davlatlararo, milliy va korxona miqyosida faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qo‘yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va o‘zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste’molchi oralaridagi munosabatlarni yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o‘z vaqtida yuqori sifatli loyiha-konstrukturlik hujjatlar berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat ko‘rsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak bo‘lsa mahsulotning ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomalada bo‘lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirish (upakovka)da yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga va joylashtirishga, saqlashga, omborlarda mahsulot sifatini buzilmay saqlashga, transportda olib yurishda, buyumni tarqatish, sotish tashkilotlariga talablar belgilaydi.

Standartlashtirish tub mohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarador formalari haqidagi fandir.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo‘nalishlarni bir-biriga bog‘lovchi vosita hamdir.

Ko‘pgina texnika jihatidan ilg‘or mamlakatlarda standartlashtirish masalalariga o‘suvchi qiziqish qayd qilinmoqda, uning asosi bo‘lgan standartlashtirishning nazariyasiga ham katta e’tibor berilmoqda.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarishda eng ratsional joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat harajatlarini va moddiy resurslarni ta’sirchan vositalaridan biri sifatida ko‘rilmoxda.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik dastur va loyihalarni amalga oshirish standartlashtirishning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirilishi «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonunda aniqlashtirilgan: «To‘liq yoki qisman respublika budjet mablag‘larini moliyalashtiruvchi davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulotning sifatini me’yoriy taminlanishi bo‘yicha bo‘limlar ko‘zda tutilishi shart».

Tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar vujudga kelishini hisobga olgan holda, iqtisodiyot ob’ektlarining xavfsizligini ta’minalash.


O‘zRH 78-001 rahbariy hujjat bilan me’yoriy hujjatlarda yong‘in xavfsizligi talablari to‘liq ko‘rsatilishini tekshirish metodikasi ustidan nazorat qilish tartibi tasdiqlangan.

Standart bu ko‘pchilik manfaatdor tomonlar konsensusi (kelishuvi) asosida ishlab chiqilgan, ma’lum sohalarda optimal tartiblashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning har xil turiga yoki natijalariga tegishli bo‘lgan umumiyligi va takror qo‘llaniladigan qonun-qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatdir.

Standartlashtirish bu barcha manfaatdor tomonlar ishtirotida umumfoydali, jumladan, iqtisodiyotga erishishda takrorlanadigan vazifa (jarayon)larning umum maqbul yechimini topish uchun foydalanish sharti, texnik xavfsizlik va ekologiya

talablariga rioya qilingan holda, ma'lum bir sohada, faoliyatni optimal darajada tartiblashtirish maqsadida qoidalar o'rnatish va qo'llashdir.

"Standartlashtirish ob'ekti" tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun "mahsulot, jarayon, xizmat" iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har qanday materialga, tarkibiy qismlarga, asbob-uskunalarga, tizimlarga, ularni mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga teng darajada daxldor deb tushunmoq lozim (2.1.1.1-rasm).



### 2.1.1.1-расм. Стандарташтириш объектларини синфланиши

Standartlashtirish har qanday ob'ektning muayyan jihatlari (xususiyatlari) bilan cheklanishi mumkin. Masalan, oyoq kiyimga nisbatan yondashiladigan bo'lsa, uning katta-kichikligi va pishiqligini alohida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish ob'ekti sifatida xizmat – xalqqa xizmat qilishni (xizmat shartlarini qo'shib) va korxona hamda tashkilotlar uchun ishlab chiqarish xizmatini o'z ichiga oladi. Standartlashtirishning boshqa ob'ektlari faoliyatining biriktirilgan sohalarida O'zbekiston Respublikasi Tabiat muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Demak, standartlashtirish ob'ekti – standartlashtiriladigan yoki unga yo'naltirilgan mahsulot, ishlar (jarayonlar) va xizmatlardir.


Standartlashtirish jihat – tanlangan standartlashtirish ob'ektini standartlashtirish yo'nalishi bo'lib, unga ko'rsatilgan talablar turini aniqlaydi.

O'z-o'zidan standartlashtishrish jihat muayyan bir guruhdagi mahsulot yoki xizmatlar bo'lib, unda: atama va ta'riflar, sinflanishi, asosiy parametriga talablar, saqlash, tashish va vosita hamda usullariga talablar, nazorat usullari va vositalari, metodlariga talablar va boshqalar hisoblanadi.

Standartlashtirish sohasi o'zaroaloqador standartlashtirish ob'ektlari majmuasi deb ataladi. Standartlashtishrish sohasi bo'lib, kimyo sanoati, mashinasozlik, transport, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, ekologiya va boshqalar hisoblanadi. Masalan, kimyo sanoati standartlashtirish sohasi bo'lsa, kimyo sanoatining standartlashtirish ob'ektlari bo'lib texnologik jarayonlar, mahsulotlar, qurilmalarning xavfsizligi va ekologikligi va boshqalar hisoblanadi.

Standartlashtirish turli darajalarda amalga oshiriladi. Standartlashtirish darjasи dunyoning siyosiy, geografik, iqtisodiy hududi qabul qilingan standart ishtirokchilarining aloqadorligi bilan farqlanadi. Jami bo'lib to'rtta asosiy darajaga: halqaro, hududiy, milliy va korxona (tashkilot) darajasiga bo'ladi.

Standartlashtirish ob'ekti, jihat va darjasи standartlashtirish sferasini tashkil etadi. Uni uch o'lchamli to'g'ri burchakli kordinata tizimlarida grafik shaklda tasvirlash mumkin (2.1.1.2-rasm).



### 2.1.1.2-rasm. Standartlashtirish sohalari

Odatda xalqaro, mintaqaviy, milliy standartlashtirish idoralari mavjud.

Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtiroy etish mumkin.

Mintaqaviy standartlashtirish deganda dunyo miqyosida birgina jug‘rofiy yoki iqtisodiy mintaqasiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtiroy etishlari mumkin bo‘lgan standartlashtirish tushuniladi.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat doirasida o‘tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiyl qonun-qoidalar yoki tavsiflarni o‘zida qamrab olgan me’yoriy hujjat hisoblanadi.

Me’yoriy hujjat – atamasi standartlar, texnikaviy shartlar, shuningdek umumiyl ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Standartlashtirish maqsadlari ko‘p qirrali bo‘lib, ular asosan quyidagilardan iborat: bixillashtirish (har xillikni boshqarish), qo‘llanishlilik, moslashuvchanlik, o‘zaroalmashuvchanlik, sog‘liqni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, tashqi muhitni asrash, mahsulotni himoyalash, o‘zaro tushunishlikka erishish, savdodagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar. Bir maqsadning amalga oshishida bir vaqtda boshqa maqsadlarning ham amalga oshishi mumkin.

Standartlashtirishning ahamiyati va mohiyati. Ixtiyoriy ixtisoslikdagi mutaxassis ish faoliyati jarayonida ko‘plab takrorlanuvchi masalalarni hal etishga ya’ni namunaviy hujjatlarni tuzish, namunaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, takrorlanuvchi o‘lchashlarni bajarish, turli qurilmalar, texnikaviy tizimlar yoki odamlar jamoalarini boshqarish bo‘yicha bir xil amallardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu masalalarni hal etishning turli xil variantlari mavjud. Standartlashtirish masalarni optimal hal etish, yanada to‘g‘riroq va iqtisodiy variantlarini aniqlashga yo‘naltiriligan.

Standartlashtirish – bu aniqlangan sohada tartiblashtirish darajasini optimalligiga erishishga yo‘naltirilgan, fan, texnika va iqtisodiyot sohalarida takrorlanuvchi masalalarni hal etilishini topishga xulosalovchi faoliyatdir.


Standartlashtirish ob’ekti ta’rifidan kelib chiqib, mahsulot (xom-ashyo, materiallar, detallar, buyumlar, qurilmalar), jarayonlar (turli xil operatsiyalarni bajarish usullari), atamalar, belgilashlar, xizmatlar va ishlar tandartlashtirishning ob’ekti bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun standartlashtirish mohiyatini quyidagi shaklda bayon etish mumkin:

Standartlashtirish ob’ektini tanlash ya’ni aniqlangan soha faoliyatini tahlil qilish va ko‘p marotaba takrorlanuvchi ob’ektlarni aniqlashni qamrab oladi.

Boshqa ob’ektlar (alomatlar, xossalari) mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlarni aniqlash jarayonida standartlashtirish ob’ektini modellashtirish.

Optimal modelni standartlashtirish, ya’ni me’yoriy hujjatni ishlab chiqish. Aynan me’yoriy hujjat bevosita standartlashtirish natijasi bo‘lib hisoblanadi. Me’yoriy hujjat bir vaqtning o‘zida standartlashtirish vositasi ham bo‘li hisoblanadi. Uni umumiyligi va ko‘p marotaba qo‘llash mavjud va kelgusidagi masalalarni hal etishda kutilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa samarani berishi mumkin.

Masalan, elektrik va elektron qurilmalarning sxemalarini tuzishda yanada yaqqol va qulay belgilashni qo‘llash uchun namunaviy elementlari belgilanishi keltirilib, ularni shartli belgilash variantlari ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlarda majburiy ravishda keltirilgan va tasdiqlangan (21.1.3-rasm).



**2.1.1.3-rasm. Rezistorni shartli belgilash evolyusiyasi**

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning (keyingi o‘rinlarida mahsulotlar deb yuritiladi) aholining hayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste’molchilarining va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotlarning o‘zaro bir-birining o‘rnini bosishini va bir-biriga monandligini ta’minlash;
- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, aholi va xalq xo‘jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulotlarning sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish;
- resurslarning barcha turlarini tejashga, ishlab chiqarishning texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ko‘maklashish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;
- tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishi, havf-xatarni hisobga olgan holda xalq xo‘jaligi ob’ektlarining xavfsizligini ta’minlash;
- iste’molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to‘g‘risidagi to‘liq va ishonarli axborot bilan ta’minlash;
- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta’minlash;
- o‘lchashlarning yagonaligini ta’minlash;
- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma’lum qilgan mahsulot sifati to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarini tasdiqlash.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- iste’molchi va davlatning manfaati yo‘lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo‘yish;
- Davlat, Respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me’yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo’llash, shuningdek hujjatlardan nazorat qilish;
- standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talablari bilan uyg‘unlashuvini ta’minlash;
- bir-biriga mosliligining barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, informatsion, dasturli va boshqalar) turlarini, shuningdek mahsulotning o‘zaro almashinuvchanligini ta’minlash;

- parametrik va turlar o‘lchovi qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo‘llash asosida birxillashtirish;
- mahsulot, uning tarkibiy qismlari, buyumlari, hom-ashyo va materiallar ko‘rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog‘lanishi;
- material va energiya sig‘imini kamaytirish, kam chiqindi chiqaruvchi texnologiyalarni qo‘llash;
- mahsulotning ergonomik xossalariiga talablarning belgilanishi;
- metrologik me’yor, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;
- standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng avj oldirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;
- xorijiy mamlakatlarning talablari O‘zbekiston Respublikasining xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondirgan hollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini hamda mamlakat standartlari va texnikaviy shartlari tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash tajribasini kengaytirish;
- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;
- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarni tashkil qilish;
- texnik-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va joriy qilish;
- sinovlarni me’yoriy-texnika jihatidan ta’minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baholash va nazorat qilish;

### **2.1.2 Standartlashtirishning asosiy tamoyillari**

Standartlashtirishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiritiladi:

- me’yoriy hujjatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy zarurati va maqbulligini inobatga olgan holda ularni ishlab chiqish maqsadga muofiqligi;
- ob’ektlarga quyiladigan talablarni kelishib olish va me’yoriy hujjatlarni amalga joriy etish muddatlarini muvofiqlashtirish yo‘li bilan metrologik ta’minlashni qo‘sib hisoblab o‘zarobog‘langan ob’ektlarni standartlashtirishning kompleksligi;
- me’yoriy hujjatlarni fan va texnikani hozirgi zamon yutuqlariga, ilg‘or tajribaga, qonun hujjatlariga muofiqligini ta’minlash;

- standartlashtirishning hamma bosqichlarida me'yoriy hujjatlarni o'zaro bog'liqlagini va kelishilganligi, boshqarishning barcha pog'onalarida ularni o'xshash ob'ektlari uchun qaytadan ishlab chiqilmasligi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar, standartlashtirish bo'yicha dasturlar va ish rejalarini to'g'risidagi axborotlarni oshkorraliligi;
- ko'pchilik dahldor tomonlarning kelishuviga erishish asosida me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;
- me'yoriy hujjatlarning sertifikatlashtirish maqsadlari uchun yaroqliligi;
- standartlashtirish sohasida zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalarni qo'llash va hakozo.

Standartlashtirishning umumiy tamoyillari deb quyidagilarni ham keltirish mumkin:

- 1) Tomonlar qiziqishini balanslashtirish. Standartlashtirish barcha qiziquvchi tomonlar ya'ni mahsulotni iste'molga tayyorlovchilar, ishlab chiquvchilarning o'zaro intilishiga va fikrlariga, har bir tomon uchun mahsulotni ko'p qirrali boshqarish bo'yicha uning sifati, iqtisodiy ko'rsatkichi, qo'llanuvchanligi, o'rin bosishi va o'zaroalmashinuvchanligi, uning atrof-muhit, jamiyat hayoti va sog'lig' uchun xavfsizligi va boshqa masalalar bilan o'zaro kelishilgan va asoslangan bo'lishi lozim.
- 2) Tizimli tamoyil. Tizim deganda yuqori samaradorlilik va kam xarajatlilik bilan qo'yilgan maqsadni bajarishga olib boriladigan ishlar va o'zarobog'liq elementlar majmui tushuniladi. Tizim elementlari aloqalari miqdori aniqlanilgan yoki tasodifiy bo'lishi mumkin. Tizimga kiradigan turli darajada elementlarining o'zarobog'liqligi va ularning majmui ierarxik bog'liqlikda tuzulmani hosil qiladi.

Standart talablarini optimallashtirish odatda standartlashtiri ob'ektlarini parametrik optimallashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

- 3) Ishlarni istiqbolligi kelajakda optimal bo'ladigan hamda standartlashtirish ob'ektlariga o'rnatiladigan talablar va me'yorlarning yetarli darajada oshirishga bog'liqligi bo'yicha chiqarilayotgan mahsulotni oldindan standartlashtirish tushuniladi. Ilmiy-texnik bashoratlash oldindan standartlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Standartlar buyumlarni asosiy texnik ko'rsatkich darajalari va sifati chegeralari hamda ayni paytda yetarli tavsiflari ko'rib chiqilishi lozim.

- 4) Standartlashtirishning o'zgaruvchanligi. Sandartlarni davriy ravishda ularga o'zgarish kiritilishi, bekor qilinishi yoki ularni ko'rib chiqilishini hamda tekshirishni ta'minlaydi.

Amaldagi standartlar muddati bo‘yicha uning amal qilishi muvofiqligiga tekshiriladi. Tekshirish paytida ularning ilmiy-texnik darajasi va eskirgan ko‘rsatkichlarni, me’yorlar, tavsiflar, talablar, atamalar, tushunchalar va belgilashlar asoslangan holda zarar bo‘lsa yangilashlar ishlab chiqiladi.

5) Standartlashtirishda optimallashtirish (maqbullashtirish). Standartlashtirish ob’ektining foydasiz ko‘rsatkichlari aniqlansa hamda uslubiy va me’oriy-texnik hujjatlarida banday natijalar aks etishi bilan takomillashtirish va ularni unifikatsiyalash hamda optimallashtirish usullari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirish bo‘yicha ishlarda, texnologik jarayonlarni optimallashtirish hamda sifatni oshirishni ta’minalash uchun takomillashgan optimallashtirish usullari keng va samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

6) Mahsulot (xizmat)larni o‘zaroalmashinuvchanligi, bir-biriga mosligi va xavfsizligini ta’minalash usuli standartlarni ishlab chiqishda muhimlili. Bu ko‘rsatkich umum davlat ahamiyatiga molik bo‘lib, buning uchun ularni standartlashtirish, mahsulot, xizmat va jarayonlarni sertifikatlashtirish va ularni bajaralishini tekshirish amalga oshirish hisoblanadi.

Standartlarda majburiy talablar va usullar ularni xolisona tekshirish va ko‘rsatilgan talablarga javob berishi «majburiy standartlar» aniq qilib belgilangan matn bo‘yicha keltiriladi.

7) Uyg‘unlashganlik tamoyili. Uyg‘unlashgan (o‘zaroaloqador) standartlarni ishlab chiqilishi qaraladi. Bitta ob’ektga bizning davlat standartlashtirish tashkiloti qabul qilgan hamda xaqaro (hududiy) tashkilotlar ishlab chiqqan o‘zaroaloqador aynan o‘xhash standartlardan foydalanishda hujjatlarning bir xillagini ta’milanishi tushuniladi.

8) Standartni aniq rasmiylashtirilishi. Standartlarda me’yor va talablarning ikki xil mazmunga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

9) Standartlashtirishning samaradorligi ijtimoiy va iqtisodiy samara bo‘lib hisob olinadi. Iqtisodiy samara standartlarda texnikaviy va informatsion malumotlarni bir-biriga to‘g‘ri kelishini, materiallar sarfini kamaytirishni, chidamlilagini oshirishni va resurslarni tejashni ta’minalaydi. Ijtimoiy samara standartlarda insonlar hayoti va sog‘lig‘i hamda atrof-muhit xavfsizligini ta’minalishlarini yaratadi.

## **2.2 Standartlashtirish bo‘yicha davlat boshqaruvi, standartlashtirish organlari va xizmatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish tizimi – O’z DSt tashkil etish va uning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi qarorlaridan belgilab berilgan:

- 1992 yil 2 martda “O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil qilish” № 93-sonli qarori;
- 1994 yil 12 avgusda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ba’zi qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida” № 410-sonli qarori;
- 1998 yil 5 yanvarda “Uzluksiz ta’lim uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va kiritish to‘g‘risida” № 5-sonil qarori;
- 2002 yil 3 oktabrda “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” № 342-sonli qarori;
- 2004 yil 5 martda “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O‘zbekiston agentligining tuzilmasini rivojlantirish va faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” № 373-sonli qarorlari.

Respublikamizda standartlashtirish jarayoni 3 bosqichdan iborat:

- atamalarni standartlashtirish;
- o‘lchovlarni, o‘lchash va sinov uskunalarini va ularni konstruksiyaga va mahsulot texnologiyasiga bog‘lab standartlashtirish;
- mahsulotning o‘zini standartlashtirish.

ISO/IEC (ISO/MEK) tomonidan yaratilgan konsultativ kengash texnika rivojining yo‘nalishini quyidagicha tavsiya qiladi:

- standartlarni yaratishda va ularni kelishishda yangi mexanizmlarni yaratish;
- harajatlarni ilk tadqiqotlarga va real istiqboli bo‘lgan texnikaviy yutuqlarga to‘plamoq;
- bor texnikaviy qo‘mitalarning ilmiy tadqiqot, tajribaviy konstruktorlik ishlarini shu jumladan ekologiya sohasidagi ishlarni, e’tiborga olgan holda yangi rejali ishlarni yaratish;
- yetakchi mutaxassislar boshchiligidagi o‘tkaziladigan seminarlar, ilmiy ma’ruzalar shaklidagi ikkilamchi mexanizmlardan foydalanish;

– sanoatning yuqori rahbarlari orasida yangi g‘oyalarni targ‘ibot qilishga e’tiborni qaratmoq.

Mana shuning uchun standartlashtirishda atamalarni bir yerga to‘plamoq, ular asosida ta’riflar yaratmoq va nihoyat bu sohada standartlar yaratmoq hozirgi kunning talabi, xalos.

Shu maqsadda standartlashtirish sohasidagi atamalarni to‘plashda xalqaro standartlashtirish tashkilotining hujjatlariga, sobiq Ittifoqdagi ma’lumotlarga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida ilk yaratilgan hujjatlarga murojat etildi.

Bu sohadagi asosiy tushunchalar 61 atamadan iborat bo‘lib, ularning mohiyati ketma-ketligi bo‘yicha ma’lum tartibda joylashtirilib, hozirgi vaqtda chop etilgan O‘z DSt 1.10-98 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta’riflar" standarti yaratildi.

Standartlashtirish sohasidagi birqancha asos bo‘luvchi hujjatlar «O‘zstandart» agentligi huzuridagi SMSITI – standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot institutida yaratilmoqda. Bular qatoriga dastlabki standartlar O‘z DSt 1.0-1998, O‘z DSt 1.1-92, O‘z DSt 1.2-92, O‘z DSt 1.3-92, O‘z DSt 1.4-98, O‘z DSt 1.95-1998, O‘z DSt 1.6-2003 va boshqalar kiradi.

O‘z DSt 1.0-1998 "O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar" bo‘yicha standartlashtirishning mohiyati, maqsad va vazifalari, hamda ushbuda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar o‘qo‘v qo‘llanmada keltirilgan.

Mazkur standart standartlashtirishning asosiy vazifa va maqsadini, standartlashtirish ishlarining tashkil etilishi va asosiy qonun-qoidalarini, me’yoriy hujjatlarning toifasini, standartlar turlarini, xalqaro hamkorlik bo‘yicha asosiy qoidalarni, standartlar va texnikaviy shartlarning qo‘llanishini, standartlarga va o‘lchash vositalariga nisbatan davlat nazoratini belgilaydi.

Davlat standartlashtirish tizimi (DST) O‘zbekiston respublikasi standartlashtirish tizimining umumiyligi tashkiliy-texnik qoidalarni o‘rnatadi.

DST standartlari qoidalarni davlat boshqaruv idoralari, xo‘jalik faoliyati sub’ektlari, ilmiy-texnik, muhandislik va boshqa jamiyat birlashmalari hamda standartlashtirish bo‘yicha texnik qumita (TK)lar qabul qilishadi.

## **2.2.1 Davlat standartlashtirish tizimi**

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiyligi tashkiliy-texnik qoidalarni tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko‘rsatadi.

Standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:

- xalq xo'jaligi tarmoqlarida — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi);
- qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda — O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;
- tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- tibbiyat uchun mo'ljallangan mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dori vositalari sohasida, shuningdek mamlakat sanoati ishlab chiqarayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulotlardagi inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;
- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.

### **2.2.2 Standartlashtirish bo'yicha davlat boshqaruvalri**

Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish” to'g'risidagi 1992 yil 2 martdag'i 93-sonli qaroriga va Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi “Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 122-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish “O'zstandart” agentligi standartlashtirish bo'yicha Milliy idora hisoblanadi (3.1-rasm).

«O'zstandart» agentligi tarkibida standartlashtirish va mintaqaviy siyosat bo'yicha boshqarma mavjud. Boshqarma xalqaro, mintaqaviy, xorijiydan tortib barcha miqyoslarda ma'lumot bilan taminlash me'yoriy hujjatlar Davlat jamg'armasini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Me'yoriy hujjatlarni tasdiqlashdan va ro'yhatga olishdan oldin ekspertizadan o'tkazadi, vazirlik, muassasa, tashkilot, korxona, birlashmalar bilan “O'zstandart” agentligi boshqarmalari, standartlashtirish,

metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha davlatlararo kengash va Yevroosiyo ittifoqi bilan ish olib boradi.

2001 yildan Davlat unitar korxonasi O‘zbekiston Respublikasi milliy etalon markazi faoliyat ko‘rsata boshladi. «O‘zstandart» agentligi huzurida shtrix kodlov markazi, respublika va mintaqaviy sifat mahkamalari va boshqalar ishlab turibdi.

Respublikada standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish, muofiqlashtirish va ta’minlash Davlat organlari va iqtisodiy soha bo‘yicha korxonalar birlashuvi tamonidan amalga oshiriladi.

Vazirlik, muassasa, birlashma va korxonalar sohalarda standartlashtirish bo‘yicha ishlarni o‘zlarining vakolati doirasida olib boradilar.

### **2.2.3 Standartlashtirish bo‘yicha bazaviy tashkilotlar**

Standartlashtirish bo‘yicha bazaviy tashkilotlar “O‘zstandart” agentligi tomonidan ro‘yhatga olingan bo‘lib Davlat standartlashtirish tizimi tomonidan belgilangan asosiy vazifalarga muofiq boshqaruv organi tomonidan mahsulot turlari va sifati bo‘yicha yetakchi-namunaviy tashkilotlardan biri tayinlanadi va iqtisodiyotda standartlashtirish bo‘yicha barcha talablarni ta’minlash va nazorat qilish vakolati beriladi.

“O‘zstandart” tarkibida bir necha bo‘limlar, sektor, laboratoriya, guruhlar, har bir viloyat boshqarma va markazlari, ilmiy-tadqiqot instituti, Milliy Etalonlar Markazi mujassamlashgan.

“O‘zstandart” agentligiga qarashli turli soha va tarmoqlarni o‘z ichiga olgan, bir xil nomdagi bo‘limlar ham bor. Bularga standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha davlat nazorati va o‘lchash vositalarini davlat qiyoslovidan qo‘nim va attestatlash sohaviy bo‘limlari kiradi.

Standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha davlat nazorati sohaviy bo‘limlar: og‘ir sanoat, mashinasozlik, yengil sanoat, mahalliy sanoat hamda agrosanoat kompleksi doirasida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

“O‘zstandart” agentligining ilmiy-uslubiy markazi etib, O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohalaridagi tadqiqot va mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti - hozirda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tayinlangan.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda:

- Respublikada sertifikatlashtirishni qo'llash va takomillashtirishning umumiyligi siyosatini ishlab chiqish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tegishli davlat idoralari bilan aloqalarni o'rnatish;
- sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan, o'zaro kelishilgan asosda aloqalarni o'rnatish, kerak bo'lsa, bu tashkilotlar faoliyatida O'zbekiston Respublikasining qatnashishini ta'minlash;
- sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni axborotli ma'lumot bilan ta'minlash.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 342-qarorini bajarish yo'lida "O'zstandart" o'zining viloyat boshqarmalarini (SMS'HM) tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. Respublikadagi sinov laboratoriylarini akkreditlash ishlari jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Farg'ona, Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Samarqand shaharlaridagi sinov laboratoriylari akkreditlanib, hozirda ular turli sinov amallarini o'tkazmoqdalar. Faqatgina Farg'onadagi sinov laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlar natijasiga ko'ra "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi, Quvasoy chinni zavodi, Rishton kulolchilik mahsulotlari zavodi, "Quvamebel" ishlab chiqarish birlashmasi mahsulotlari muvofiqlik sertifikatini olishga sazovor bo'ldilar (3.2-rasm). Ularning tarkibi va tashkiliy strukturalari rivojlanish jarayonida takomillashib boradi.

«O'zstandart» agentligi tarkibidagi oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tekshiruvchi sinov laboratoriysi akkreditlangan laboratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha ko'pgina muayyan turdag'i mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati berildi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ilmiy tadqiqot ishlari ham o'z yo'nalishiga egadir.

«O'zstandart» agentligi qoshidagi «Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti» (SMSITI) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida asosiy ilmiy-uslubiy baza hisoblanadi. Ushbu institut yuqorida qayd etilgan sohalar bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borishi bilan bir qatorda respublikada ushbu sohalar bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti hamdir. Shu sohalardagi belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun u:

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati sohalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati milliy tizimlarini yaratishda ularning ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqadi;
- mahsulotning raqobatdoshligini ta'minlaydigan, atrof-muhitni ishonchli darajada himoya qilishga, inson sog'lig'ini saqlashga, mehnat havfsizligini ta'minlashga, mudofaa qobiliyatini oshirishga qaratilgan xalqaro me'yoriy va tashkiliy-uslubiy hujjatlar bilan uyg'unlashadigan, asos bo'luvchi hujjatlar ishlab chiqadi va joriy etadi;
- standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi mavjud yoki uchraydigan muammolarni tadqiqot qilish, davlat tilida me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, lug'atlar yaratadi;
- yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlaydi;
- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatining ilmiy masalalari bo'yicha xalqaro, milliy va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ishlayotgan mutaxassislarning malakasini oshirishni ta'minlaydi;
- sertifikatlashtirish sohasida ishlaydigan ekspert-auditorlarni tayyorlaydi va boshqalar.

Institut tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tmaganligiga qaramay shu kunga qadar respublika hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator hujjatlar yaratdi va yaratmoqda. Bu hujjatlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, shu sohalardagi ishlarga qo'yilgan birinchi poydevorlardan hisoblanadi.

Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarni moliyalashtirish tegishli mahsulot turi va xizmati iqtisodiy boshqaruv sohalari hisobidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarning asosiy faoliyati va vazifalari:

- biriktirilgan tashkilot va korxonalarda standartlashtirish bo'yicha muvofiqlashtirish ishlari olib borish ham texnik yagonalikni ta'minlash;
- biriktirilgan mahsulot, xizmat turi yoki jarayonlar guruhi bo'yicha o'zuvchi va kompleks standartlashtirishni ta'minlaydigan asosiy istiqbolni yo'nalishlari ishlab chiqish;

- biriktirilgan mahsulot gruhlarini standartlashtirish, me'yoriy hujjatlarni o'z vaqtida tayyorlash, joriy etish va qayta ko'rish bo'yicha takliflar, me'yoriy hujjatlar loyihalarini ekspertlov va tasdiqqa tayyorlov ishlarini amalga oshirish;
- biriktirilgan mahsulot guruhi uchun ko'rsatkichlarni standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan normada, O'zbekiston Respublikasining faoliyatidagi qonunchilik me'yorlari, xavfsizlik va ekologiya masalalarini ta'minlaydigan darajada amalga oshirish;
- standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarga biriktirilgan mahsulotning birinchi namunalari uchun loyihalarni optimallashtirish hamda standartlashtirishni nazariy va amaliy tomonlaridan ilmiy-metodik ishlar olib borish;
- ko'rsatkichlarni normada bo'lishini ta'minlash maqsadida doimiy va tizimli nazorat olib borish;
- korxona va tashkilotlarga standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish va sh.k

O'zbekiston Respublikasida texnik qumitalar (TQ) mutaxassislari – davlat va xo'jalik boshqaruvi manfaatdor idoralari va tadbirkorlik sub'ektlarining vakolatli vakillari, iste'molchilar, kasaba uyushmasi tashkilotlari, davlat nazorati idoralari va boshqalarning shakllanishi bo'lib hisoblanadi. TQ yuqori ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlar bazasida ta'sis etuvchilar va «O'zstandart» agentligi (Davarxitektqurilish, Davtabiatqo'm, Sog'lijni Saqlash Vazirligi) qo'shma buyrug'i bilan tuziladi.

Texnik qumitaning asosiy vazifasi – xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy, davlat va tarmoq standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyat - O'z DSt 1.0, RMG 01 bo'yicha, shartnomali ishlar.

O'z RH 51-013:1993 O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etilishini, muvofiqlashtirilishini va ishlarning maqbul darajada olib borilishini standartlashtirish bo'yicha Texnik qumitalar bevosita ishtiroy etishadi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib brayotgan texnik qumitalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

### **O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari**

| Nºt/r | Nomlanishi               | Vazirlik va mahkamalarning nomlanishi       |
|-------|--------------------------|---|
| 1.    | «O'zbekneftegazmahsulot» | «O'zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniyasi |
| 2.    | «Paxta» Assotsiatsiyasi  | «O'zpaxtasanoat» Assotsiatsiyasi            |
| 3.    | «Donmahsulotlari»        | «O'zdonmaxsulot» Kompaniyasi                |

|     |                             |   |
|-----|-----------------------------|---|
| 4.  | «Yog‘moytamakisanoat»       | «Yog‘moytamakisanoat» Assotsiatsiyasi   |
| 5.  | «Ipakchilik mahsulotlari»   | «O‘zbek ipagi» Assotsiatsiyasi  |
| 6.  | «Oziqovqatsanoat»           | «Oziq-ovqatsanoat» Assotsiatsiyasi  |
| 7.  | «O‘zmevasabzavotuzumsanoat» | «O‘zmevasabzavotuzumsanoat-xolding» Kompaniyasi                                 |
| 8.  | «Aloqa va informatika»      | O‘zbekiston aloqa va ma’lumotlashtirish agentligi                               |
| 9.  | «Navurug‘nazorat»           | Respublika qishloq xo‘jaligi urug‘chiligi va birinchi urug‘shunoslik stansiyasi |
| 10. | «O‘zavtosanoat»             | «O‘zavtosanoat» Assotsiatsiyasi   |
| 11. | «Go‘sht va sut»             | «O‘zgo‘shtsutsanoat» Assotsiatsiyasi  |
| 12. | «Davarxitekqurilish»        | Davlat arxitektura va qurilish bo‘yicha qumitasi                                |
| 13. | «O‘zbektelekom»             | «O‘zbektelekom» Aksionerlik kompaniyasi   |
| 14. | «Kimiyo sanoat»             | «O‘zkimyo sanoat» Davlat aksionerlik kompaniyasi                                |
| 15. | «O‘zbekengilsanoat»         | «O‘zbekengilsanoat» Aksionerlik kompaniyasi                                     |
| 16. | «O‘zbekcharmpoyabzali»      | «O‘zbekcharmpoyabzali» Assotsiatsiyasi  |
| 17. | «Shoyi»                     | «O‘zbek ipagi» Assotsiatsiyasi  |

## 2.2.4 Korxonalarda va tashkilotlarda standartlashtirish xizmatlari

Standartlashtirishning asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda va amaldagi qonunlarning talablarining bajarilishini ta’minalash uchun tadbirkorlik sub’ektlari standartlashtirish bo‘limlarini (xizmatlarini) tashkil etadi. Bu bo‘limlar standartlashtirish bo‘yicha ishlarga tashkiliy-metodik va ilmiy-texnik rahbarlik qiladi, standartlashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik va boshqa ishlarni bajaradi, korxonaning boshqa bo‘limlari olib borayotgan standartlashtirish buyicha ishlarni bajarishda qatnashadi.

Standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirishda siyosatning birliliginini va bir xil yondoshishni ta’minalash maqsadlarida O‘z RH 51-051-96 “Korxonalarda (tashkilotlarda) standartlashtirish xizmatlari to‘g‘risida namunaviy nizom” tasdiqlangan. Bu Nizomda mulkdorlik shaklidan qat’iy nazar korxonalar va tashkilotlar standartlashtirish xizmatlarining umumiyligi nizomlari, asosiy vazifalari va huquqlari o‘rnataligan.

Standartlashtirish xizmatlari tadbirkorlik sub’ektlari (bo‘limlar, shu’balar, guruhlar) ning bo‘limlaridan iborat bo‘ladi. Kichik korxonalarda muhandis-texnik xodimlar sonining kamligi sababli mahsus bo‘lim tuzishga imkon bo‘lmasaga,

standartlashtirish bo'yicha ishlarga mas'ullik muhandis-texnik xodimlarning biriga yuklatiladi.

Standartlashtirish xizmatlariga quyidagi vazifalar yuklatiladi;

– korxonaning me'yoriy hujjatlar tizimini tuzish buyicha ishlar majmuini bajarish;

– standartlashtirishning istiqbolli va yillik rejalari (dasturlari) ga oid takliflarni, zarur bo'lganda, boshqa bo'limlar bilan birgalikda ishlab chiqish;

– ilmiy-texnikaviy dasturlarga mahsulotning texnik darjasи va sifat ko'rsatkichlarini oshirish istiqbollarini aniqlash qismida qatnashish va takliflar tayyorlash, shuningdek mahsulotga istiqbolli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish;

– me'yoriy hujjatlarning loyihalari bo'yicha fikr-mulohazalarni tayyorlashni tashkillashtirish;

– korxonaning iqtisod xizmati bilan birgalikda standartlashtirishning texnik-iqtisodiy samarasini aniqlash;

– davlat nazorat idoralari tomonidan o'tkazilayotgan me'yoriy hujjatlarga rioya qilinayotganligini tekshirishlarda qatnashish;

– ilmiy-texnikaviy, tajriba-konstrukturlik ishlarida va mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish jarayonida xavfsizlik, boyliklarni tejash, atrof muhitni muhofazalash, o'zaro almashinuvchanlik va mos keluvchanlik talablarini hisobga olgan holda jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot chiqarishni ta'minlovchi ko'rsatkichlarning o'rnatilishini ta'minlash;

– MH ni joriy etish va rioya qilishni tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlash;

– xalqaro, davlatlararo, hududiy standartlashtirish, standartlashtirish sohasida ikki tomonlama hamkorlik, shuningdek xalqaro standartlarni va chet mamlakatlarning milliy (firmalarning) standartlarini qo'llanish bo'yicha ishlarni bajarish. Bundan tashqari, standartlashtirish xizmatlariga majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, chiqarilayotgan mahsulotning sertifikatlashtirilishini ta'minlash bo'yicha vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

Korxonalarda standartlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar asosiy ishlar turiga kiradi.

Jahon amaliyoti korxonalarda mavjud bo'lgan o'qitilgan va tajribali mutaxassislar bilan jamlangan standartlashtirish xizmatlarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

## **2.3 O‘zbekiston davlat standartlashtirish tizimi bo‘yicha me’oriy hujjatlar Asosiy qoidalar**

Asosiy qoidalar O‘zbekistonda standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish va olib borishga umumiy talablarni o‘rnatadi, O‘z SDT ning me’oriy hujjatlari majmuida asos bo‘ladi va O‘z DSt 1.0:1998 bilan reglamentlanadi.

Asosiy qoidalarda keltirilgan asosiy maqsadlar “Standartlashtirish to‘g‘risida” Qonunda o‘rnatilganlarga o‘xshaydi.

Standartlashtirish tarmoklararo tizimining davlat va rus tillarida qisqartirilgan nomlari belgilangan:

O‘z StDT – O‘zbekiston standartlashtirish davlat tizimi – (GSS Uz – gosudarstvennaya sistema standartizatsii Uzbekistana);

KNT – konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi – (YeSKD – yedinaya sistema konstruktorskoy dokumentatsii);

TNT – texnologik hujjatlarining yagona tizimi – (YeSTD – yedinaya sistema texnologicheskoy dokumentatsii);

MST – mahsulotni sinash tizimi – (sistema ispytaniy produksii);

MSKT – mahsulot sifati ko’rsatkichlarining tizimi – (SPKP – sistema pokazateley kachestva produksii);

O’zSMT – O‘zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi – (NSS Uz – natsionalnaya sistema sertifikatsii Uzbekistana);

NVT – hujjatlarning bixillashtirilgan tizimi – (USD – unifitsirovannaya sistema dokumentov);

NKAST – nashriyot, kutubhona va axborot bo‘yicha standartlar tizimi – (SIBID – sistema standartov po informatsii, bibliotechnomu i izdatelskomu delu);

O‘z O’DT – O‘zbekiston o’lchashlar birlilagini taminlash davlat tizimi – (GSI Uz – gosudarstvennaya sistema obespecheniya yedinstva, izmereniy Uzbekistana);

MBZEHT – materiallar va buyumlarni zanglash va eskirishdan himoyalash yagona tizimi – (YeSZKS – yedinaya sistema zaščity ot korrozii i stareniya materialov i izdeliy);

MNStT – mehnat havfsizligi standartlari tizimi – (SSBT – sistema standartov bezopasnosti truda);

ITTT – ishlab chiqarishni tehnologik taylorlashning yagona tizimi – (YeSTPP – yedinaya sistema texnologicheskoy podgotovki proizvodstva);

DHT – dasturiy hujjatlarining yagona tizimi – (YeSPD – yedinaya sistema programmoy dokumentatsii);

QLHT – qurilish uchun loyiha hujjatlari tizimi – (SPDS – sistema proektnoy dokumentatsii dlya stroitelstva);

TR – texnika puhtaligi – (NT – nadyojnost v texnike);

MYaT – mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi – (SRGSh - sistema razrrobotki i postanovki produksii na proizvodstvo);

O'z AT – O'zbekiston akkreditatlash tizimi – (SA – sistema akkreditatsii Uzbekistana);

ST – sifat tizimi – (SK – sistema kachestva);

TKT – texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlash yagona tizimi – (YeSKK TESI – yedinaya sistema klassifikatsii i kodirovaniya texniko-ekonomiceskoy i sotsialnoy informatsii)

Asosiy qoidalarda standartlashtirishning asosiy vazifalari keltirilgan: iste'molchilar va davlat manfaatlarini ko'zlab, chiqariladigan mahsulotning sifati va nomenklaturasiga maqbul talablarni o'rnatish; parametrik va xil o'lchamlari qatorlarini, asos konstruksiyalarni, konstruktiv-birxillashtirilgan buyumlarning blok-modul tarkibiy qismlarini belgilash va qo'llanish asosida birxillashtirish; mahsulot, uning elementlari, butlovchi buyumlar, xom ashyo, materiallarning ko'rsatkichlari va tafsilotlarini kelishib olish va o'zaro muvofiqlashtirish; metrologik me'yorlar, qoidalar, nizomlar, talablarni o'rnatish va b.

Standartlashtirishning asosiy prinsiplari ifodalangan, jumladan: standartlashtirishning maqsadga muvofiqligi; standartlashtirishning kompleksligi; barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning o'zaro bir-biriga bog'likligi va kelishilganligi; o'xshash standartlashtirish ob'ektlariga boshqaruvning turli darajalarida me'yoriy hujjatlarni takror ishlab chiqishga yo'l qo'ymaslik va h.k.

Standartlashtirishning tashkiliy asoslari o'rnatilgan. Standartlashtirish bo'yicha milliy idora – O'zstandart Agentligining vazifalari belgilandi:

- standartlashtirish sohasida milliy siyosatni shakllantiradi va amalga oshiradi;
- davlat va xo'jalik boshqaruv idoralarining standartlashtirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish umumiyligi tashkiliy-metodik qoidalari o'rnatadi;
- me'yoriy hujjatlar, shu jumladan majburiy talablarni o'z ichiga olgan hujjatlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi;

– standartlashtirish sohasida kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkillashtiradi va olib boradi.

Davarxitekturaqurilish, Davtabiatqo‘mita, Sog‘lijni saqlash vazirligi va boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari o‘z vakolatlari doirasida standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi.

Standartlashtirish va me’yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlarga metodik jihatdan rahbarlik qilish uchun xos boshqaruvi idoralar O‘zstandart Agentligi bilan hamkorlikda standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar va tayanch tashkilotlar, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda esa -standartlashtirish xizmatlarini tashkil etadi.

Barcha darajalardagi standartlashtirish ob’ektlarining bat afsil ro‘yxati keltirilgan:

- Davlatlararo standartlashtirish ob’ektlari quyidagilardan iborat:

– umumtexnikaviy me’yorlar va talablar, shu jumladan umummashinasozlikda qo‘llaniladigan buyumlarning (podshipniklar, reduktorlar, mahkamlash buyumlari va boshqalar) yagona texnik tili, xil o‘lchamlari qatori va namunaviy konstruksiyalari, axborot texnologiyalarining mos keluvchi dasturiy va texnik vositalari, materiallar va moddalarning xossalari to‘g‘risida ma’lumotnomalar ma’lumotlari, mahsulotni tasniflash va kodlash;

– yirik sanoat va xo‘jalik majmuilarining ob’ektlari (transport, energetika, aloqa va b.);

– yirik davlatlararo ijtimoiy-iqdisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning ob’ektlari, jumladan aholini ichimlik suv bilan ta’minlash, odamlar yashaydigan muhitni tekshirish tizimini yaratish, radioelektron vositalarining elektromagnit mos keluvchanligi, aholi va xalq xo‘jaligi ob’ektlarining xavfsizligini ehtimolni hisobga olgan holda ta’minlash;

- qator davlatlarda chiqariladigan, o‘zaro yetkazib beriladigan mahsulot.

### **2.3.1 Davlat standartlashtirish tizimida asos soluvchi me’yoriy hujatlarning klassifikatsiyasi**

Asos bo‘luvchi davlatlararo standartlar faoliyatning ma’lum sohasi uchun umumiyl tashkiliy-metodik qoidalarni, shuningdek mahsulotni yaratish va foydalanishda turli fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining o‘zaro tushunishini, texnikaviy birliligini va o‘zaro aloqalarini, atrof muhitni muhofazalashni, mehnatni

muhofazalashni va boshqa umumtexnikaviy talablarni ta'minlaydigan umumtexnikaviy talablarni (me'yorlar, qoidalarni) o'rnatadi.

- Davlat standartlashtirish ob'ektlari quyidagilardan iborat:

a) tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy me'yorlar va talablar, jumladan:

– standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va o'tkazish;

– bilim va faoliyatning turli sohalarida terminologik tizimlar;

– texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlash;

– xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofazalash, mehnat gigienasi, ergonomika, texnikaviy estetika talablari;

b) mahsulotga majburiy talablar;

c) tarmoqlararo ehtiyojga mo'ljallangan mahsulot;

d) davlat ahamiyatidagi xo'jalik ob'ektlarining elementlari, shu jumladan bank tizimi, transport, aloqa, energetik tizim, mudofaa va h.k

d) davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning ob'ektlari (elementlari);

- Tarmoq standartlashtirish ob'ektlariga tarmoqni tashkil etish va boshqarish, sifatni ta'minlash, tarmoqqa mo'ljallangan mahsulot me'yorlari va qoidalari; kiradi.

- Ma'muriy-hududiy standartlashtirish ob'ektlariga hududni boshqarish, hudud uchun xos mahsulot sifatini ta'minlash buyicha me'yorlar va qoidalari kirishi mumkin.

- Korxonalarda standartlashtirish ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

– chet iste'molchilarga xaridga chiqariladigan mahsulot;

– ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo'yicha me'yorlar va qoidalari;

– sifatni boshqarish;

– faqat ushbu korxonada tayyorlanadigan va ishlatiladigan detallar va yig'ma birliklar;

– texnologik jixoz va asboblar, texnologik me'yorlar, talablar. va ushbu korxonadagi namunaviy texnologik jarayonlar;

– ko'rsatiladigan xizmatlar.

O'zbekistonda qo'llaniladigan me'oriy hujjatlar:

– davlatlararo standartlar;

– O'zbekiston davlat standartlari;

– tarmoqlar standartlari;

– texnik shartlar;

- ma'muriy-hududiy standartlar;
- korxonalarining standartlari.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarga shuningdek rahbariy hujjatlar, me'yorlar va qoidalar (qurilish, sanitariya, ekologik qoidalar va b.), tavsiyalar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari ham kiradi.

Xalqaro va hududiy standartlar O'z DSt ISO/IEC 21:2001 bo'yicha O'zbekiston davlat standartlariga qayta rasmiylashtirilib qo'llaniladi.

Chet el standartlari – O'z DSt 1.7:1998 bo'yicha qayta rasmiylashtiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston davlat standartlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ixtiyoriy me'yoriy hujjatlarni qo'llanish (amal qilish) maqsadida respublikada texnik reglament mavjud bo'lganda qo'llanilishi majburiy bo'limgan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi.

Me'yoriy hujjatlarni belgilash tartibi o'rnatilgan:

a) davlat ahamiyatidagi me'yoriy xujjatlar:

- O'zbekiston davlat standarti – O'z DSt;
- O'zbekiston umumdavlat tasniflagichi – O'z DT
- O'zbekiston rahbariy hujjati – O'z RH
- O'zbekiston tavsiyanomaları – O'z T.

b) tarmoq darajasidagi me'yoriy hujjatlar:

- tarmoq standarti – TSt;
- tarmoq tasniflagichi – TT;
- texnik shartlar – TSh;
- rahbariy hujjat – RH;
- tavsiyalar – T.

c) ma'muriy-hududiy axamiyatidagi me'yoriy hujjatlar:

- ma'muriy-hududiy standart – MNSt ;
- tavsiyanomalar – T.

d) korxona ahamiyatidagi me'yoriy hujjatlar:

- texnik shartlar – TSh;
- korxona standarti – KSt.

Demak, barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning belgisi hujjat matning qaysi tilida yozilganligidan qat'iy nazar, davlat tilida lotin yozuvidagi qisqartmalar (abbreviaturalar) bilan belgilanadi.

Abbreviaturalar quyidagilarni ifodalaydi:

O'z – O'zbekiston

D – Davlat

T – Tasniflagich, Tarmoq, Tavsiyanoma

R – Rahbariy

H – Hujjat, Hududiy

Sh – Shart

K – Korhona

M – Mamuriy

St – Standart

Davlatlararo standart belgisi (GOST) russ tilida saqlanadi. Standartlar darajasi, ularning tasdiqlash darajalari va O'z SDT standartlarining turlari 4.1-rasmdagi sxemada keltirilgan.

Xalq iste'moli nooziq mollarini tayyorlash va haridga chiqarish uchun namunalar (etalonlar) ning texnik tavsiflarini ishlab chiqish ruhsat etiladi. Texnik tavsiflar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi, chunki ular ushbu guruxdagi bir turli mahsulotga umumiyl talablarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

Haridga chiqariladigan mahsulotga barcha darajadagi me'yoriy hujjatlar O'zstandart Agentligining idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Davlat ro'yxatidan o'tmagan me'yoriy hujjatlar haqiqiy bo'lmaydi. Maxsulotga me'yoriy hujjatlar, odatda, har besh yilda, agar boshqa muddat urnatilmagan bulsa, qaytadan ko'rib chiqiladi.

Import qilinadigan mahsulot O'zbekiston hududida amaldagi me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan majburiy talablarga muvofiq kelishi lozim. Bu sertifikat bilan tasdiqlanadi.

Me'yoriy hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va xaridga chikarish ruxsat etilmaydi.

Me'yoriy xujjatlarni nus'halash tartibi Asosiy qoidalarda belgilangan. Me'yoriy hujjatlarni va ularga kiritilgan o'zgartirishlarni nashr va qayta chop etish bu hujjatlarni tasdiqlagan (qabul qilgan) tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo va hududiy tashkilotlarning me'yoriy hujjatlarini O'zbekiston hududida nashr va qayta chop etish huquqi O'zstandart Agentligiga berilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazorati qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **III- MODUL. STANDARTLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

#### **3.1 Standartlashtirishning metodologik (uslubiy) asoslari**

Standartlashtirishning keng tarqalgan usullari sifatida birxillashtirishni, agregatlashtirishni va turlashni olishimiz mumkin. Aynan shu usullar yordamida o‘zaro almashuvchanlikni ta’minlash mumkin. Endi shu usullarni birma-bir ko‘rib chiqaylik.

Standartlashtirish bo‘yicha faoliyat murakkab va ko‘p qirralidir. Yuqori sifatli standartlashtirishga erishish bir qator usullardan foydalanishga mo‘ljallangan.

Metod (usul) (grekchadan «methodos») – aniqlangan masalani hal etishda nazariy yoki amaliy tadqiqotlarni qabul qilish, qo‘llash, yo‘lidir. Metod – bu ko‘p marotabali takrorlanishlar uchun oldindan rejalshtirilgan va maqbul bo‘lgan murakab faoliyatni bajarish yo‘lidir.

Standartlashtirishda quyidagi kompleks metod (usul)lardan foydalilanadi:

- falsafiy;
- umum ilmiy;
- maxsus.

#### **1. Falsafiy usullar.**

Bunga quyidagilar taalluqlidir:

- teng huquqlilik usuli – nazariy tadqiqotlarning ilmiy usuli bo‘lib, o‘zida ob’ekt to‘g‘risidagi abstrakdan, muayyan hamma tomonlama o‘rganishga harakat qilingan fikrlarni ifoda etadi;

- tarixiy usul – vaqt bo‘yicha o‘zgaruvish va rivojlanishga faoliyat sifatida imkon berishga mansub usul;

- mantiqiy usul – turli nazariyalar ma’lumotlaridan kelib chiqib ishonchli bilimni kafolatlovchi, mantiqiy aloqadorlikni va munosabatni aniqlaydi.

#### **2. Umum ilmiy usullar.**

Bu usullar ilmiy bilishning empirik va nazariy darajasida turli maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalilanadi. Bularga quyidagilar mansubdir:

- empirik (kuzatuv, solishtirish, eksperiment, o‘lchash) usullar;
- nazariy (idellashtirish, shakllantirish, aksiomali usul, ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish);
- empirik-nazariy usullar (mavhumlashtirish, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtrish, tizimlashtirish, sinflashtirish).

Optimallashtirish usullari:

- Matematik optimallashtirish usuli – optimallashtirilgan standartlashtirish ob’ektining ishchi holati va matematik modelini batafsil yaratishni tashkil asosidagi usul. Bu usul ilgarilanma standartlarni ishlab chiqishda sifatni bashoratlashni ta’minlashi va yuqori aniqligi bilan farqlanadi. Biroq, undan faqat yaxshi o‘rganilgan ob’ektlar, ularni yaratish shartlari va qo‘llanilishini optimallashtirishda foydalanish mumkin.

- Ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bashoratlash usuli. Bosh usuli o‘tgan vaqt statistikasidan foydalanish bo‘lib va vaqt bo‘yicha o‘zgarish imkoniyatlarini hisobga imkonini bermaydi. Shuning uchun ekstrapolyatsiya usuli qisqa davr vaqtni bashoratlashda foylanish maqsadga muvofiq.

- Funksiya-qiyamatli tahlil asosida optimallashtirish usuli, ya’ni iqtisodiy samaradorlik, vaqt bo‘yicha xarajat va samarani solishtirish va bu asosida eng yaxshi variantlarni tanlash. Ammo, bu yerda standartlashtirish ob’ekti (qo‘llanilishi) ekspluatatsiyasidan samara variatsiya tahlili nazarda olinmaydi.

- Muhandislik hisoblari (mustahkamlik, aniqlik, chidamlilik, ishab chiqaruvchanlik va boshqa ko‘rsatkichlari) asosidagi usul. Taniqli hisoblash usullariga: usulning aniqligi juda ham yetarli, ammo u turli ob’ektlarni solishtirib baholash uchun foydalanib bo‘lmaydi, faqat bir turdagи ob’ektlarga qo‘llash samara beradi.

Ekspertli usullar. Ekspertlarning tajribasi, ziyrakligi, bilimdonligiga asoslangan. Ekspertlarning xulosalari yuqori niqlikda, ishonchli, asoslangan, yanglishmagan, jamoa fikridan mustaqil, yangilangan, dadil va keng ko‘lamli bo‘lishi lozim. Ekspert usullari ob’ekt to‘g‘risida nazariy yo‘li bilan yoki eksperimental usullar bilan ma’lumotlar olish umkon bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi.

Quyidagi ekspert usullari mavjud: evristik (aqliy hujum, ssenariyali, anketali) va jamoali ekspertizalar. Yanada xolisona va istiqbolli usul bo‘lib ekspertlar guruhi doirasida jamoali ekspertiza usuli hisoblanadi. Biroq, muayyan sharoitlarga bog‘iq holatlarda bu usullardan kombinatsiyalashgan holda qo‘llaniladi.

### **3. Maxsus usullar.**

Ko‘proq ishlataladigan standartlashtirishning maxsus usullari quyidagilar:

- unifikatsiya (birxillashtirish);
- tiplashtirish (turlash);
- agregatlashtirish;

- modullashtirish.

Shuningdek, parametrik standartlashtirish, kompleks standartlashtirish va ilgarilanma standartlashtirish kabi maxsus usullar ham mavjud. Ko‘proq va kengroq miqyosda ko‘llaniladigan usullarga batafsил то‘xtilib o‘tamiz.

### **3.2 Amaliyotda ko‘proq ko‘llaniladigan umum-ilmiy standartlashirish usullari**

Standartlashtirish ob’ektlarini tizimlashtirish standartlashtirishning muayyan ob’ektlari majmuiyni ilmiy ketma-ketlik bilan tasniflash (sinflash) va mayyan tartiblashtirishdan iborat.

Ixtiyoriy ob’ektni tizimlashtirish foydalanish uchun qulay, aniqlangan tizimni shakllantirish va ularni ketma-ketlikda joylashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Tizimlashtirishning eng oddiy tizimi turli lug‘at va ma’lumotlardan foydaniladigan alifbo bo‘lib hisoblanadi. Standartlashtirish ob’ektlarini tarib raqamlashtirish yoki ularni voqealar ketma-ketligiga asoslangan holda joylashtirishda qo‘llaniladi. Maslan, GOST, O‘z DSt standartlarini o‘sib borish tartibi bo‘yicha raqamlashtirish va undan so‘ng qabul qilingan yili ko‘rsatiladi.

Kompyuter texnologiyalari asrida yagona tamoyillarni ishlab chiqish va usullarni tizimlashtirishda axborot moslashuvchanligini ta’minlash maqsadida sinflashtirish, identifikatsiyalash va kodlashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Turli xillikni tizimlashtirishning asosi sinflashtirish (tasniflashtirish) bo‘lib hisoblanadi.

Tasniflashtirish (sinflashtirish) – ob’ektlar to‘plamin qabul qilingan usulga muvofiq aniqlangan alomatlar asosida farqlash yoki ularni kelib chiqishi bo‘yicha sinfli guruhlash (taksonlar)ga ajratishdir.

Alomatlar – ob’ekt shaklini boshqalaridan farqlovchi ob’ektning o‘ziga xos xossasidir. Ob’ektlarni sinflashtirishda ularni umumiyligi alomatlariga bog‘liq bo‘lgan sinf, sinf osti, turi, razrayadlar guruhi va boshqa ko‘rsatkichlari bo‘yicha joylashtirish hamda bir-biriga bo‘ysungan ob’ektlar tizimi yaratiladi.

Umumiyligi sinflash o‘zida ixtiyoriy ob’ektlar ketma-ketligi usulini namoyon etib va uni qo‘llash universaldir, shuning uchun bu usul aniqlashtirishni talab etadi. Faqat “sinflashtirish (sinflashgan)” tushunchasining 900 dan ortiq ta’rifi ma’lumdir. Ulardan eng ko‘p tarqalgani va sinflash ma’nosi to‘g‘risida yetarlichcha aniq tushunchani beruvchi quyidagilar hisoblanadi: ob’ektlar sinfi yoki bu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rnatish vositasi sifatida foydlaniladigan,

inson faoliyati yoki bilimlar sohasida u yoki bu ketma-ket bog‘langan tushunchalar (ob’ektlar sinfi) tizimi.


Sinflashtirish va kodlashtirish fikrlash jarayoni faolligi bilan bevosita bog‘liqdir, ayniqsa uning asosiy qismi bo‘lmish, bu ma’lumotni o‘zlashtirishga javob beradi.

Shu jihatni bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha bajaruvchining ishlarini optimallashtirishga bog‘liqdir. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida ma’lumotlarni hiddan ziyod hajmda bo‘lishini hisobga olib, uni aniq ishlashi uchun amaldagi vaqt rejimida ulardaga ma’lumotlarni ko‘lab-quvvatlash lozimdir. Bundan ma’lumotlarni sifatli sinflashda kompyuter texnologiyalarini qo‘llash bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning optimallashtirish hamda shu rejimda vaqtini qiqartirgan holda ma’lumotlar qayta ishlanadi.

Tasniflashtirish (sinflashtirish) usullari to‘plam va to‘plam ostilariga bo‘lish usuli bilan aloqadorligi darjasini muhim ahamiyatga ega. Ob’ektlarni sinflashning ikkita asosiy: ierarxik va fasetli usuli mavjud.

Ierarxik usul bo‘yicha sinflashtirish quyidagi ketma-ketlik bo‘yicha amalga oshiriladi:

- ob’ektning birlamchi to‘plamini aniqlash;
- sinflashtirish ob’ektining asosiy (mavjud) alomatlarini aniqlash;
- alomatlarning ketma-ketligi tartibini tanlash – ularni miqdori va bo‘linish darjasini.



**3.2.1-rasm. Ierarxik usul bo‘yicha sinflashtirish sxemasi**

Sinflashgan guruhlarning umumiyligi miqdori  $E_0$  (klassifikatori) sinflagichi hajmida shakllanib, quyidagiga teng:

$$Yeo = n_1 + n_1 n_2 + n_1 n_2 n_3 + \dots + n_1 n_2 n_3 \dots n_k = \sum_{j=1}^I \Pi \Sigma P \quad (3.1)$$

Sinflashtirishning fasetli usuli birlamchi ob'ekt to'plamini muayyan masalani hal etish uchun aniqlanilgan berilgan alomatlarni namoyon etuvchi mustaqil to'plam ostilariga bo'lish natijasida amalga oshiriladi.

Fasetli usul bo'yicha sinflashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ob'ektning birlamchi to'plamini aniqlash;
- sinflashtirish ob'ektini barcha tomonlama tavsiflovchi asosiy (mavjud) alomatlarini aniqlash;
- fasetlarda bir turdag'i (mavjud) alomatlarni guruhlash va ularni kodlashtirish;
- to'plam ostini hosil qilish uchun fasetli formulani aniqlash.

Fasetli usul ob'ektning muayyan turli tavsiflari yig'indisi asosida "xusuiydan umumiyya" tamoyili bo'yicha to'plam ostini shakllanishi bilan o'ziga xosdir.

Kodlashtirish – ob'ektga yoki ob'ektlar guruhiга uning nomini bir qancha simvolar bilan almashtirish imkonini beruchi yagona belgi (kod)ni qo'yish va belgilashdir.

Kod – qabul qilinigan usulga muvofiq o'zlashtirilayotgan ob'ektni identifikatsiyalash maqsadidagi belgi yoki belgilar majmuasidir. Kodli belgilashlar alifboli, razrayadli, tuzilmali, uzunli va nazorat sonli kodlashlar bilan tavsiflanadi.

Alifbo – kodni belgilash uchun qabul qilingan belgilar (simvollar) tizimi.

Razryad kodi – kodda belgilar holati.

Tuzulmali kod – tarkibni shartli belgilash va nomlanish darajasi uzunligiga bu belgilarga muvofiq, kodda belgilar ketma-ket joylashishini grafik tasviri.

Kodda belgilar soni uning tuzulmasi va ob'ektlar miqdoriga, to'plam ostiga kiruvchi, har bir uzunlik darajasini shakllantiruvchlariga bog'liqligi bilan aniqlanadi. Har bir uzunlikda belgilar sonini aniqlashda yangi ob'ektlarni paydo bo'lishi mavjudligini inobatga olib zaxira kodalra nazarda tutilishi lozim.

Kodlar quyidagi talablargijavob berishi lozim:

- ob'ektlarni va (yoki) ob'ektlar guruhini bir xil ma'noli identifikatsiyalash va identifikator bo'lishi lozim;
- belgilar soni minimal (minimal uzunlikda) va berilgan to'plamning barcha ob'ekt (alomat)larini kodlash uchun yetarli bo'lishi lozim;
- kodlashtiriladigan to'plam ob'ektlari paydo bo'lgan holatlar uchun yetarli zaxirani mavjudligi;
- odamlar foydalanishi uchun hamda kodlashtirilgan ma'lumotlari kompyuterda qayta ishlash uchun qulay bo'lishi lozim;

- kompyuter tizimiga kiritishda xatoliklarni avtomatik nazorat imkoniyatini ta'minlash.

Kod uzunligi – koddagi probellarsiz belgilar soni.

Nazorat soni – kod yozuvlarini tekshirish uchun foydalaniladigan hisoblangan son.

Texnikaviy-iqtisodiy ma'lumotlarni kodlashtirishning ketma-ket, parallel, tartibli va seriyali-tartibli usullariga bo'linadi.

Ketma-ket kodlashtirish usulida ierarxik sinflashtirish usulida olingan bir-biriga bog'lik joylashgan ketma-ketlikdagi kodlardan foydalanish bilan ob'ekt va (yoki) guruhni sinfli kodi shakllantiriladi.

Parallel kodlashtirish usuli fasetli sinflashtirish usulida olingan mustaqil guruhlangan kodlardan foydalanish bilan sinflashgan ob'ekt va (yoki) sinflangan guruh kodini shakllantrish va uni kiritishdir. Bu holatda kod tuzulmasi fasetli formula bilan aniqlanadi.

Tartibli kodlash usuli natural sonlar qatoridan shakllantirish va undan foydalanish bilan farqlanadi.

Seriiali-tartibli kodlashtirish usuli natural sonlar qatoridan, bir xil alomatlari bilan sinflashgan ob'ektlari uchun bu sonlar diapazoni yoki olahida seriyasini shakllantirishdan hosil qilinadi.

Tizimlashtirishning boshqa turi bu identifikatsiyalash bo'lib hisoblanadi.

Identifikatsiya – ob'ektga boshqa ob'ekt to'plamlaridan uni bir xilligini belgilash imkonini beruvchi, yagona nom, belgi, shartli belgilash, alomat yoki alomatlar yig'indisini berishdir.

Mahsulotlarni identifikatsiyalash – mahsulotning bir-biriga aynan o'xshash mavjud alomatlari tavsiflarini o'rnatish.

Maslan, Mahsulotlar umum davlat klassifikatori (MUK)da kodlar sinfli (S-MUK) va assortimentli (A-MUK) qismlardan tashkil topgan. Assortimentli kodlash aynan, ob'ekt haqidagi ma'lumotni muayyanlashtiruvchi, ob'ekt sinfi to'plamidan bir xilligini belgilovchi mahsulot identifikatsiyasini anglatadi.

Turli darajalarda boshqarish masalalarin hal etish uchun foydalaniladigan ma'lumotlarni tasniflash (sinflash) va kodlashtirish "Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni tasniflash va kodlashtirish yagona tizimi" (TIIM TKYaT – YeSKK TESI) deb nomlangan kompleks davlat standartlari bilan belgilanadi.

Shunday qilib, identifikatsiyalash, tasniflash va kodlashtirishdan ma'lumotlar bilan ishslash uchun xorijiy va mahalliy standartlashtirish amaliyotida keng qo'llaniladi. Bu

usullarsiz standartlashtirishning maxsus usullaridan: unifikatsiya, tiplashtirish, agregatlashtirish, modullashtirish, optimallashtirishdan foydalanish mumkin emas.

### **3.3 Kompleks va ilgarilanma standartlashtirish usullari**

Kompleks standartlashtirish (KS) – bir maqsadga yo‘naltirilgan va o‘zarobog‘liq talablar tizimini qo‘llash va KS ning ob’ektiga va uning asosiy elementlariga ta’sir qiluvchi material va nomaterial faktorlarni hamda aniq masalalarni optimal hal qilishni ta’minlash maqsadida olib boriladigan standartlashtirishdir.

Kompleks standartlashtirish elementlariga quyidagilar kiradi:

- moddiy kirish (xom-ashyo, materiallar, butlovchi qismlar, yarimfabrikatlar);
- nomoddiy kirish (ishlab chiqish, loyihalash, sinovlar, ishlab chiqarishga qo‘yish va h.k.);
- texnologik kuzatib borish (texnologik jarayonlar, yo‘riqnomalar, reglamentlar, retsepturlar, texnologik va sinov asbob-uskunalarini va h.k.)larni tashkil qildi

Kompleks standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- xom-ashyo, material, butlovchi buyumlar kabi o‘zaro bog‘liq elementlar, ularni tayyorlash texnologiyasi, taxtla joylashtirish idishi, tashish va foydalanishda talab me’yorini ma’lum darajada belgilab qo‘yish;
- provard natijada yuqori sifatli mahsulot yoki xizmatlarni ro‘yobga chiqaradigan, o‘zaro bog‘langan vositalari bo‘yicha standartlarni ishlab chiqish, joriy etish kabi ishlarni belgilab qo‘yish;
- umumtexnika va soha komplekslari bo‘yicha nomoddiy (hujjatlashtirish tizimi) obktlarga o‘zaro bog‘liq me’yor va talablarni o‘rnatishdan iborat.

Kompleks standartlashtirish dasturiy hujjat bo‘lib, ishlab chiqariladigan yoki qayta ishlanadigan provard mahsulot texnik darajasi va sifatiga ashyo, material, butlovchi qismlar, jihozlar, metrologik ta’minot bo‘yicha muvazanatlangan me’yoriy hujjatlar kiradi. Ishlarni bajarish muddatlari va tadbirlar ro‘yxati bo‘yicha ko‘zda tutilgan barcha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish va joriy etish jarayonlarini to‘la qamrab olinganligini anglatadi.

Kompleks standartlashtirish ob’ektlari va ularni tanlash mezonlari. Kompleks standartlashtirish ob’ektlari ba’zi mahsulot yoki standart turlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan talablar bo‘yicha hamda bir turli ob’ekt guruhlari va murakkab ob’ekt tizimlari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan:

a) Rangli televidenie muommosini hal etishda nafaqat qabul qilish tizimini, balki maxsus uzatish vosita va tizimlarni (stansiya) xalqaro talablar darajasida amalga oshirish dasturlari majmuasini yaratish zarur bo‘lishi mumkin.

b) Yarim o‘tkazgichli asboblar guruhi: diodlar, tunelli diodlar barqarorlashtirgichlari, tranzistirlar va hakoza.

c) Ayrim mahsulot turi, qo‘llanadigan ashyo material, butlovchi qisimlar bilan bиргаликда;

d) Zarur bo‘lganda standartlarning ba’zi talablari, sifat ko‘rsatgichi bita bo‘lishiga qaramay o‘zaro bog‘liq omillarini chuqurroq taxlil etilishi.

Kompleks standartlashtirish ob’ektlarini tanlash mezonlari sifatida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni olish mumkin:

- kompleks standartlashtirish ob’ekti bo‘la oladigan darajada iqtisodiy maqsadga muvofiq ishlab chiqarish hajmi;

- ish unumdorligini oshirishda samara beradigan mehnatni qayta taqsimlash, ilmiy tashkil qilish, ba’zi bir buyum va butlovchi elementlarni aloxida ajratilgan xolda ishlab chiqarish;

- sifatni va raqobatbardoshlikni oshishidan iqtisodiy samara beradigan ob’ektlar;

- konstrukturlik, texnologik va ekspluatsiya ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liqligidan iqtisodiy samara beradigan ob’ektlar.

Kompleks standartlashtirishning yuqori texnik-iqtisodiy samaradorligi eng muhim prinsiplarga rioya etilganda quyidagilar ta’minlanadi:

Tizimlilik – o‘zaro bog‘langan talablarni ob’ektning ham o‘ziga, ob’ektni yaratish va ishlatishda foydalaniladigan elementlarga ham o‘rnatish.

Komplekslik va maqbul cheklov – ob’ekt sifatiga ko‘plab elementlardan eng muhim ta’sir ko‘rsatuvchi va hal qiluvchi faktorlarni standartlashtirish kerak.

Istiqbollilik – oldinlovchi standartlarni yaratish.

Amaldagi me’yoriy hujjatlar bilan bog‘lash – me’yoriy hujjatlar mavjud joylardan maqsadga muvofiq hajmda foydalanish.

Realizatsiya (amalga oshirish) – standartlashtirish natijalarini joriy etish.

Kompleks tandartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish ko‘plab ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning harakatini muvofiqlashtirishga imkon beradigan kompleks standartlashtirish dasturlarini (KSD) ishlab chiqish va amalga oshirish bilan ta’minlanadi.

KSD mahsulotning eng muhim turlarini: tarmoqlararo qo'llash mahsulotlarini; bir turdag'i mahsulotning eng muhim turlarining guruhlarini qamrab oladi.

KSD tuzilishiga quyidagi bo'limlar kiradi: oxirgi mahsulot, oxirgi mahsulotning tarkibiy qismlari; xom-ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, butlovchi qismlar; xarid buyumlari; ishlab chiqarishning texnik vositalari; ishlab chiqarishni tayyorlash usullari va boshqalar.

### **3.3.1 Ilgarilanma standartlashtirish usuli va uning mohiyati**

Ilgarilanma standartlashtirish (IS) - an'anaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan oshuvchi talablarni belgilash bilan ob'ektni standartlashtirish.

Ilgarilanma standart ishlab chiqiilishida quyidagilarga e'tibor beriladi:

- 1) talablar, sifatning farqlangan hamda joriy etish muddatiga ega bo'lgan pog'onalari ko'rinishida belgilanadi;
- 2) standart, mahsulot hayotiy siklining oldingi bosqichida ishlab chiqiladi.

Ilgarilanma standartlashtirishga, odatda, mahsulotning texnik darajasi va sifatiga qo'yiladigan talablarning uchta pog'onasi belgilanadi:

- erta o'zlashtirilgan mahsulotning ehtiyojlarni qondiruvchi darajasi;
- ishlab chiqarishga qo'yilishi lozim bo'lgan va jahon darajasiga mos bo'lgan, qaytadan ishlab chiqilayotgan (zamonaviylashtirilayotgan) mahsulot darajasi;
- yuqori jahon darajasiga mos bo'lgan (yoki oshuvchi) daraja.

Oldinlovchi standart ishlab chiqarishni texnik tayyorlash davrida yoki oxirida ishlab chiqiladi. Shubhasiz, oldindan standartlashtirish ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bo'yicha erishilgan tavsiflar bilan tasdiqlangan holatda maqbul deb hisoblash kerak.

Ilgarilanma standartlashtirish – standartlashtirish ob'ektiga erishilgan me'yoriy talablarning yanada yuqoriroq darajasini, ya'ni bashoratlash (prognozlash) ga asosan kelajakda optimal bo'ladigan darajasini o'rnatish demakdir.

Keltirilgan tarifga binoan ilgarilanma standartlashtirish mahsulot, xizmat va barcha jarayonlarga talablarni va me'yirlarni vaqt bo'yicha avvalroq o'rnatib, provard natijada ularning sifatini yuqori texnik iqtisodiy samara beradigan darajada ta'minlash nazarda tutilishini maqsad qilib qo'yadi. Bu borada ilgarilanma standartlashtirish prognozlash asosida amaliy yechimni qabul qiladigan imkonli sohalardan biri hisoblanadi.

Ilgarilanma standartlashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarishni va mahsulot sifatining oshishini xolis va aniq yo‘nalishida rivojlanishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

Ilgarilanma standartlashtirish standartlari jumlasiga:

- mahsulot, xizmat, loyihalash, ishlab chiqish va boshqa jarayonlarda kuchga ega standartlashgan qoida va talablarni yanada optimal me’yorlarini belgilaydigan standartlar:

- kuchdagи standartlar faoliyatiga istiqbolliroq yangi ish usullarini joriy etishni taminlab, yanada optimalroq me’yorlar o‘rnatadigan standartlar:

- bir yoki faqat bir necha korxonalardagina o‘zlashtirilib o‘zining sifat ko‘rsatkichlari analoglaridan tubdan farq qiladigan loyiha va buyum ishlab chiqarish qoida va talablariga optimal me’yor o‘rnatadigan standartlar kiradi.

Ilgarilanma standartlashtirish mohiyatiga ko‘ra qo‘yidagicha tavsiflanadi.

### **1. Vaqt bo‘yicha o‘zish:**

– mahsulot tajriba namunasini yaratish bo‘yicha loyiha konstruktorlik ishlarining boshi:

- buyum ishlab chiqarish sanoatini texnik tayyorlashning boshi;
- mahsulotni yalpi ishlab chiqarishning boshi.

### **2. Tarqalish doirasida o‘zish:**

- korxona doirasida;
- davlat doirasida;
- mintaqा doirasida;
- global dunyo doirasida.

### **3. Standartlashgan mahsulotga nisbatan to‘la bo‘limgan o‘zish:**

- assortiment bo‘yicha;
- mahsulot belgilari bo‘yicha;
- yangi mahsulot elementlarining merosiy qabul qilishganliklari bo‘yicha;
- mahsulotning ko‘rsatkich va belgilari qiymati bo‘yicha.

Ilgarilanma standartlashtirishni bashoratlash (prognozlash) tadqiqot ob’ektining qonuniyatlari va metodlarini, umuman, standartlashtirishni xususan o‘rganadigan ilmiy faoliyatdir.

Standartlashtirish sohasida bashoratlashning maqsadi qo‘yidagilardan iborat:

- yaratilgan yoki yaratilajak yangilik barqarorligi ehtimolini o‘rganish;

- ishlab chiqarilgan mahsulot bilan yangilik o'rtasidagi bog'lanishni o'rghanish;
- standartlashtirish ob'ekti bo'la oladigan ilmiy-texnik daraja, ya'ni mahsulot sifatiga erishishni aniqlash;
- iste'mol va ishlab chiqarish hajmini aniqlash;
- sarf-xarajatni aniqlash;
- ekologiya ko'rsatkichlarini baholash.

Standartlashtirish sohasida bashoratlashning axborot manbalari qo'yidagilar:

- xalq xujaligi va soha taraqqiyotining uzoq muddatli bashoratlanishi;
  - sohalar bo'yicha bashoratlashlar;
  - uzoq va yaqin muddatga mahsulotning sifati va istemol darjasini bashoratlari;
  - iqtisodiyotning uzoq muddatli rejalar;
  - ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bo'yicha statistik ma'lumotlar;
  - tajriba na'munalarini sinash bo'yicha bayonnomalar;
  - patentlar, mualliflik guvohnomalari, lisenziyalar;
  - ijtimoiy so'rovlari natijalar;
  - standartlar, texnik shartlar;
- shu kabi boshqa ilmiy-texnik axborotlar.

Standartlashtirishning zamonaviy taraqqiyot holatida 100 dan ortiq har xil soha bo'yicha turli darajali ilmiy asosga ega prognozlash ilmiy texnik usullari mavjud bo'lib o'zuvchan standartlashtirishda keng tarqalganlari asosan qo'yidagilar:

- tadqiqotlanadigan ilmiy yoki texnik ob'ektni fan taraqqiyotining ma'lum yo'nalishlari haqida statistik ma'lumotga tayanadigan ekstropolyatsiyalash metodi;
- taraqqiyotning yangi yo'nalishlarida qo'llaniladigan evristik usullari;
- real jarayonga o'ta yaqinlashtirib istiqbollash, shu bilan birga o'ta murakkab bo'lgan modellashtirish usullari.

Ekstropolyatsiyalash - eng ko'p qo'llaniladigan va eng sodda bo'lish bilan birga samaradorligi yuqori emas, ko'p hollarda faqat qisqa vaqt oralig'idagi yaqin kelajakni prognozlashdagina yaroqlidir.

Evristik metodlar texnik vazifalarni rejorashtirish ayniqsa ularni tasdiqlash bosqichida ko'p qo'llaniladi.

Bu ikki usullar standartlar ta'sir doirasidan tashqariga chiqishni hisobga ololmaydi.

Modellashtirish usulining qo'llanish doirasi keng, imkoni ancha katta va istiqbolli bo'lib, abekt va jarayonlarni fizik, matematik, matematik-statistik va uyumli modellash bilan ancha uzoq muddatga prognozlash imkonini beradi.

Ilgarilanma standartlarni yaratish va yuritish. Bu xildagi standartlarni yaratish va kuchga kiritish qo'yidagi etap va bo'limlarni o'z ichiga oladi: tayyorlash; yaratish; kuchga kiritish.

Ilgarilanma standartlashtirishning tayyorlash etalonidagi ishlar mazmuni ma'lumot yig'ish, taraqqiyot yo'nalish istiqbolini tadqiqotlash, mahsulot sifatini tubdan o'zgartirish, mumkin bo'lgan omil va ko'rsatkichlarni taqsimlash orqali standartlashtirish istiqbollarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bu reja har tamonlama tahlil asosida o'zuvchan standartlashtirishga zarur ko'rsatkich yoki talablarni boshlashga yordam beradi.

Mazkur bosqichda buyum (mahsulot) taraqqiyot yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlarni toplash, tizimlashtirish asosida rivojlanish yo'nalishi qoidalarini belgilash, iqtisodiy samaradorlik imkoniyatlarni hisoblash, u yoki bu xilda qaror qabul qilish uchun mahsulot bo'yicha kuchdagi standartlar majmuasidan tajribalarni umumlashtirish imkoniyati yaratiladi.

O'zuvchan standartlarni yaratish etapidagi ishlar mazmuni standartni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlashdan iborat bo'lib, buyum yoki mahsulotning istiqbolli ko'rsatkichlarini har tamonlama asosli ravshda shu buyum va mahsulotlarning keljak taraqqiyotini ko'zlab me'yoriy hujjat barpo etishga qaratilgan bo'ladi.

Malum bir ishlab-chiqarish doirasida bunday ilgarilanma standartlarni amalda joriy etish oldingi jarayonlarda keljakni ko'ra bilgan sharoitlarda maxsus dastur va tadbirlar majmuida, rejalashtirilgan sharoitlarda olib borilishi va amalga oshirilishi zarur. Bunday yondashuv o'zuvchan standartlarni joriy etishni va bu asosda xalq-xo'jaligini boshqarishning tezkor boshqariluvini ta'minlaydi.

### **3.4. O'zbekiston davlat standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash davlat ro'yxatidan o'tkazish va yuritish**

O'z DSt 1.1-92 "O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi" standartiga binoan O'zbekiston Respublikasi standarti (bundan keyin - standart deb yuritiladi) standartlashtirish bo'yicha texnikaviy qo'mitalar, standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlari, vazirliklar, idoralar,

uyushmalar, konsernlar, davlat, shirkat, pudratchi, aksioner, qo'shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Standartni har xil tashkilotlar mutaxassislarining ishchi guruhlari tomonidan ishlab chiqishga yo'l qo'yiladi.

Standartning bir nechta tashkilot tomonidan ishlab chiqilishida yetakchi ishlab chiquvchi tashkilotlar (ijrochilar ro'yxatida birinchi o'rinda turadi) hamkorlikda ish bajaruvchi har bir tashkilot bilan ish ko'lamini va muddatlarini aniqlaydi.

Standart Respublika hududida kimga qarashli ekanligi va mulk shaklidan qat'iy nazar, standart ishlab chiqilgan tashkilotlarni iste'mol qiladigan va mahsulot ishlab chiqaradigan hamma korxona va tashkilotlar uchun majburiydir.

Standartga kiritiladigan o'zgarish asosiy standart uchun belgilangan tartibda majburiy kelishib olinishi, tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Standartlarning tuzilishi, mazmuni, bayon etilishi va rasmiy lashtirilishi davlat standartlashtirish tizimi standarti va davlatlararo standarti (GOST 1.5-85)ga muvofiq bajariladi.

Standartni ishlab chiqishda tashkiliy - usuliy birlikka erishish maqsadida hamda standartni ishlab chiqish bosqichlari bajarilishini nazorat qilish uchun 4 bosqich joriy etiladi.

1-bosqich - zaruriyat tug'ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

2-bosqich - standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish;

3-bosqich - fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish;

4-bosqich - standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini bir-biri bilan qo'shib olib borishga yo'l qo'yiladi.

### **3.4.1 Standartga texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash**

#### **1-bosqich:**

Texnik topshiriq me'yoriy hujjatni ishlab chiqish ishlarini bajarish bosqichlarini o'rnatish maqsadida buyurtmachi-tashkilot bnlan kelishilgan holda, ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan tuziladi. va odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- standartlaatirish ob'ekti va qo'llanish sohasi;
- standartning bo'limlari va standartda o'rnatiladigan asosiy talablar ro'yxati;

- standartni ishlab chiqish bosqichlari;
- standart bilan birga taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati;
- standart loyihasini kelishish lozim bo‘lgan boshqaruv idoralari va (yoki) korxonalar ro‘yxati;
- buyurtmachining boshqa talablari.

### **3.4.2 Standartlar loyihasini ishlab chiqish va muhokama uchun tarqatish**

#### **2 – bosqich:**

Standart loyihasi manfaatdor tashkilotlarning takliflari asosida va (yoki) tayyorlovchi-korxonalarining tashabbusi bilan ishlab chiqiladi.

Standartning loyihasini ishlab chigqish bilan bir vaqtida standart loyihasiga tushuntirish yozushi tuziladi va zarur bo‘lganda, standartni joriy etish bo‘yicha asosiy tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasining loyihasi (keyinchalik – asosiy tadbirlar rejasining loyihasi) ishlab chiqiladi. Standart loyihasi tushuntirish yozushi bilan birga va asosiy tadbirlar rejasining loyihasi bilan nus’hasi ko‘paytiriladi va fikr olish uchun quyidagi ro‘yxat bo‘yicha manfaatdor tashkilotlarga tarqatiladi:

- buyurtmachi-tashkilot (asosiy iste’molchi)ga yoki standartning loyihasini kelishish bo‘yicha tayanch tashkilot deb tayinlangan uning tashkilotlaridan biriga;
- standart loyihasida vakolatlariga qarashli talablar o‘rnatilgan bo‘lsa, davlat nazorati idoralariiga, sog‘liqni saqlash vazirligiga, atrof muhitni muhofazalash qo‘mitasiga;
- mahsulotning biriktirilgan turlari bo‘yicha standartlashtirish tayanch tashkilotlariga;
- standartni joriy etuvchi va joriy etilishini ta’minlovchi tashkilotlar va korxonalarga.

Korxona va tashkilotlar taqdim etilgan standart loyihasini ko‘rib chiqib, o‘z fikr-mulohazalarini yozadi va standartni ishlab chiquvchiga, standart loyihasini olgan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay jo‘natadi.

### **3.4.3 Kelgan fikr va mulohazalarini ko‘rib chiqish**

#### **3-bosqich:**

Ishlab chiquvchi-yetakchi tashkilot olingan fikr-mulohazalar asosida fikr-mulohazalar to‘g‘risida ma’lumot tuzadi.

Ishlab chiquvchi-yetakchi tashkilot va hamkor bajaruvchi tashkilotlar fikr-mulhazalar asosida standart loyihasining oxirgi tahririni ishlab chiqadi va tushuntirish yozuviga va asosiy tadbirlar rejasining loyihasiga aniqlik kiritadi.

Ishlab chiquvchi-tashkilot va boshqa manfaatdor tashkilotlar o‘rtasida standart loyihasi bo‘yicha kelishmovchilik bor bo‘lsa, ishlab chiquvchi tashkilot kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish bo‘yicha asosiy manfzatdor tashkilotlar vakillarining, shu jumladan standartning ko‘rilayotgan loyihasi bo‘yicha qaror qabul qilishga vakolatlangan buyurtmachilar (asosiy iste’molchilar)ning vakillari ishtirokida kelishuv majlisini o‘tkazadi.

Standart loyihasining aniqlik kiritilgan tahririning alohia moddalari bo‘yicha kelishmovchiliklar bor bo‘lsa, majlis bayonnomasida tashkilotlarning vakillari bu moddadar bo‘yicha aloxida fikrga ega, deb ko‘rsatiladi.

Majlisda qabul qilingan qarorlar asosida standart loyihasining oxirgi tahriri tuziladi, tushuntirish yozuvi va asosiy tadbirlar rejasining loyihasiga aniqlik kiritiladi.

Standart loyihasining oxirgi tahririni tasdiqlashga taqdim etish oldidan ishlab chiquvchi-tashkilot buyurtmachi-tashkilotga (asosiy iste’molchiga) kelishishlik uchun jo‘natadi.

Standart loyihasini kelishishlik standart loyihasi keltirilgan kundan boshlab ko‘pi bilan 15 kun muddat ichida amalga oshiriladi.

Yangi (takomillashtiriladigan) mahsulot yaratish bo‘yicha ishlar tarkibida olib boriladigan, standart loyihasini ishlab chiqishda standart loyihasini qabul komissiyasi, badiiy-texnik kengash (BTK), degustatsiya (sifatini aniqlash) komissiyasi va boshqalar, manfaatdor tashkilotlarning mas’ul vakillari ishtirokida kelishib oladi.

Standart loyihasining kelishilganligini tasdiqlovchi hujjat tajriba nus’haning qabul dalolatnomasi (BTK bayonnomasi) dan iborat bo‘ladi.

Standartga kiritiladigan o‘zgartirishlar, agar ilgari kelishishgan tashkilotlarning manfaatlariga ta’sir etmasa, faqat buyurtmachi (asosiy iste’molchi) bilan kelishib olinadi.

Standart loyihasining oxirgi tahririni tasdiqlashga taqdim etishda oldin tayanch tashkilot yoki o‘ziga biriktirilgan mahsulotga oid yoki faoliyat sohasida standartlashtirish bo‘yicha TQ standartni ilmiy-texnikaviy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi.

### **3.4.4 Standartning oxirgi loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashga berish 4-bosqich:**

Ishlab chiquvchi-tashkilot standart loyihasini tasdiqlashga quyidagi hujjatlar bilan birga taqdim etadi:

- ilova xati;
- standart loyihasining oxirgi tahririga tushuntirish yozuvi;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasi 4 nus'hada, bundan ikkitasi birinchi bo'lishi lozim;
- standart loyihasining kelishishganligini tasdiqlovchi asl hujjatlar;
- standart loyihasiga fikr-mulohazalar to'plami;
- kelishmovchiliklar to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- elektron versiya;

### **3.4.5 Standart loyihasini tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish**

Standartni tasdiqlagan idoraning qarori bilan standart tasdiqlanadi va amalga kiritiladi.

O'zstandart Agentligi standartni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Eksport uchun mo'ljallangan mahsulotga qo'shiylcha talablar davlat ro'yxatidan o'tkzzilmaydi.

Standart davlat ro'yxatiga 4 nus'hada taqdim etiladi: asliyat, ikkinchi nus'ha {dublikat} va ikkita nus'ha.

Standartning ikkinchi nus'hasi standart asliyatiga o'xshash bo'lishi va undan zarur sifatli nus'ha olishni ta'minlashi kerak.

Standart davlat ruyxatiga ikki tilda: davlat va rus tillarida taqdim etilishi lozim.

Standartga zarur bo'lganda kiritiladigan tuzatishlar qo'ldan qora tush, pasta, siyoh bilan aniq yozilishi, birinchi varaqning orqa betida izohlangan va rahbar (rahbar muovini) imzosi va ro'yxatdan o'tkazishga taqdim etgan idora (tashkilot) ning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Standart davlat ro'yxatidan ko'pi bilan 5 kun muddatda o'tkaziladi.

Standartni belgilash, standartni tasdiqlagan tashkilotdan qat'iy nazar, O'zstandart Agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Standart belgisi quyidegilardan iborat bo'ladi:

- hujjat indeksi – O'z DSt
- ro'yxatga olingan tartib raqami;

– ikki nuqta bilan ayirilgan tasdiqlash yilining to‘rtta raqami: masalan, O’z DSt 789:1997

Standart asliyati, ikkinchi nus’hasi va ikkita nus’hasining birinchi betlarida ro‘yxatga oluvchi idora ro‘yxatga olgan idora nomi, sana va davlat ro‘yxatidan o‘tgan nomeri ko‘rsatilgan shtamp bosadi.

Standartning ikkinchi nus’hasi va bir nus’ha O‘zstandart Agentligida qoladi.

Standart asliyati va nus’haning ikkinchisi ishlab chiquvchiga qaytariladi.

### **3.5 Me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar, ularning miqyosi va turlari**

Me’yoriy hujjatlarni tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar O’z DSt 1.6:2003 “O‘z SDT. Me’yoriy hujjatlar. Tuzish, bayon qilish, mundarija va rasmiylashtirishga talablar” davlat standarti tomonidan belgilangan. Standartda keltirilgan nizomlar tarmoq, ma’muriy-hududiy darajadagi me’yoriy hujjatlarning va korxona standartlarining tuzilishiga nisbatan majburiy emas, lekin MH ni rasmiylashtirishda birlilikka erishish uchun keltirilgan standartdagi nizomlarga amal qilish kerak.

#### **3.5.1 Me’yoriy hujjatlarning tuzilishi (strukturasi)ga talablar**

Me’yoriy hujjatlar tuzilishiga ko‘ra quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo‘lishi mumkin:

- sarvaraq;
- so‘z boshi;
- mundarija;
- kirish;
- nomi;
- qo‘llanish doirasi;
- me’yoriy havolalar;
- atamalar va ta’riflar;
- belgilar va qisqartmalar;
- talablar;
- ilovalar;
- bibliografik ma’lumotlar.

MH ga qo‘shish uchun “Sarvaraq” (titul varaq), “So‘z boshi”, “Mundarija”, “Nomi”, “Talablar” majburiydir.

Me'yoriy hujjatning sarvarag‘ida uning belgisi va nomi keltiriladi:

So‘z boshida mazkur hujjat to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar keltiriladi me'yoriy hujjatni ishlab chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish; ushbu me'yoriy hujjatning qaysi me'yoriy hujjat o‘rniga ishlab chiqilgani to‘g‘risida ma’lumot va b.

So‘z boshi sarvaraqdan keyingi betda uning orqa tomonida joylashtiriladi va tegishli sarlavhadan boshlanadi. Sarlavha betning yuqori qismida, o‘rtada, bosh harflar bilan yoziladi va quyuqroq shrift bilan ajratiladi.

Mundarija me'yoriy hujjat hajmi o‘n betdan oshgan hollarda yoziladi. Mundarijaga bo‘limlarning tartib raqamlari va nomi (zarur bo‘lganda kichik bo‘limlar nomi), ilovalar belgisi va sarlavhasi bilan, zarur bo‘lganda esa, grafik materiallar ham qaysi betda joylashganini ko‘rsatib yoziladi.

Standart mundarijasи so‘z boshidan keyin, odatda yangi betdan boshlanadi. “Mundarija” so‘zi betning o‘rta qismida bosh harflar bilan yoziladi.

Standartning nomi qisqa bo‘lishi, standartlashtirish ob’ektini aniq tavsiflashi va standartni standartlar axborot ko‘rsatkichiga kiritish uchun uning to‘g‘ri tasniflanishini ta’minlashi lozim. Standart nomida, odatda, qisqartmalar (mahsulotning shartli belgisidan tashqari), rim harflari, matematik belgilar, yunon harflari ruhsat etilmaydi.

Me'yoriy hujjatning nomi, odatda, sarlavha va kichik sarlavhadan iborat bo‘lishi lozim.

Masalan - Idish yuvish mashinalari. Umumiy texnik shartlar

Agar me'yoriy hujjat asos bo‘luvchi tashkiliy-metodik yoki umumtexnikaviy me'yoriy hujjatlar tizimidan iborat bo‘lgan me'yoriy hujjatlar majmuiga kiradigan bo‘lsa, bu holda me'yoriy hujjat sarlavhasidan oldinda barcha me'yoriy hujjatlar majmui uchun umumiy bo‘lgan va ushbu tizimning nomi hisoblangan sarlavhalar guruhi keltiriladi.

Misol – O‘zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Texnik reglament. Asosiy nizomlar.

Standartning “Qo‘llanish doirasi” uning qaysi doirada qo‘llanilishini va zarur bo‘lganda standartlashtirish ob’ektini aniqlash uchun keltiriladi, standartning birinchi betida joylashtiriladi va I bo‘lim ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Standartlashtirish ob’ektini aniqlashda quyidagi ifoda qo‘llaniladi: “Ushbu standart... qo‘llaniladi”. Standartning mazmunini ravshanlashtirishda “Ushbu standart... belgilaydi” ifodasi qo‘llaniladi. Standartning qo‘llanish doirasini aniqlashda “Ushbu standart... qo‘llaniladi” ifodasi qo‘llaniladi.

“Me’yoriy havolalar”, agar me’yoriy hujjatning matnida boshqa me’yoriy hujjatlarga me’yoriy havolalar va/yoki bir xil yoki yuqoriroq darajadagi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari 2 bo‘lim ko‘rinishida berilgan bo‘lsa, keltiriladi. havolada havola qilingan me’yoriy hujjatlarning ro‘yxati, ularning belgisi va nomi keltiriladi. Bular belgilarning ro‘yxatga olingan raqamlarining oshib boruvchi tartibida joylashtiriladi. havolalar quyidagi tartibda bayon etiladi:

- davlatlararo standartlar;
- O‘zbekiston davlat standartlari;
- tarmoq standartlari;
- ma’muriy-hududiy standartlar;
- texnik shartlar;
- korxona standartlari.

“Atamalar va ta’riflar” bo‘limi standartda foydalaniladigan atamalarni aniqlash va belgilash uchun ta’rifni o‘z ichiga oladi. Ta’riflar ro‘yxati “Mazkur standartda quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi” so‘zlar bilan boshlanadi.

Standartlashtirish ob’ektlariga talablar, ob’ektlarning o‘ziga xos hususiyatlariga qarab, standartlarning quyidagi turlarida: asos bo‘luvchi standartlarda, mahsulot (xizmatlar)ga standartlarda, tekshirish metodlari standartlarida, jarayonlarga standartlarda belgilanadi.

Standart nizomlarini to‘ldiruvchi materialni ilovada joylashtirish ruxsat etiladi.

Standartda bibliografik ma’lumotlar keltiriladi. Bular alohida varaqda, barcha ilovalardan keyin joylashtiriladi. Sgandartning bibliografik ma’lumotlarida:

- standartlar tasniflagichi bo‘yicha guruh belgisi;
- muhim so‘zlar bo‘ladi.

### **3.5.2 Me’yoriy hujjatni bayon qilishga talablar**

Standartning o‘ziga xos xususiyatlariga va mazmuniga qarab, talablar matn, jadvallar, grafiq material (rasmlar, sxemalar, diagrammalar) yoki bularning birikmasi ko‘rinishida bayon qilinadi. Standart matni turlicha izohlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan, qisqa, aniq, standartning qo‘llashish doirasiga muvofiq uni qo‘llanish uchun zarur va yetarli, mantiqiy izchil bo‘lishi lozim. Standartga faqat ob’ektiv metodlar bilan tekshirish mumkin bo‘lgan tafsilotlar va talablarni kiritish lozim. Standartda amaldagi standartlarda belgilangan atamalar, ta’riflar, belgilar va qisqartmalarni qo‘llanish kerak. Kattaliklarning eng katta yoki eng kichik matlarini keltirganda “ko‘pi bilan (kamida)” iboralarini qo‘llanish lozim. Standartda ko‘rsatilgan me’yorlar, talablardan

og‘ishlarning joiz qiymatlarini keltirishda “dan ko‘p (kam) bo‘lmasligi kerak” iborasini qo‘llash kerak.

Standartda o‘rnataladigan kattalikkarning son qiymatlari chekka og‘ishlari bilan yoki eng katta (yoki) eng kichik qiymatlar ko‘rinishida ko‘rsatilishi lozim. Son qiymatlarini foizlarda ko‘rsatishda quyidagicha: “... 63% dan 67% gacha” yoki “(65+2%) emas, balki ” (65+2)% yozish kerak. Rim harflaridan faqat buyumning navini (toifasi, sinfi va b.) kimyoviy elementlarning valentligini, yilning kvartallarini, yarim yillikni belgilamaqdida qo‘llanish kerak. Qolgan hollarda arab raqamlari qo‘llaniladi.

Hisob birliklari va fizik kattaliklar birliklarining belgilari jadvallarda, formulalarga kiradigan simvollar va sonli koeffitsientlarni tushuntirishda va matnda, faqat sonli qiymatlarda qo‘llaniladi va nuqtasiz yoziladi. Standartda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

- so‘zlashuv iboralarini, texnitsizm va kasbiylikni qo‘llanish;
- bir tushunchaning o‘ziga ma’nosи jihatdan yaqin turli ilmiy-texnikaviy atamalar (sinonimlar) ni, shuningdek o‘zbek va rus tillarida teng ma’noli so‘zlar va atamalar mavjud bo‘lgani holda chet so‘zlar va atamalarni qo‘llanish;
- ixtiyoriy yasama so‘zlarni qo‘llanish;
- rus orfografiyasida belgilanganlardan boshqa qisqartma so‘zlarni qo‘llanish.

Standart matnini bo‘limlarga ajratish kerak. Bo‘limlar moddalar (punktlar) ga yoki kichik bo‘limlar va moddalarga ajratilishi mumkin. Moddalar, zarur bo‘lganda, kichik moddalarda bo‘linishi mumkin. Standart matnini moddalarga va kichik moddalarga bo‘lishda har bir modda, kichik modda tugal axborotni o‘z ichiga olishi zarur. Bo‘limlar, kichik bo‘limlar, moddalar va kichik moddalarni arab raqamlari bilan belgilash va abzasdan satr boshidan yozish kerak. Bo‘limlar me’yoriy hujjatdagi asosiy qismning butun matni doirasida (ilovalar bundan mustasno) tartib raqamlari bilan belgilanadi.

Sarlavhalar bo‘limlar, kichik bo‘limlarning mazmunini aniq va kisqa aks ettirishi lozim. Bo‘limlar, kichik bo‘limlar va moddalarning sarlavhalarini bosh harflar bilan oxiriga nuqta qo‘ymasdan, abzasdan boshlab yozish kerak. Moddalar yoki kichik moddalar ichida sanab ko‘rsatishlar bo‘lishi mumkin. Sanab ko‘rsatilgan har bir satr oldida defis yoki, zarur bo‘lganda, standartning matnida sanab o‘tilganlarning biriga havola qilishda kichik satr harflarini qo‘yish kerak. Kichik harfdan keyin qavs qo‘yiladi. Sanab o‘tilganlarni keyinchalik ravshanlashtirish uchun arab raqamlaridan foydalanish zarur, bu raqamlardan keyin qavs qo‘yiladi. Jadvallar

ko‘rsatkichlarning yaqqol ifodalanishi va taqqoslashning bo‘lishi uchun qo‘llaniladi. Jadval nomini jadval ustida joylashtirish lozim. Jadvalning bir qismini shu betning o‘zida yoki boshqa betga ko‘chirishda jadval nomi uning faqat birinchi qismi ustida joylashtiriladi.

Grafik material – rasmlar (sxemalar, diagrammalar va h.k.) standartga ob’ektning xossalari yoki tafsilotlarini yaxshi belgilash, shuningdek standart matnini yaxshi tushunish uchun joylashtiriladi. Standart matnida grafik materialga havola berilgan bo‘lishi kerak. Grafik material o‘zi to‘g‘risida birinchi marta eslatilgan matndan keyin bevosita yoki keyingi betda, zarur bo‘lganda esa ilovada joylashtirilishi lozim. Matnda joylashtiriladigan rasmlar, sxemalar, diagrammalar va h.k. KHYaT standartlarining talablariga muvofiq bo‘lishi lozim. Standartda grafik materialni to‘ldiruvchi jadvallar mavjud bo‘lsa, jadvallarni grafik materialdan keyin joylashtirish lozim. Grafik materialning biror mavzuga bag‘ishlangan nomi bo‘lishi mumkin, bu nomi grafik material tagida quyidagicha joylashtiriladi:

#### 1-rasm – Asbobning detallari.

Ilovada joylashtirilgan formulalardan mustasno, matndagi formulalar arab raqamlari bilan belgilanishi lozim. Raqamlar formula sathida o‘ng tomonda ikki tomonlama qavs ichida yoziladi. Bir formula quyidagicha belgilanadi – (1). Matnda formulaning tartib raqamiga havolalar qavslar ichida beriladi.

Standartda quyidagi havolalar beriladi:

- ushbu standartga;
- boshqa standartlarga.

Ushbu standartga havolalarda bo‘limlar, kichik bo‘limlar, moddalar, kichik moddalar, sanab ko‘rsatilganlar, grafik material, formulalar, jadvallar, ilovalar (shu jumladan, uning bo‘limlari, kichik bo‘limlari, moddalari, kichik moddalari va jadvallari), shuningdek ushbu standartdagi jadvallarning grafalari va satrlari va rasmdagi buyum tarkibiy qismlarining pozitsiyalari ko‘rsatiladi. Havolalarda quyidagilar yoziladi “ 2 - bo‘limga muvofiq ...”, “3.1 ga muvofiq...”, 3.1.1 bo‘yicha ...”, “4.2.2 ga muvofiq, sanab ko‘rsatilgan b...”, A.2-rasmga muvofiq ...”, (5-rasm), “(3) formula bo‘yicha ...”, “1-jadvalga muvofiq...”(4-jadval) “A ilovaga muvofiq...” (G ilova) va h.k.

Agar matn, jadvallar yoki grafik materialning mazmuniga tushuntiruvchi yoki ma’lumotnomasi ma’lumotlari zarur bo‘lsa, standartlarda izohlar keltiriladi.

Standartda keltirilgan alohida ma’lumotlarni tushuntirish zarur bo‘lsa, bu ma’lumotlarni sahifa ostiga yozuv belgisi bilan belgilab qo‘yish lozim. Sahifa ostiga

yoziladigan izoh ushbu belgi qo'yilgan bet oxirida joylashtiriladi va matndan ingichka gorizontal chiziq bilan chap tomonda ajratiladi, jadvalda joylashgan ma'lumotlarga izoh esa, jadval oxirida, jadvalning tugallanganligini ifodalovchi chiziq ustida yoziladi. Sahifa ostiga yozuv belgisi tushuntirish beriladigan so'z, son, simvol, jumladan keyin satr ustida va tushuntirish matnidan oldinda qo'yiladi.

Sahifa ostiga yozuv belgisi qavslı arab raqamlari bilan yoziladi va matn shriftining yuqori chetiga teng sathda joylashtiriladi.

Standartda quyidagi qisqartmalar ruxsat etiladi: raqamlar bilan b.-bet; y. - yil; yy. - yillar; min. - minimal; maks. - maksimal; abs. - absolyut; nis. - nisbiy qisqartmalar, shuningdek umumqabul qilingan qisqartmalar, ya'ni h.k. - hokazo; va b. - va boshqalar; q. – qarang, nomin, - nominal qisqartmalar.

Standartda kattaliklarning standartlashtirilgan birliklari, nomlari va belgilarini qo'llanish kerak.

### **3.5.3 Me'yoriy hujjatni rasmiylashtirilishiga talablar**

Bo'lim (kichik bo'lim) sarlavhalari va oldingi yoki keyingi matn orasidagi masofa, shuningdek bo'lim va kichik bo'lim sarlavhalari orasidagi masofa kamida to'rtta shrift balandligiga teng bo'lishi lozim.

Kichik bo'limlar va moddalar sarlavxalarining qatorlari orasi matn ichidagidek qabul qilinadi.

Satr boshi hujjat matnida bir xil chetlashtirilgan va beshta belgiga teng bo'lishi lozim.

Me'yoriy hujjatning loyihasini rasmiylashtirishda matnning chap tomoni (kengligi) dagi ochiq joy kengligi kamida 20 mm bo'lishi kerak.

Standart loyihasining matnini tayyorlashda yunon va boshqa alfavit harflari, formulalar, alohida shartli belgilarni qora pasta yoki tush bilan yozish ruxsat etiladi. Bunda kiritilgan matn zichligi qolgan matn zichligiga yaqinlashtirilgan bo'lishi lozim. Agar chizmalar, sxemalar, diagrammalar, rasmlar va/yoki boshqa grafik materialni mashina usulida tayyorlash iloji bo'lmasa, bu holda qora tush yoki pastadan foydalaniladi

Me'yoriy hujjat loyihasini tayyorlashda uning nus'hasini reprografiya usulida sifatli qilib tayyorlash imkonii ta'minlanishi lozim.

Standartlar rasmiy ravishda davlat va rus tillarida nashr qilinadi.

### **3.5.4 Me'yoriy hujjatni mazmuniga talablar**

Standartlashtirish ob'ektlarining o'ziga xos xususiyatlariga va mazmuniga qarab, quyidagi turdag'i me'yoriy xujjatlar ishlab chiqiladi:

- asos bo'luvchi (tashkiliy-metodik va umumtexnikaviy);
- mahsulot(xizmatlar)ga.

Asos bo'luvchi tashkiliy-metodik standartlar:

– turli vazifalarga mo'ljallangan standartlashtirish ob'ektlarining maqsadlari, vazifalari, tasniflanish tuzilmasini, faoliyatning ma'lum doirasida ishlarni o'tkazish bo'iicha umumiylashuvchi tashkiliy-texnik nizomlarni va b.;

– me'yoriy xujjatlarni, texnik (konstruktorlik, texnologik, loyihibaviy, dasturiy) xujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy tartibi (qoidalari)ni o'rnatadi.

Asos bo'luvchi umumtexnik standartlar:

– fan, texnika, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, qurilishda, transportda, madaniyatda, sog'liqni saqlash va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ko'p qayta-qayta foydalaniladigan ilmiy-texnikaviy atamalarni va ularning ta'riflarini;

– turli standartlashtirish ob'ektlari uchun shartli belgilar (nomi, kodlari, belgilari, simvollari va h.k.), ularning raqamlari, harf-raqamlari belgilarini, shu jumladan fizik kattaliklar parametrlarining belgilarini (rus, lotin, yunon harflari), ularning o'lchamliligi, yozuv o'mida ishlatiladigan simvollarni va h.k.;

– turli (me'yoriy, konstruktorlik, loyihibaviy, texnologik, dasturiy va b.) hujjatlarni tuzish, bayon etish, rasmiylashtirish va mazmuniga talablarni;

– ishlab chiqarish jarayonlarini texnikaviy, shu jumladan metrologik ta'minlash uchun zarur bo'lgan umumtexnik kattaliklar, talablarni va me'yorlarni o'rnatadi.

Mahsulotga, xizmatlarga quyidagilar ishlab chiqiladi:

– bir turli mahsulot, xizmatlarning guruhlariga umumiylashuvchi talablarni o'z ichiga olgan umumiylashuvchi talablarni, sinash usullari, umumtexnik shartlar standartlari;

– muayyan mahsulot, xizmatlar (muayyan mahsulot, xizmatlar guruhi) ga talablarni o'z ichiga olgan texnik shartlar standartlari.

Mahsulot, xizmatlar guruhiga alohida talablarni standartlaitirish maqsadga muvofiq bo'lganda tasnifini, asosiy parametrlari (yoki) o'lchamlari, xavfsizlik talablari, atrof muhitni muhofaza qilish talablari, xillari, navlari, rusumlari, qabul qilish, tamg'alash, joylash qoidalari, tashish qoidalari, saqlash qoidalari, foydalanish, ta'mirlash va qayta foydalanish qoidalari o'rnatuvchi standartlar ishlab chiqilishi mumkin.

Umumiy texnik shartlar standartlari umumiy holda quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

- tasniflash, asosiy parametrlar va (yoki) o‘lchamlar;
- umumiy texnikaviy talablar;
- xavfsizlik talablari;
- atrof muhitni muhofazalash talablari;
- qabul qilish qoidalari;
- tekshirish usullari;
- tashish va saqlash;
- foydalanish (ta’mirlash, qayta foydalanish) bo‘yicha ko‘rsatmalar;
- tayyorlovchining kafolatlari.

Bo‘limlar (kichik bo‘limlar) ning nomenklaturasi, tarkibi, mazmuni, va nomi standartlashtiriladigan mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlariga va unga qo‘yiladigan talablarning xarakteriga muvofiq aniqlanadi.

Ishlab chiqarilganda va foydalanilganda fuqarolarning sog‘ligi va mulkiga, shuningdek atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan mahsulotga standartlar tarkibida majburiy ravishda “Xavfsizlik talablari” va “Atrof muhitni muhofazalash talablari” bo‘limlari bo‘lishi shart.

“Tasniflash, asosiy parametrlari va (yoki) o‘lchamlari” bo‘limida mahsulotning turini, navini, rusumini, modelini va h.k. ni tavsiflovchi parametrlar va (yoki) o‘lchamlar o‘rnataladi va, zarur bo‘lganda, mahsulotning asosiy parametrlari va (yoki) o‘lchamlari bo‘yicha tasniflangan nomenklaturasi (navi), kimyoviy tarkibi bo‘yicha, ba’zi hollarda esa, shuningdek asosiy iste’mol (foydalanish) tafsilotlari bo‘yicha ham tasniflangan materiallar (xom ashyo) rusumlarining nomenklaturasi o‘rnataladi. Bo‘limda materiallarning qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyanomalarini, ularga ishlov berish rejimlari va h.k. larni keltirish ruxsat etiladi.

“Umumiy texnikaviy talablar” bo‘limida quyidagi kichik bo‘limlar bo‘ladi:

- tafsilotlar (xossalari);
- xom ashyo, materiallar, sotib olinadigan buyumlarga talablar;
- butligi;
- belgilanishi;
- joylash.

“Tafsilotlar (xossalari)” kichik bo‘limda quyidagi talablar keltiriladi:

- vazifasi;
- puxtaligi (ishonchliligi);

- radioelektron himoya;
- tashqi ta'sirlarga qarshi chidamliligi va yashovchanligi;
- ergonomika;
- xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish;
- texnologiyabopligi;
- konstruktiv talablar.

“Vazifa talablari” moddasida mahsulotning xossalarni tavsiflovchi talablar o’rnataladi. Bunday talablar mahsulot bajarishi lozim bo’lgan asosiy vazifalarni belgilaydi. Bu moddada, shuningdek tannarx va o’zaro almashinuvchanlik talablari ham o’rnataladi.

“Puxtalik (ishonchlilik) talablari” moddasida mahsulotning o‘z vazifalarini belgilangan vaqt oralig‘ida topshiriqdagi samaradorlik bilan bajarishiga va bu vazifalarning berilgan texnik xizmat ko‘rsatish sharoitlarida, ta’mirlash, saqlash, tashishda saqlanib qolishiga talablar, shu jumladan mahsulotning puxtalik ko‘rsatkichi va yoki mahsulotning buzilmasligi, umrboqiyligi ko‘pga chidamliligi, ta’mirlashga yaroqliligi va saqlanuvchanligi ko‘rsatkichlarining qiymatlari ko‘rinishidagi miqdoriy talablar o’rnataladi.

Ma’lum vaqt o’tgandan keyin foydalanish odamlarning hayoti, sog‘ligiga, atrof muhitga xavf solishi yoki fuqarolarning mulkiga zarar keltirishi mumkin bo’lgan mahsulotga xizmat muddati o’rnatalishi lozim.

“Ergonomika talablari” moddasida mahsulot texnik tafsilotlarini odamning ergonomik tafsilotlari va xossalari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan talablar, (xizmat ko‘rsatuvchi xodimning ish joylariga, buyumning va buyum elementlarining odam tanasining o‘lchamlariga muvofiqligi talablari va h.k.) o’rnataladi.

“Xom ashyo, materiallar, sotib olinadigan buyumlarga talablar” kichik bo‘limda quyidagilar o’rnataladi:

- sotib olinadigan buyumlar, suyuqliklar, moylar, bo‘yoqlar va materiallar (mahsulotlar, moddalar) ni qo‘llanish;
- qo‘llanish va (yoki) qo‘llaniladigan materiallarni cheklash, ularni hisobga olish tartibi;
- ikkilamchi xom ashyo va sanoat ishlab chiqarishidagi chiqindilarni qo‘llanish.

“Butligi” kichik bo‘limda yetkazib beriladigan komplektga kirgan buyumning alohida (yetkazib berishda mexanikaviy birlashtirilmagan) tarkibiy qismlar, ularga

ehtiyyot qismlar, asboblar va moslamalar, materiallar va h.k., shuningdek buyumga qo'shib yuboriladigan xujjatlar aniqlanadi.

"Tamg'alash" kichik bo'limda mahsulotni tamg'alashga, shu jumladan transport tamg'asiga quyidagi talablar o'rnatiladi:

– tamg'a bosish joyi (bevosita mahsulotga, yorliqlarda, etiketkalarda, idishda va h.k. da);

– tamg'ani bosish usuli (o'yma naqsh tushirish, xurushlash);

– tamg'aning mazmuni.

"Xavfsizlik talablari" bo'limida quyidagilar o'rnatiladi:

– elektr xavfsizligi talablari;

– yong'in xavfsizligi talablari;

– portlash xavfsizligi talablari;

– radiatsion (nurlanish) xavfsizligi;

– kimyoviy va iflos qiluvchi moddalarning ta'siridan xavfsizlik talablari, shu jumladan modda va uning tarkibiy qismlarining eng ko'p ruxsat etilgan konsentratsiyasiga talablar;

– mashinalar va jihozlarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlik talablari, shu jumladan xizmat ko'rsatuvchi xodim noto'g'ri harakat qilgandagi va o'zidan-o'zi noto'g'ri ishlab ketgandagi xavfsizlik talablari va boshqalar.

Xavfsizlik talablari joiz xavflikning barcha turlarini va me'yorlarini o'z ichiga olishi va mahsulotning xizmat (yaroqlilik) muddati davomida mahsulot (ishlar, mollar, xizmatlar) ning xavfsizligi ta'minlanadigan darajada o'rnatilishi lozim.

"Atrof muhitni muhofazalash talablari" bo'limida ekologik jihatdan xavfli mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va ishlatish (qo'llanish) va qayta foydalanishda atrof tabiiy muhitga, odamning sog'ligiga, genetik fondiga zararning oldini olish uchun ekologik talablar o'rnatiladi.

"Qabul qilish qoidalari" bo'limida mahsulotlarni ularning sifati va soni bo'yicha qabul qilishga talablar, tekshirish rejasi, shuningdek, sinovlarning turi va, ziar bo'lganda, dasturlari belgilanadi.

"Tekshirish metodlari" bo'limida mahsulotning standartda bayon etilgan talablarga muvofiqligini tekshirish (sinashlar, o'lchashlar, tahlil) yo'llari, usullari, tartibotlari o'rnatiladi.

"Tashish va saqlash" bo'limida mahsulotni tashish va saqlashda uning saqlanuvchanligini ta'minlash, shu jumladan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha talablar o'rnatiladi. Bo'limda transport turlari (havo, temir yo'l, dengiz, avtomobil

transportlari) va tashish vositalari (yopiq yoki ochiq vagonlar, refrijeratorli vagonlar, sisternalar, kemalarning tryumlari-yuk saqlanadigan ostki xonalari yoki palubalar va h.k.), mahsulotni bu vositalarda mahkamlab va ustini berkitib qo'yish usullari, shuningdek, mahsulotni hammabop, ixtisoslashtirilgan konteynerlarda, ixtisoslashtirilgan transport bilan va paketlarda tashishga oid talablar, konteynerda mahsulot joylari soni (massasi), paketlarning gabarit o'lchamlari, paketdagi joylar soni, paketlarni joylashtirish tartibi va h.k. ko'rsatiladi.

Saqlash qoidalari quyidagi tartibda bayon qilinadi:

- saqlash joyi;
- saqlash sharoitlari;
- tahlash sharoitlari;
- saqlashning maxsus qoidalari va muddatlari (zarur bo'lganda).

"Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar" (ta'mirlash, qayta foydalanishga oid ko'rsatmalar) bo'limida rioya qilinganda mahsulotning ma'lum sharoitlarda va tartibotlarda ish qobiliyatini va xavfsizligini ta'minlaydigan va iste'mol (foydalanish) tafsilotlarini kafolatlaydigan talablar o'rnatiladi. Bo'limda buyumni foydalanishga tayyorlash va kiritishga talablar, buyumni foydalanish joyida o'rnatish tartibi, shuningdek texnik tafsilotlariga muvofiq ish imkoniyatlarini va xavfsizligini saqlash uchun buyumlardan foydalanish asosiy me'yorlari va qoidalari, shu jumladan uzluksiz va siklik ishslash vaqtiga, texnik xizmat ko'rsatishlarning turlari (kalendor kunlar, bajarilgan ishlar hajmi, texnik holati bo'yicha va b.), davriyligi va hajmi ko'rsatiladi. Mahsulotdan foydalanish, unga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha talablar mahsulotni sertifikatlashtirish uchun yaroqli bo'lishi lozim.

"Tayyorlovchining kafolatlari" bo'limida mahsulotni tayyorlovchi (yetkazib beruvchi, xizmatlarni bajaruvchi) ning chiqariladigan shu jumladan ta'mirlangan mahsulot (xizmatlar) ning standart talablariga muvofiqligini kafolatlash majburiyatları ko'rsatiladi, shuningdek, kafolat turi, davom etish muddati va kafolatning boshlanish paytini hisoblash ko'rsatiladi. Butlovchi buyumlarga va tarkibiy qismlarga foydalanishning kafolatlangan muddati asosiy buyumni kafolatlash muddatiga teng hisoblanadi, kafolatlash muddati yetkazib berishga tuzilgan shartnomalar bilan ham belgilanadi. Asosiy buyumga standartdarda butlovchi buyumlarga va tarkibiy qismlarga asosiy buyumlarnikidan ko'proq yoki kamroq kafolat muddatini o'rnatish ruxsat etiladi.

Mahsulotga standartlarda va (yoki) tekshirish metodlariga standartlarda o'rnatiladigan tekshirish (sinash, o'lhash, tahlil) metodlari mahsulotga standartlarda

o'rnatilgan sifatga majburiy talablarning barchasini holis (ob'ektiv) tekshirilishini ta'minlashi lozim. Tekshirish (sinash, o'lchash, tahlil) metodlari ob'ektiv, aniq ifodalangan, ravshan bo'lishi, tartibini va natijalarning takrorlanuvchanligini ta'minlashi lozim, har bir metod uchun, tekshirishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, quyidagilar belgilanadi:

- tekshirish vositalari va yordamchi qurilmalar;
- tekpshirishni o'tkazishga tayyorlanish tartibi;
- tekshirishni o'tkazish tartibi;
- tekshirish natijalariga ishlov berish qoidalari;
- tekshirish natijalarini rasmiylashtirish qoidalari;
- tekshirishdagi joiz (ruxsat etilgan) xatolik.

Tekshirishni o'tkazishga tayyorlanish tartibini bayon etishda mahsulotni tekshirishga tayyorlannshga tegishli ma'lumotlar, shuningdek namunalar (kichik namunalar) ni olish joyi va usuli, shakli, turi, o'lchamlari yoki massasi ko'rsatiladi, zarur bo'lganda, ularni saqlash va yoki tashish sharoitlari ham ko'rsatiladi. Zarur bo'lganda, o'lchash uskunasining tuzilish va ishslash sxemasi, shuningdek priborlar yoki apparatlarni ulash sxemalari ham keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish metodikasiga talablarni bayon etishda tekshirish sharoitlarining tavsiflari ularning joiz qiymatlarini va qayta tiklashdagi xatoliklarni qo'shib ko'rsatiladi, shuningdek agar tekshirish ishlarii o'tkazish tartibi tekshirish natijalariga ta'sir etadigan bo'lsa, bu tartib va o'tkaziladigan ishlar bayoni ham keltiriladi.

Tekshirish natijalariga ishlov berish qoidalari bayon etishda hisoblash formulalari keltiriladi.

Tekshirish natijalarini rasmiylashtirishga talablarni bayon etishda tekshirish jurnallari (bayonnomalari) ga, bularga kiritiladigan ma'lumotlarning mazmuni va tartibiga talablar o'rnatiladi.

Tekshirish metodining aniqligiga talablarni bayon etishda metodning ruxsat etilgan xatoliklari, hisoblashlarning to'g'riliqi va ma'lumotlarni (sonlarni) yiriklashtirish darajasi ko'rsatiladi, shuningdek ushbu metod bilan ta'minlanadigan natijalarning qayta tiklanuvchanligi va takrorlanuvchanligi to'g'risida ham ma'lumotlar keltiriladi.

Jarayonlarga standartlar mahsulot (xizmatlarni ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va qayta foydalanish texnologik jarayonlarida har xil ishlarni bajarish metodlari (usullari, yo'llari, tartibotlari,

meyorlari) ga talablarni o'rnatadi. Bu talablar bajariladigan barcha ishlarning texnikaviy birlilagini va maqbulligini ta'minlashi lozim.

### **3.6 Standartni joriy etish tartibi, uni tekshirish, qayta ko'rib chiqish va unga tuzatishlar kiritish.**

#### **Standartni joriy etish uchun tadbirlar rejasini tuzish**

Me'yoriy hujjatda, o'zining qo'llanish doirasiga muvofiq, o'rnatilgan talablarning bajarilishini ta'minlaydigan tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish, boshqacha gapirganda, me'yoriy hujjatni joriy etish uni amalga kiritish sanasigacha tugallangan bo'lishi lozim. Ya'ni meyoriy hujjat yuridik kuchga ega va unga rioya qilish majburiy bo'lgan sanagacha joriy etilgan bo'lishi lozim.

##### **3.6.1 Standartni joriy etish (qo'llash)**

Me'yoriy hujjatni joriy etish O'z DSt 1.14:1999 "O'z SDT. Me'yoriy hujjatlarni joriy qilish tartibi" davlat standartining talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Me'yoriy hujjat, agar unda o'rnatilgan talablarga rioya qilinsa, joriy qilingan deb xisoblanadi. Bundan quyidagi muhim xulosa chiqadi: agar me'yoriy hujjat amalga kiritilgan sanadan keyin mahsulot (xizmatlar, jarayonlar, ishlarni) o'rnatilgan talablarga muvofiq kelmasa, me'yoriy hujjatga rioya qilinmagan deb hisoblanadi. Bunday holda tadbirkor sub'ekt qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Me'yoriy hujjat loyihasini manfaatdor tashkilotlar ishtirokida ishlab chiqish bilan bir vaqtida me'yoriy hujjatning joriy etilishini ta'minlovchi asosiy tadbirlar rejasining loyihasi ham ishlab chiqiladi. Tadbirlar rejasining loyihasi bajaruvchilar va manfaatdor tashkilotlar bilan kelishiladi. Tadbirlar rejasining oxirgi tahriri va tasdiqlangan me'yoriy hujjat bajaruvchilarga va manfaatdor tashkilotlarga jo'natiladi.

Bular asosiy tadbirlar rejasini asosida bajaruvchilar (kichik bo'limlar, xizmatlar, bo'linmalar, sexlar va b.) ga muayyan topshiriqlar ko'rsatilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Me'yoriy hujjatlarni joriy qilish bo'yicha ishlarning tugallanganligi tadbirkor sub'ekt komissiyasi tomonidan buyurtmachi (asosiy iste'molchi) ishtirokida joriy qilinganlik to'g'risida dalolatnomaga tuzib rasmiylashtiradi. Me'yoriy hujjatning joriy qilinganligini xizmat xati, yoki me'yoriy va texnik hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish bilan rasmiylashtirish ruxsat etiladi.

### **3.6.2 Standartni tekshirish, qayta ko‘rib chiqish, unga tuzatmalar kiritish**

Me’yoriy hujjatni tekshirish, qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirishlar kiritish O’z DSt 1.5:1993 “O‘z SDT. Me’yoriy hujjatlarni tekshirish, qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi” ga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘z SDT ning talablariga muvofiq, mahsulot (xizmatlar, jarayonlar, ishlar) ga me’yoriy hujjatlar odatda, besh yil amal muddatiga tasdiqlanadi. Amal muddati o‘tgan me’yoriy hujjat bekor qilingan bo‘ladi. Me’yoriy hujjat amal muddati tugallangandan keyin uning amal muddatini cho‘zish mumkinligini aniqlash, qayta ko‘rib chiqish, bekor qilish yoki me’yoriy hujjatga o‘zgartirishlar kiritish lozimligini aniqlash maqsadida tekshirilishi lozim.

Me’yoriy hujjatni qayta ko‘rib chiqish amaldagining o‘rniga yangi me’yoriy hujjatni ishlab chiqish, uning mazmunini o‘zgartirish, qisman o‘zgartirish (almashtirish), talablarni chiqarib tashlash yoki qo‘srimcha kiritish, shuningdek, me’yoriy hujjatning amal muddatini cho‘zish, cheklash yoki amal muddatining cheklanishini olib tashlash, amal muddatini to‘xtatishni bekor qilishdan iborat bo‘ladi.

Tekshirishdan maqsad me’yoriy hujjatni qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish yoki bekor qilish bo‘yicha asosli takliflarni ishlab chiqish uchun mahsulot tafsilotlarining ushbu mahsulotga xalqaro, hududiy, xorijiy me’yoriy hujjatlarning talablariga, shuningdek iste’molchining talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Tekshirish standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita (TQ), standartlashtirish bo‘yicha tayanch tashkilotlar (STT), korxonalar, ishlab chiquvchi tashkilotlar tarkibidan tuzilgan komissiya, zarur bo‘lganda, buyurtmachi (asosiy iste’molchi) va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar ishtirokida amalga oshiriladi.

Tekshiruvda me’yoriy hujjat ko‘rsatkichlari (tafsilotlari) ning quyidagilarga muvofiqligi aniqlanadi:

- amaldagi qonunlarga, standartlashtirish davlat tizimiga va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi;
- xalqaro va hududiy me’yoriy hujjatlarga;
- iste’molchining talablariga.

Me’yoriy hujjatni tekshirishda uning ilmiy-texnik darajasi baholanadi.

Tekshiruv natijalari bo‘yicha ixtiyoriy shakldagi dalolatnoma tuziladi.

Joriy qilish, qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish bo‘yicha ishlar davlat va tarmoq standartlashtirish dasturlariga kiritiladi.

Mahsulotga me'yoriy hujjatni qayta ko'rib chiqish me'yoriy hujjatga yangi, istiqbolli, o'zaro almashinuvchanlikni buzmaydigan talablarni kiritishda, mahsulotning asosiy texnik daraja ko'rsatkichlarini va sifatini o'zgartirishda, xalqaro va hududiy me'yoriy hujjatlarni O'z DSt ISO/IEC 21:2001 bo'yicha identifikatlash bilan qabul qilishda amalga oshiriladi.

Qayta ko'rib chiqishda amaldagining o'rniga yangi me'yoriy hujjat ishlab chiqiladi. Qayta ko'rib chiqilgan me'yoriy hujjat bekor qilinadi, yangisida esa, qaysi hujjat o'rniga ishlab chiqilganligi ko'rsatiladi. Me'yoriy hujjatning belgisi, faqat tasdiqlash yilini o'zgartirgan holda o'zicha saqlanadi.

Maxsulotga me'yoriy hujjatga yangi, istiqbolli, mahsulotning amaldagi me'yoriy hujjat bo'yicha tayyorlangan mahsulot bilan o'zaro almashinuvchanligini buzmaydigan talablarni kiritishda amaldagi me'yoriy hujjatga o'zgartirish kiritiladi. O'zgartirishlar, shuningdek me'yoriy hujjatning amal muddatini cho'zish, cheklash yoki cheklovni bekor qilishda ham kiritiladi.

O'zgartirishlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish me'yoriy hujjatlarning loyihalari uchun o'rnatilgan tartibda bajariladi.

O'zgartirishlar loyihalarini agar boshqa me'yoriy hujjatlar bilan bog'liqlik buzilmaydigan bo'lsa, manfaatdor tashkilatlarga fikr olish uchun jo'natmaslik ruxsat etiladi. Shuniigdek, zarur bo'lganda, o'zgartirishlar loyihasini faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishish ruxsat etiladi.

Me'yoriy hujjatni tasdiqlagan tashkilot ushbu me'yoriy hujjatni mahsulot chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) tugallangan hollarda, shuningdek ushbu me'yoriy hujjat o'rniga boshqa me'yoriy hujjat ishlab chiqilganda, bekor qiladi. Me'yoriy hujjatni bekor qilish qaror (buyruq) bilan rasmiylashtiriladi.

### **3.6.3 Me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash**

Foydalanuvchilarni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash O'z DSt 1.4:1998 "O'z SDT. Me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash tartibi" talablariga muvofiq bajariladi.

Manfaatdor tashkilotlarni, ularning qaysi mahkamaga qarashliligidan qat'iy nazar, mahsulotga me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash uchun mas'ullik me'yoriy hujjatlarni tasdiqlagan idoralarga yuklatiladi.

Davlatlararo va davlat standartlari bilan ta'minlash

O'zbekiston hududida amalga kiritilgan davlatlararo standartlarni rasmiy nashr etish, qayta nashr qilish, qog'ozda yoki magnitli tashigichlarda nus'halarini ko'paytirish va tarqatish mutlaq huquqi O'zstandart Agentligiga yoki bu standartlarni

qabul qilgan Davarxitekturaqurilishga berilgan. Davlat standartlarini rasmiy nashr qilish, qayta nashr qilish, ko‘paytirish va tarqatish huquqi ularni o‘z vakolatlari doirasida tasdiqlagan O‘zstandart Agentligi, Davarxitekturaqurilish, Davtabiatqo‘mita, Sog‘liqni saqlash vazirligiga berilgan.

O‘zbekiston hududida amal qilinayotgan davlatlararo standartlar to‘g‘risida axborot “O‘zbekistonda amaldagi davlatlararo standartlar” ko‘rsatkichida chop etiladi. Amaldagi davlat standartlari to‘g‘risidagi axborot “O‘zbekiston davlat standartlari” ko‘rsatkichida chop etiladi. Barcha yangitdan tasdiqlangan, almashtirilgan, bekor qilingan davlat standartlari to‘g‘risida, shuningdek bularga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida axborot har uch oyda (kvartalda) “O‘zbekiston davlat standartlari” axborot ko‘rsatkichida chop etiladi.

Foydalanuvchilarni davlatlararo va davlat standartlariga kiritilgan o‘zgartirishlarning matni bilan ta‘minlash abonentlik yoki bir martalik so‘rovlar bo‘yicha bajariladi.

O‘zbekiston hududida amalga kiritiladigan davlatlararo standartlar to‘g‘risida, yangitdan ro‘yxatga olingan davlat standartlari to‘g‘risida, davlatlararo va davlat standartlariga kiritilgan o‘zgartirishlar, shuningdek standartlarni ishlab chiquvchilar-tashkilotlar to‘g‘risida tezkor axborot O‘z RN 51-023 “O‘z SDT. Me’yoriy hujjatlarning Davlat jamg‘armasini butlash, hisobga olish, saqlash va olib borish tartibi” da o‘rnatilgan tartibda O‘zstandart Agentligining Axborot-ma’lumotnomalar markazi (AMM) tomonidan beriladi.

Umumdavlat tasniflagichlari bilan ta‘minlash

Foydalanuvchilarni qog‘ozda rasmiy nashr etilgan umumdavlat tasniflagichlari bilan ta‘minlash davlat standartlari uchun o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Tarmoq standartlari bilan ta‘minlash

Foydalanuvchilarni tarmoq standartlari va ularga kiritilgan o‘zgartirishlarning hisobga olingan nus’halari bilan ta‘minlash ishlarini ushbu standartlarni tasdiqlagan idora tarmokda o‘rnatilgan tartibda amalga oshiradi.

Foydalanuvchilarni tarmoq standartlarining hisobga olinmagan nus’halari bilan ta‘minlash O‘z RN 51-023:2004 da o‘rnatilgan tartibda axborot markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Amaldagi tarmoq standartlari to‘g‘risida, axborot “Tarmoq standartlari” har yillik ko‘rsatkichida chop qilinadi, shuningdek MHDJ ning ma’lumotlar bazasiga ham kiritiladi. Yangitdan tasdiqlangan, almashtirilgan, bekor qilingan tarmoq standartlari to‘g‘risida va ularga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida axborot “Tarmoq

standartlarn” har kvartaldagi axborot ko‘rsatkichida chop etiladi va MHDJ ning ma’lumotlar bazasiga kiritiladi. Ishlab chiquvchi-tashkilotlarga tarmoq standartlarining aslini ushlab turuvchilar-tashkilotlar to‘g‘risida axborot MHDJ ning ma’lumotlar bazasida bo‘ladi.

#### Texnik shartlar bilan ta’minalash

Foydalanuvchilarni texnik shartlar va ularga kiritilgan o‘zgartirishlarning hisobga olingan nus’halari bilan ta’minalash foydalanuvchilarni abonentlik hisobiga qo‘yish yo‘li bilan, asl nus’hani ushlab turuvchi-tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanuvchilarni texnik shartlarning hisobga olinmagan nus’halari bilan ta’minalash AMM tomonidan amalga oshiriladi.

Amaldagi texnik shartlar to‘g‘risida axborot har yillik “Texnik shartlar” ko‘rsatkichida chop etiladi. Yangitdan tasdiqlangan, almashtirilgan, bekor qilingan texnik shartlar va ularga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida axborot har kvartaldagi “Texnik shartlar” axborot ko‘rsatkichida chop etiladi va MHDJ ning ma’lumotlar bazasiga kiritiladi ishlab chiquvchilar-tashkilotlar va texnik shartlarning asl nus’halarini ushlab turgan tashkilotlar to‘g‘risida axborot MHDJ ning ma’lumotlar bazasida bo‘ladi.

#### Korxonalarning standartlari bilan ta’minalash

Chet iste’molchilarga yetkazib berish (haridga chiqarish uchun) yaratiladigan va chiqariladigan mahsulotga va ularga ko‘rsatiladigan xizmatlarga korxona standartlari va ularga kiritilgan o‘zgartirishlarning hisobga olingan nus’halari bilan ta’minalash foydalanuvchini abonent hisobiga qo‘ygan holda bu standartlarni tasdiqlagan korxonaning axborot xizmati tomonidan bajariladi.

Foydalanuvchilarni korxonalar standartlarining hisobga olinmagan nus’halari bilan ta’minalash ishlari AMM tomonidan bajariladi.

Mahsulotga korxonalarning amaldagi standartlari to‘g‘risida ma’lumot har yillik “Texnik shartlar” ko‘rsatkichida chop etiladi. Mahsulotga yangitdan tasdiqlangan, almashtirilgan, bekor qilingan korxonalar standartlari va ularga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida axborot kvartallik “Texnik shartlar”, ko‘rsatkichida chop etiladi va MHDJ ning ma’lumotlar bazasiga kiritiladi.

Korxonaning bo‘limlarini korxona standartlari bilan ta’minalash ishlari korxona tomonidan o‘rnatilgan tartibda korxona axborot xizmati tomonidan bajariladi.

Mahsulotga korxona standartlarini ishlab chiquvchi-tashkilotlar to‘g‘risida axborot MHDJ ning ma’lumotlar bazasida bo‘ladi.

Rahbariy hujjatlar, tavsiyanomalar va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash O'zstandart Agentligi, Davarxitekturaqurilish, Davtabiatqo'mita va Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan, davlat darajasidagi rahbariy hujjatlar, tavsiyanomalar, me'yorlar, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgertirishlar bilan foydalanuvchilarni ta'minlash davlat standartlari uchun o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanuvchilarni tarmoq ahamiyatidagi rahbariy hujjatlar, tavsiyanomalar, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirishlar bilan ta'minlash tarmoq standartlari uchun o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat darajasidagi rahbariy hujjatlar, tavsiyanomalar, me'yorlar, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar to'g'risida axborot har yillik "O'zbekiston davlat standartlari" ko'rsatkichida chop etiladi. Tarmoq darajasidagi me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi axborot har yillik "Tarmoq standartlari" ko'rsatkichida chop etiladi va MHDJ ning ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

Xalqaro va hududiy tashkilotlarning standartlari va standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlari bilan ta'minlash

Foydalanuvchilarni O'z DSt ISO/IES 21:2001 "O'z SDT. Xalqaro va hududiy standartlarni O'zbekiston davlat standartlari sifatida qabul qilish (ISO/IES 21:1999, IDT)" ga muvofiq O'zbekiston davlat standartlari (me'yoriy hujjatlari) sifatida, unga kiritilgan o'zgartirishlar va ular to'g'risida axborot bilan birga qabul qilingan xalqaro va hududiy standartlar (yoki boshqa me'yoriy hujjatlar) bilan ta'minlash davlat standartlari uchun qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston hududida qabul qilinmagan (amalga kiritilmagan) xalqaro va hududiy tashkilotlarning standartlari va standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarining nus'halari bilan ta'minlash O'zstandart Agentligining Axborot-ma'lumotnomma markazi tomonidan amalga oshiriladi. Foydalanuvchilarni asl nus'ha tilida bu me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash va, zarur bo'lganda, ularning davlat, rus va boshqa tillarga tarjimalari bilan ta'minlash shartnomma asosida amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) va Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlatlararo kengash (DAK) ning standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlari to'g'risida axborot "ISO katalogi" da va "Davlatlararo standartlar" ko'rsatkichida keltiriladi. O'zstandart Agentligi katalog va ko'rsatkichlarni ushbu tashkilotlardan har yili oladi. Xalqaro va hududiy tashkilotlarning standartlari va standartlashtirish bo'yicha boshqa me'yoriy hujjatlarining mavjudligi to'g'risida axborot MHDJ ning ma'lumotlar bazasida

bo‘ladi. Foydalanuvchilarni bunday axborot bilan ta’minlash O’z RN 51-023:2004 ga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqa davlatlarning milliy standartlari va me’yoriy hujjatlari bilan ta’minlash

Foydalanuvchilarni O’z DSt 1.7:1998 “O’z SDT. Boshqa davlatlarning davlatlararo, milliy standartlari va me’yoriy hujjatlarini qo‘llanish tartibi” ga muvofiq O‘zbekiston standartlari sifatida qabul qilingan boshqa davlatlarning milliy standartlari va bular to‘g‘risida axborot bilan ta’minlash davlat standartlari uchun o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanuvchilarni boshqa davlatlarning standartlari, tarmoqlar, ittifoqlar, muhandislik jamiyatlari va jamoat birlashmalarining standartlari, firma va korxonalarning texnik shartlari, standartlari va hokazo me’yoriy hujjatlarining nus’halari bilan ta’minlash MHDJ ning axborot markazi tomondan amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar yuqorida keltirilgan me’yoriy hujjatlarning asl tilidagi nus’halari bilan, zarur bo‘lganda ularning davlat, rus va boshqa tillarga tarjimalari bilan shartnoma asosida ta’minlanadi.

#### **IV- MODUL. TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH HAMDA STANDARTLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA QONUNIY ASOSLARI**

##### **“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni to‘g‘risida**

Qonun loyihasini ishlab chiqish davomida boshqa MDH davlatlari: Rossiya Federatsiyasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi, Belorussiya Respublikasining “Standartlashtirish va texnik normalashtirish sohasida texnik me’yoriy huquqiy aktlar talablariga muvofiq baholash to‘g‘risida” va Qozog‘iston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi amaldagi qonunlari o‘rganilgan.

Kelgusida standartlarni xalqaro standartlarga uyg‘unlashuvi, texnik-iqtisodiy ma’lumotlarni kodlashtirish va yagona tasniflash tizimini yaratish bo‘yicha ishlar, xalqaro reestrlerda ro‘yxatga olinmagan ekspertlar va xalqaro darajada tan olingan mutaxassislarni mavjud emasligi tenik reglamentlarni ishlab chiqish davomiyligi keyingi yillarda o‘tishi hisobga olingan. Ko‘rsatib o‘tilgan davlatlar tajribalarini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida” qonuni qabul qilinganidan so‘ng, o‘tish davrida qonunlar parallel amal qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuniga ham o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining

“Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni almashtirishi o‘tish vaqtin tugashi bo‘yicha standart va texnik reglamentlarni tayyorlash, qabul qilish va qo‘llash bilan aloqador masalalarini hal etilishi “O‘zstandart” Agentligi ishlab chiqqan “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi” qonun loyihasida nazarda tutilgan. Belgilangan o‘tish davomida amaldagi qonuniy aktlarga almashtiriluvchi texnik reglamentlarni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Texnik reglamentlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan yillik dastur bo‘yicha ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunida “texnik normalashtirish” davlat vazifasi O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa davlat boshqaruvi idorlari, shuningdek, MDH boshqa davlatlari biriktirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi bilan bir qatorda hozirgi vaqtda “O‘zstandart” agentligi amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlari va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunini o‘z navbatida almashinuvchi va muvofiqlikni baholash hamda tasdiqlashning asosiy protseduralarini aniqlovchi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqmoqda.

“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunda quyidagi atamalar va ta’riflar keltirilgan:

**texnik jihatdan tartibga solish** — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash va bajarish;

**mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi** — mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarning holati bo‘lib, bunda insonning hayotiga, sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilmaydigan xavf mavjud bo‘lmaydi;

**texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar** — texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

**texnik reglament** — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

**umumiy texnik reglament** — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdag'i mahsulotlar, ishlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

**maxsus texnik reglament** — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

**savdodagi texnik to'siqlar** — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar.


#### **4.1 O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi**

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Ushbu tizimni shakllantirish, takomillashtirish va Qonun bilan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari tayinlangan (10.1-rasm):

- O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiyligi va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'ligi uchun zararli moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarining kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot buyumlari, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi shaharsozlik faoliyatida mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli

ta'sirlardan muhofaza qilishda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

– Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.



#### 4.1.1-rasm. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi

Qonunda texnik reglamentlarni ishlab chiqish jarayoni ushbu soha ekspert kengashlariga yuklatilgan. Ishlab chiqilgan texnik reglament loyihalarini ekspertizadan o'tkazishni esa vakolatli davlat organlari huzurida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari bajaradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida me'yoriy xujjatlarni to'plash va ular to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish masalalarni tizimli ravishda hal etish maqsadida davlat fondi tashkil qilindi.

Joriy etilayotgan tizimni shakllantirish uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 10 maydagi 86-sonli "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori bilan quyidagilar tasdiqlandi:

1. "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi Nizom";

2. “Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning davlat fondini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom”;
3. “2010-2013 yillar uchun texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi”.

#### **4.1.2 Texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy prinsiplari**

O‘zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari belgilangan, bular:

- texnik reglamentlarni qo‘llashning majburiyligi, chunki texnik reglament bir turdagи mahsulot, ish va xizmatlar xavfsizligiga majburiy talablarни o‘rnatuvchi normativ hujjat hisoblanadi;
- texnik reglamentlarni qo‘llashning bir xilligi, ya’ni texnik reglament O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo‘llaniladi;
- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi.

Ta’rif bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- texnik reglamentlar;
- standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar;
- sanitariya, veterinar-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari;
- shaharsozlik, ekologiya normalari va qoidalari;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;
- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e’lon qilish tartibi to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi.

«O‘zstandart» agentligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning so‘rovlariga ko‘ra:

- amaldagi, ishlab chiqilayotgan va qabul qilingan texnik reglamentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;
- mahsulot, ish va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash tartib-taomili to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;
- O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a’zoligi va xalqaro shartnomalardagi ishtiroki to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

- qabul qilingan va ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni taqdim etish yuklatilgan.

#### **4.2 Texnikaviy shartlarni loyixalarini tuzish**

O‘zbekiston Respublikasi texnikaviy shartlarning loyihalari va ularga kiritiladigan o‘zgartirishlar (bundan keyin - texnikaviy shartlar) standartlashtirish texnik qo‘mitalari (TQ) tomonidan ishlab chiqiladi.

Texnik reglament quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilinishi mumkin:

- biologik xavfsizlik;
- mexanik xavfsizlik;
- kimyoviy xavfsizlik;
- yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik;
- yong‘in xavfsizligi;
- elektr xavfsizligi;
- mashina va uskunalarini ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi;
- binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- veterinariya xavfsizligi;
- sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi;
- portlash xavfsizligi;
- axborot xavfsizligi;
- o‘lchovlar va sinovlar usullarining bir xilligini ta’minlash, shuningdek mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga qo‘yiladigan boshqa talablar ham belgilab qo‘yilishi mumkin.

O‘z TJTSDT ning abbreviatura ko‘rinishidagi davlat tilida qisqartirilgan nomlanishi O‘z TJTSDT (O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi) deb belgilanadi.

O‘z TJTSDT ga tarmoqlararo standartlashtirish tizimining 18 sinfi berilgan.

Mazkur mahsulotga dahildor MDHning davlatlararo stanarlari respublika standartlari va texnikaviy shartlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, hamda boshqa

me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan talablarni kuchaytirshi zarur bo'lganda mazkur tarmoqning ikkita va undan ko'proq korxonasi ishlab chiqaradigan mahsulotga texnikaviy shartlar ishlab chiqiladi.

Texnikaviy shartlarda belgilab qo'yilgan talablar mazkur mahsulotga dahildor bo'lgan amaldagi standartlar talabidan past bo'lmasligi, hamda mahsulot (buyumlar, ashyolar, moddalar) standartlari va texnikaviy shartlari talablariga zid kelmasligi kerak.

Agarda talablarning katta qismi mazkur mahsulotga ta'lluqli standartlarda belgilangan bo'lsa, u holda bu talablar texnikaviy shartlarda takrorlanmaydi, balki texnikaviy shartlarning tegishli bo'limlarida mazkur standartlarga yoki ularning bo'limlariga havola etiladi.

Bu holda standartning ayrim bandlariga havola qilishga yo'l qo'yilmaydi, ana shu bandlarning mazmuni esa texnikaviy shartlarda manbara havola etilmay bevosita bayon qilinadi.

Texnikaviy shartlarda mazkur mahsulotga doir konstruktorlik va boshqa texnikaviy hujjatlar, hamda mahsulot tarkibiy qismlarining texnikaviy shartlariga, shuningdek umumtexnikaviy hujjatlarga ham havola qilishga yo'l qo'yiladi.

***Texnikaviy shartlarning tuzilishi, bayon etilishi va rasmiylashtirilishi O'zDst 1.2-2000 - talablariga xos bo'lishi kerak.***

Texnikaviy shartlarning amal qilish muddatini uzaytirish, cheklash va cheklovni bekor qilish haqidagi qaror texnikaviy shartlarni tasdiqlagan idora tomonidan mazkur texnikaviy shartlarning amal qilish muddati tugashidan kamida 3 oy muqaddam qabul qilinishi kerak.

Texnikaviy shartlar mazkur texnikaviy shartlar o'rniga boshqa me'yoriy hujjat ishlab chiqilayotgan yoki uni qo'llanishi bundan buyon maqsadga muvofiq bo'lmay qolganda yoki mahsulotni ishlab chiqarish to'xtatilganda bekor qilinadi. Texnikaviy shartlarni tasdiqlagan idora ularni bekor qiladi.

***▼ Agar mahsulotni buyurtmachi (istemolchi)ning roziligi bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lsa, quyidagi hollarda texnikaviy shartlar ishlab chiqilmasligiga yo'l qo'yiladi:***

1. Texnikaviy topshiriqqa binoan - bir dona ishlab chiqariladigan mahsulot uchun;
2. Buyum hujjatlarining jumlasiga kiradigan konstruktorlik hujjatlariga binoan ushbu buyumning tarkibiy qismlari uchun;

3. Texnikaviy xujjatlar bo‘yicha - bitta korxona to‘g‘ridan-to‘g‘ri bergen buyurtma bo‘yicha tayyorlanadigan.

4. Etalon - namuna va uning texnikaviy bayoni bo‘yicha-iste’mol xususiyatlari mahsulot sifatiga xos ko‘rsatkichlarning miqdor qiymatini belgilamay bevosita namuna bilan aniqlanadigan yoki bu ko‘rsatkichlar qiymati bir turdagি mahsulotlar guruhi uchun Rossiya Federasiyasi standartlari bilan belgilangan ashyoviy xalq, iste’mol buyumlari (murakkab ro‘zg‘orbop texnika va maishiy kimyo mahsulotidan tashqari) uchun;

5. Shartnoma bo‘yicha – faqatgina xorijga mo‘ljallangan mahsulot uchun belgilaniladi.

#### **4.2.1 Texnikaviy shartlarning loyihamini tasdiqlash usullari**

Yangidan ishlab chiqilayotgan, qayta ko‘rib chiqilayotgan texnikaviy shartlar va ularga doir o‘zgartirishlar kelishib olinishi lozim.

Agar mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘l qo‘yish haqidagi qarorni qabul komissiyasi qabul qilgan bo‘lsa, texnikaviy shartlar loyihamini mazkur komissiyada kelishib olish lozim bo‘ladi.

Mahsulotni ishlab chiqaruvchi texnikaviy shartlarni buyurtmachi bilan kelishib oladi, hamda qabul komissiyasida kelishib olinishi lozim bo‘lgan boshqa hujjatlar bilan birga uni qabul komissiyasi ish boshlashidan kamida bir oy avval qabul komissiyasi tarkibiga vakillari kiritilgan tashkilot (korxona)ga yuboriladi.

Texnikaviy shartlar loyihasini kelishib olish uchun davlat nazorati idoralariga va xulosa berishi uchun boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuborish zarur yoki zarur emasligini loyihani ishlab chiquvchi belgilaydi.

Mahsulotning tajriba namunasini qabul etish haqidagi aktning qabul komissiyasi a’zolari tomonidan imzolanishi texnikaviy shartlar loyihasi kelishib olinganini bildiradi.

Agar mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘l qo‘yish haqidagi qaror qabul komissiyasi ishtirokisiz qabul qilinsa, texnikaviy shartlar loyihasini kelishib olish uchun buyurtmachiga yuboriladi.

Texnikaviy shartlar loyihasini boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuborish zarur yoki zarur emasligi texnikaviy shartlar loyihasida o‘sha tashkilotlarga ta’lluqli talablar bo‘lgan taqdirda loyihani ishlab chiquvchi belgilaydi.

Texnikaviy shartlar loyihasi kelishib olinishi lozim bo‘lgan barcha tashkilotlarga ayni bir vaqtida yuborilishi lozim.

Kelishib olish yoki xulosa uchun taqdim etilgan texnikaviy shartlar loyihasi tashkiloti berilgandan keyin 15 kun ichida ko‘rib chiqilishi kerak.

Texnikaviy shartlar loyihasi kelishib olingan kelishuvchi tashkilot rahbarining «kelishildi» yozuvi yoki alohida xujjat (qabul komissiyasining akti, xati, bayonnomalar va h.k.) ostiga qo‘yadigan imzosi bilan rasmiylashtiriladi, shu bilan birga «Kelishildi» grafi ostiga sana va hujjat raqami yozib qo‘yiladi.

Texnikaviy shartlarga doir o‘zgartirishlar texnikaviy shartlar uchun belgilangan tartibda kelishiladi. Texnikaviy shartlarga doir o‘zgartirishlarni, agar bu o‘zgarishlar texnikaviy shartlarni kelishib olgan tashkilotlarning manfaatlariga dahl qilmasa, faqat buyurtmachi (iste’molchi) bilan kelishiladi.

Texnikaviy shartlarning amal qilish muddati cheklanishini bekor qilish muddati tugashidan kamida 6 oy muqaddam tasdiqlanmog‘i kerak.

Ishlab chiqarilishi to‘xtatilgan mahsulotning texnikaviy shartlarini bekor qilmaslikka, balki ulardan ishlatilayotgan mahsulotning ehtiyyot qismlarini tayyorlash va tuzatish uchun foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Shu bilan birga texnikaviy shartlar nomi yozilgan varaqqa «Tuzatish maqsadlari uchun» deb yozib, amal qilish muddati cheklovi bekor qilinadi.

#### **4.2.2 Texnikaviy shartlar loyihasini tasdiqlash**

Texnikaviy shartlar ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchi)ning buyurtmachi bilan kelishuviga muvofiq yoki ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchi) tomonidan buyurtmachi bilan birgalikda, yoki buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi.

Texnikaviy shartlar texnika qo‘mitasi raisi yoki ishlab chiquvchi rahbariyati imzolangan ilova xati, texnikaviy shartlar kelishilganini tasdiqlovchi hujjatlar, qabul komissiyasi bayonnomalari, davlat sinovlar va boshqa sinov aktlari, texnologiya yo‘riqnomasi yoki ishlab chiqarish qoidalari oziq-ovqat va kimyo sanoati mahsulotlariga bilan birga taqdim etiladi.

Texnikaviy shartlarni tasdiqlash hujjatning titul varag‘idagi «Tasdiqlayman» grafigi ostiga korxona rahbari (rahbar o‘rinbosari) qo‘yadigan imzo bilan rasmiylashtiriladi.

Texnikaviy shartlarga doir o‘zgartirishlarni (texnikaviy hujjatlar komplektini topshirish haqida shartnomada boshqa shart qo‘yilmagan bo‘lsa) texnikaviy shartlar asl nusxasini saqlovchi tasdiqlaydi.

Texnikaviy shartlar buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishib amal qilish muddati ko'pi bilan 5 yilga tasdiqlanadi. Asoslanilgan taqdirda amal qilish muddati cheklanmaydi.

Texnikaviy shartlar «TSh» indeksidan, O'zbekiston Respublikasining qisqartarilgan nomi «O'z» dan, texnikaviy shartlarni tasdiqlaydigan tashkilotning shartli raqami ifodasidan, texnikaviy shartlar tartib raqamidan va tasdiqlanish yilning 2 oxirgi raqamlaridan iborat bo'ladi.

#### **4.2.3 Texnikaviy shartlarni davlat ro'o'yxatidan o'tkazish**

Mazkur standartga muvofiq kelishib olingen va tasdiqlangan texnikaviy shartlar davlat ro'o'yxatidan o'tkazish uchun texnikaviy shartlarni tasdiqlagan korxona joylashgan hudud bo'yicha texnikaviy shartlar davlatlararo standartlarning va O'zbekiston Respublikasi standartlarining majburiy talablariga muvofiq yoki muvofiq emasligini nazorat qilish maqsadida, hamda texnikaviy shartlar xususida markazlashgan axborot vujudga keltirish maqsadida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasi markazi (O'zstandart Agentligi)ga taqdim etiladi.

Texnikaviy shartlarga doir o'zgartishlar O'zstandart Agentligi idoralarida texnikaviy hujjatlar asl nusxasini saqlovchi korxona joylashgan hudud bo'yicha ro'o'yxatga olinadi.

Texnikaviy shartlarga doir o'zgartirishlarni davlat ro'o'yxatidan o'tkazish uchun texnikaviy shartlardan ko'chirma unga bundan avval kiritilgan o'zgartirishlar bilan taqdim etiladi.

Ishlab chiquvchi korxonalar texnikaviy shartlarni (ularga doir o'zgartirishlarni) tasdiqlangan paytida kechi bilan bir oy ichida davlat ro'o'yxatidan o'tkazish uchun:

Texnikaviy shartlarni ishlab chiquvchi yoki asl nusxasini saqlovchi korxona davlat ro'o'yxatidan o'tkazilgani haqidagi ma'lumotlarni asl nusxa varag'iga o'tkazadi.

Quyidagi mahsulotlarning texnikaviy shartlari davlat ro'o'yxatidan o'tkazilmaydi:

-tajriba namunalari (tajriba turkumlari);

-estalik sovg'alari va xalq badiiy hunarmandchiligi buyumlari (qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan buyumlar bundan mustasno);

-xom ashyo, materiallar, xomaki mahsulotlarning texnologiya sanoat chiqitlari, mustaqil ravishda yetkazib berilishi mo'ljallanmagan yoki bitta

korxonaning bevosita buyurtmasi bo‘yicha tayyorlanadigan buyumlar, xomaki mahsulotlar, moddalar va ashyolarning tarkibiy qismlari;

-alohida birlik yoki arzimagan bir to‘p tarzida har zamonda ehtiyoj tug‘ilganda ishlab chiqariladigan texnologik jihatdan qurollanish vositalari, o‘lchash vositalari bilan sinash vositalari bundan mustasnodir;

-onda-sonda ishlab chiqariladigan mahsulot.

### **4.3 Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash tamoyillari**

Hozirgi bosqichda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida standartlashtirishning o‘rni va ahamiyati oshganligi munosabati bilan “maqbul darajada tartiblashtirishga qaratilgan faoliyat”ni, standartlashtirish ta’rifida ko‘satilganidek, har tomonlama texnik-iqtisodiy asoslash to‘g‘risidagi masala dolzarb bo‘lmoqda.

Bundan standartlashtirish samaradorligining asosiy yunalishlari kelib chiqadi:

- ilmiy-texnikaviy jarayonni tezlashtirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini, shu jumladan muhandislik va boshqaruv faoliyatini oshirish;
- mahsulot sifatini oshirish va uning maqbul darajasini ta’minalash;
- mahsulotga talablarni mamlakat mudofaasi ehtiyojlari bilan bog‘lanishni ta’minalash;
- eksportni kengaytirish uchun sharoitlarni ta’minalash;
- iqtisodiyot boshqaruvini tashkillashtirishni takomillashtirish;
- mahsulotni loyihalash va ishlab chiqarish doirasida ixtisoslashtirishni rivojlantirish;
- barcha turdagи boyliklarni tejash;
- axoli sog‘ligini saqlash va ishlovchilar mehnatining xavfsizligini ta’minalash;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- xalqaro iqtisodiy, texnik va madaniy xamkorlikni rivojlantirish.

Tejamkorlik manbalari mahsulotning xayotiy siklining barcha bosqichlarida aniqlanadi. Asosiy manbalar quyidagilardan iborat:

Ishlab chiqish (loyihalash) bosqichida:

- standart texnik hujjalardan ko‘p marta foydalanish, standart shartli grafik tasvirlarni qo‘llanish, standart hisoblash usullaridan foydalanish va h.k. hisobiga ishlab chiqish (loyihalash) ga mexnat sarfini kamaytirish;

– loyihalar sonini kamaytirish, ishlab chiqiladigan texnik hujjatlar birlik sonlarini qisqartirish;

– tajriba nus’halarni tayyorlash va sinashga sarflarni kamaytirish.

Ishlab chiqarish bosqichida:

– ishlab chiqariladigan buyumlar nomenklaturasini qisqartirish, birxillashtirish, seriyalikni oshirish;

– materiallarni sarflash me’yorlarini kamaytirish;

– jihozlarni qayta sozlashga mehnat sarfini kamaytirish;

– sotib olinadigan standartlashtirilgan tarkibiy qismlarga va butlovchi buyumlarga xarajatlarni kamaytirish;

– ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat sarfini kamaytirish;

– buyumlarning sinashga ajratib olinadigan sonini kamaytirish va sinovlarni arzonlashtirish;

– brakni kamaytirish;

– buyumni tamg‘alash va joylashga xarajatlarni kamaytirish;

– jihozlardan foydalanishni yaxshilash;

– ishlab chiqarish siklining davom etish vaqtini qisqartirish;

– mehnatning xavfsizligini oshirish.

Foydalanish(iste’mol qilish) bosqichida:

– ekspluatatsion sarflarni qisqartirish (xom ashyo, yoqilg‘i, materiallar va asboblar sarfini kamaytirish va h.k.);

– extiyot qismlar, asbob va moslamalarni kamaytirish;

– ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishga mehnat sarfini kamaytirish;

– foydalaniladigan jihozlarning ish unumini oshirish;

– mahsulot tafsilotlari (xossalari) ni yaxshilash;

– mahsulotni tashish va saqlashda uning saqlanuvchanligini oshirish;

– transport vositalaridan foydalanishni yaxshilash;

– omborxonalardan foydalanishni yaxshilash;

– foydalanishda mehnat xavfsizligini oshirish.

Tashqi savdo sohasida:

– eksportga chiqariladigan mahsulot hajmini oshirish;

– sifati yaxshilangan eksportbop mahsulotga narxni oshirish;

– sotib olinadigan import mahsulot hajmini kamaytirish.

Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

Moddiy ifodalangan yillik tejam – mahsulot xayotiy siklining barcha bosqichlarida moddiy va mehnat boyliklarining o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlari bo‘yicha, standartni joriy qilishgacha va joriy qilingandan keyin bir yilga hisoblab topiladi.

Narxda ifodalangan yillik tejam – Standartni joriy qilishgacha va joriy qilgandan keyin mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, muomala va foydalanish (iste’mol qilish) ga xarajatlar o‘rtasidagi bir yilga xisoblangan farq.

Yillik iqtisodiy samara – Narxda ifodalangan yillik tejam va standartni ishlab chiqishga va joriy etishga yillik xarajatlar o‘rtasidagi farq.

Ishlab chiqarish xarajatlari – mahsulotning ma’lum turini ishlab chiqarishga jonli va ilgarigi mehnat sarflari.

Asosiy kapital xarajatlar – Ishlab chiqarish fondlarining yangisini yaratish, qayta tuzish (rekonstruksiya qilish) va amaldagi ishlab chiqarish fondlarini kengaytirishga sarflangan xarajatlar.

Keltirish koeffitsienti – Turli vaqtlardagi sarflar keltirish koeffitsienti yordamida bir hisobiy yilga keltiriladi.

Keltirish me’yori – Keltirish koeffitsaentini aniqlash uchun qo‘llaniladi, 0,1 ga teng o‘zgarmas kattalikdan iborat.

Me’yoriy foyda – Kapital mablag‘lar iqtisodiy samaradorligi me’yoriy koeffitsientining kapital mablag‘lar hajmi ko‘rsatkichiga ko‘paytmasiga teng bo‘lgan keltirilgan harajatlarning tashkil etuvchisi. Me’yoriy foyda kapital mablag‘lar summasidan foiz hisobidagi chegirma kabi aniqlanadi.

Kapital mablag‘larning iqtisodiy samaradorligi me’yoriy koeffitsienti – 0,15 ga teng o‘zgarmas kattalik bo‘lib, kapital mablag‘larning har bir so‘mi kamida me’yoriy, ya’ni kamida 15 tiyin foyda keltirishi lozimligini ifodelaydi.

Aylanma fondlar – Ishlab chiqarishda foydalaniladigan mehnat predmetlari (xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, yonilg‘i va b.). Aylanma fondlar har bir ishlab chiqarish siklida ishlatiladi va o‘zlarining tabiiy shakllarini yo‘qotadi. Ularning narxi darhol tayyorlanadigan mahsulotga ko‘chadi.

Aylanma mablag‘lar – Korxonaning hali sotilmagan tayyor mahsulotda, bankdagi hisobida, g‘aznasida, hisoblarida turgan mablag‘lari. Aylanma mablag‘larga aylanma fondlar va muomala fondlari kiradi.

Asosiy fondlar – Ko‘p ishlab chiqarish sikllarida ko‘p marta qatnashuvchi, bunda o‘zining tabiiy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalari (binolar, inshoatlar, uzatish qurilmalari, mashina va jihozlar, transport, asbob, ishlab chiqarish asbob-

uskunalari, ishchi va mahsuldor xayvon, ko‘p yillik ekinlar, o‘rmonzorlar va suvli yerlar).

Keltirilgan xarajatlar – Tannarx va me’yoriy foyda yig‘indisidan iborat.

Ishlab chiqarish fondlari – Ishlab chiqarish vositalari, asosiy fondlar va aylanma fondlarni o‘z ichiga oladi.

Kapital mablag‘larning iqtisodiy samaradorlik hisobiy koeffitsienti – yillik tejamning standartni ishlab chiqish va joriy etishga bir yilga keltirilgan xarajatlariga nisbati.

Mahsulotning tannarxi – Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari.

Kapital mablag‘larning qoplanish muddati – qo‘sishimcha kapital mablag‘ - xarajatlarning yillik tejamga nisbati.

Vaqt omili – Turli vaqtlardagi xarajatlarni keltirish koeffitsienti yordamida bir, xisobiy yilga keltirish.

iqtisodiy samaradorlik – Iqtisodiy natijalarga erishish maqsadlari va vositalarini bir butun qilib birlashtiruvchi, maqsadga yunaltirilgan tizimlarning mukammal ishlashini ifodalovchi tushuncha.

Tejam – Boyliklarni tejab-avaylab sarflaganda olinadigan foyda.

Iqtisodiy samara – Topshiriqdagagi maqsadga erishishga ketgan xarajatlarni chiqargandan keyin qolgan tejam.

Standartlaltirishning samaradorligini aniqlash yangi texnikani joriy etishdan ko‘riladigan iqtisodiy samarani aniqlash umumiyligi formulalariga asoslangan. Umumiyligi holda hisoblarda to‘rtta asosiy ko‘rsatkich qo‘llaniladi:

I Kapital mablag‘lar. Kapital mablag‘larning yillik hajmining o‘zgarishi  $\Delta K$  quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\Delta K = K_2 - K_1, \quad (4.3.1)$$

bunda  $K_2$  – tadbirlar bajarilgandan keyin kapital mablag‘larning yillik hajmi, so‘m;

$K_1$  – tadbirlar bajarilmasidan oldin kapital mablag‘larning yillik hajmi, so‘m.

2 Tannarx – Tannarx yillik hajmining o‘zgarishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\Delta \tilde{N} = \tilde{N}_1 - \tilde{N}_2, \quad (4.3.2)$$

bunda  $\tilde{N}_1$  – tadbirlar bajarilmasidan oldingi tannarxning yillik hajmi, so‘m;

$C_2$  –tadbirlar bajarilgandan keyingi tannarx yillik hajmi. so‘m.

3 Kapital mablag‘larning qoplanish muddati. Kapital xarajatlarning qoplanish muddati Tq (yil) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\hat{O}_{\hat{e}} = \frac{\Delta \hat{E}}{\Delta \tilde{N}} = \frac{\hat{E}_2 - \hat{E}_1}{\tilde{N}_1 - \tilde{N}_2}, \quad (4.3.3)$$

4 Kapital mablag‘larning iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti quyidagicha farqlanadi:

– Yeh – hisobiy koeffitsient quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathcal{E}_x = \frac{\Delta C}{\Delta K} = \frac{1}{T_k}, \quad (4.3.4)$$

– en normativ koeffitsient  $\varepsilon_n = 0,15$  – o‘zgarmas kattalik.

ex  $\geq \varepsilon_n$  bo‘lganda tadbirlar iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning asosiy tamoyili tadbirlar bajarilmasidan oldingi keltirilgan harajatlarni tadbirlar bajarilganidan keyingi harajatlarga taqqoslashdan iborat:

$$\mathcal{Z}_2 = Z_1 - Z_2, \quad (4.3.5)$$

bunda  $Z_2$  – yillik iqgisodiy samara, so‘m;

$Z_1$  – tadbirlar bajarilmasidan oldingi keltirilgan yillik xarajatlar, so‘m;

$Z_2$  – tadbirlar bajarilganidan keyingi keltirilgan yillik xarajatlar, so‘m.

Keltirilgan xarajatlarning yillik hajmi Z so‘mlarda quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi;

$$Z = C + \mathcal{E}_n K, \quad (4.3.6)$$

bunda  $\mathcal{E}_n K$  – me’yoriy normativ foyda, ya’ni kapital mablag‘larning har bir so‘mi har yili 15 tiyin foyda keltirishi lozim.

Keltirilgan xarajatlar qiymatini (4.5) formulaga qo‘yib, yillik iqtisodiy samaradorlikni olamiz:

$$\mathcal{Z}_2 = (C_1 + \mathcal{E}_n K_1) - (C_2 + \mathcal{E}_n K_2). \quad (4.3.7)$$

Amalda solishturma ko‘rsatkichlar orqali ifodalangan, boshqacha ko‘rinishdagi formuladan foydalilanildi:

$$\mathcal{E}_2 = [(c_1 + \mathcal{E}_\kappa \kappa_1) - (c_2 + \mathcal{E}_\kappa \kappa_2)] \cdot A_2, \quad (4.3.7')$$

bunda  $A_2$  – ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi, ushbu turdag'i mahsulot (xizmatlar) uchun qo'llanilgan o'lchov birliklarida.

Izoh – Iqtisodiyot formulalurida xarfli belgilarning indekslaridagi raqamlar, odatda, quyidagilarni ifodalaydi: “1” – tadbirlar bajarilmasidan oldingi kattaliklar, “2” – tadbirlar bajarilganidan keyingi kattaliklar.

Solishtirma kapital mablag'lar quyidagicha hisoblanadi:

$$\kappa = \frac{K_{O\Phi}}{A}, \quad (4.3.8)$$

bunda  $K_{O\Phi}$  – asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik narxi, so'm Ko'p nomli mahsulot ishlab chiqarishda solishtirma kapital mablag'lar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\kappa = \frac{K_{O\Phi}}{C} \cdot c, \quad (4.3.8')$$

bunda  $s$  – har bir qismdagi mahsulot birligining tannarxi, so'm.

Yangi texnika bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish so'ngra me'yoriy hujjatni ishlab chiqish bir necha yilga cho'zilishi mumkin:

ITI, so'ngra tajriba-konstrukturlik ishlari 1-2 yil, ishlarning natijalarini joriy etish ham 1-2 yil davom etadi. Demak, xarajatlar ishlab chiqish va o'zlashtirmalarniig butun davrida davom etadi. Bunda kapital mablag'lar hajmi yillar bo'yicha jiddiy farqlanadi. Yillik iqtisodiy samaradorlik, odatda, ma'lum bir (hisobiy) yilga hisoblanadi,. Tadbirlarni bajarishga turli vaqtarda sarflangan xarajatlarni aynan ana shu hisobiy yilga keltirish kerak. Buning uchun turli vaqtarda sarflangan xarajatlarni hisobiy yilga keltirish koeffitsienti yordamida vaqt omili hisobga olinadi:

$$\alpha_t = (1 + \mathcal{E})^t, \quad (4.3.9)$$

bunda  $\mathcal{E}$  – keltirish normativi, 0,1 ga teng o'zgarmas kattalikdir;

$t$  – xarajatlarni va ushbu yil natijalarini hisobiy yil boshidan yillar sonini ifodalovchi yillar soni:

$$t = T_{HT} - n, \quad (4.3.9')$$

bunda TNT – yangi texnikani yaratish va o'zlashtirishning umumiyl davom etish yillari;

n – yaratish va o‘zlashtirish tartib yillari.

Hisobiy yil boshlanishigacha sarflangan xarajatlar va olingan natijalar ot ga ko‘paytiriladi, hisobiy yil boshlangandan keyin esa, ushbu koeffitsientga bo‘linadi. Bular quyidagicha ifodalanadi:

$$K_{\Sigma} = \sum_{n=1}^{T_{HT}} K_n \alpha_t, \quad (4.3.10)$$

yoki

$$K_{\Sigma} = \sum_{n=1}^{T_{HT}} K_n \frac{1}{\alpha_t}, \quad (4.3.10')$$

bunda  $K_{\Sigma}$  – yangi texnikani yaratish va o‘zlashtirish davrida vaqt omilini hisobga olgan holda sarflangan jami kapital mablag‘lar, so‘m;

$K_n$  – n yildagi kapital mablag‘lar hajmi, so‘m.

$\alpha_t = (1 + \varepsilon)^t$  formula bo‘yicha hisoblangan vaqt omili bo‘yicha keltirish koeffitsientlari mahsus jadvalda keltiriladi. Jadvalda TNT – 1-10 yil uchun  $\alpha_t$ , ning qisman qiymatlari keltiriladi.

4.3.1-jadval.

### **Keltirish koeffitsientlarining qiymatlari**

| $\dot{O}_{i\circ}$ | $\alpha_t$ | $\frac{1}{\alpha_t}$ | $\dot{O}_{i\circ}$ | $\alpha_t$ | $\frac{1}{\alpha_t}$ |
|--------------------|------------|----------------------|--------------------|------------|----------------------|
| 1                  | 1,1000     | 0,9091               | 6                  | 1,7716     | 0,5645               |
| 2                  | 1,2100     | 0,8264               | 7                  | 1,9487     | 0,5132               |
| 3                  | 1,3310     | 0,7513               | 8                  | 2,1436     | 0,4665               |
| 4                  | 1,4641     | 0,6830               | 9                  | 2,3579     | 0,4241               |
| 5                  | 1,6105     | 0,6209               | 10                 | 2,5937     | 0,3855               |

Shuni hisobga olish kerakki, standartlashtirish yangi texnika bo‘yicha ishlarning bir qismi bo‘ladi. Shuning uchun standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi umumiy iqtisodiy samaradorlikning bir ulushi kabi aniqlanadi.

Tashkilotnint yoki bosqichning umumiy iqtisodiy samaradorlikda qatnashish ulushi koeffitsienti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$D_i = \frac{\mathcal{Z}_i \cdot R_i}{\sum_{i=1}^n \mathcal{Z}_i \cdot R_i}, \quad (4.3.11)$$

bunda  $\mathcal{Z}_i$  – i- tashkilot yoki bosqichning harajatlari;

$R_i$  – i- tashkilot yoki bosqich ishlarining qiymatdorlik koeffitsienti;

$n$  – tashkilotlar yoki bosqichlar soni.

Izoh – umumiy harajatlар to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q bo‘lsa, maosh fondidan foydalanish ruxsat etiladi.

Standartlashtirishga (yoki muayyan tashkilotga) to‘g‘ri keladigan iqtisodiy samaradorlik Est quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathcal{E}_{CT} = D_i \mathcal{E}_{\Sigma}, \quad (4.3.12)$$

bunda  $\mathcal{E}_{\Sigma}$  – yangi texnik bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishdan olingan umumiy iqtisodiy samaradorlik.

Ishlarning qiymatdorlik koeffitsientlari 4.3.2-jadvalda keltirilgan.

4.3.2-jadval.

### **Ishlarning qiymatdorlik koeffitsientlari**

| Ishlarning nomi                                      | $R_i$ |
|--|-------|
| Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari     |       |
| Me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish                  | 5     |
| Me’yoriy hujjatlarni joriy qilish bo‘yicha tadbirlar | 4     |
|  | 1     |

Yangi texnika bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishdan umuman ko‘rilgan iqtisodiy samaradorlikni va jumladan standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda hisoblarning ma’lum tartibiga rioya qilish kerak.

Quyida hisoblarni bajarish tartibi keltirilgan:

I Kirish qismi;

- standartlashtirish bo‘yicha tadbirlarning mohiyati (mahsulotga me’yoriy hujjat, kompleks standartlashtirish dasturi, atrof muhitni muhofazalashga standart, bixillashtirish bo‘yicha tadbirlar va h.k);
- ko‘rsatkichlarni qiyoslash uchun asos (ilgari amalda bo‘lgan me’yoriy hujjatlar, chiqariladigan mahsulot, ko‘rsatiladigan xizmatlar) ning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari;
- Iqtisodiy samaradorlikning namoyon bo‘lish sohalari (ishlab chiqish, loyihalash, tayyorlash, foydalanish, iste’mol qilish, tashish, saqlash, ta’mirlash va b.);
- iqtisodiy samaradorlikni olish manbalari;
- foydalanilgan me’yoriy va boshqa hujjatlar (davlatlararo, davlatlar, tarmoq va boshqa me’yoriy hujjatlari, yo‘rnqnomalar, metodikalar),.

2 Hisoblash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar.

Boshlang‘ich ma’lumotlar qulaylik va yaqqol ko‘rinishi uchun 4.3.3-jadvalda keltiriladi.

4.3.3-jadval.

#### **Boshlang‘ich ma’lumotlar**

| Ko‘rsatki<br>chning<br>nomi,<br>o‘lchov<br>birligi | Ko‘rsat-<br>kichning<br>harfli<br>belgisi | Ko‘rsatkichning<br>qiymati |  | Ko‘rsatkichni olish manbalari |  |
|--|---|----------------------------|--|-------------------------------|--|
|  |   | Asos<br>ko‘rsat-<br>kichi  | Stan-<br>dartlash-<br>tirila-<br>digan | Asos<br>ko‘rsat-<br>kichi     | Standartlash-<br>tiriladigan<br>ko‘rsatkichi |
| 1  | 2   | 3                          | 4                                      | 5                             | 6  |

Jadvalning 1 grafasida tannarx, qo‘srimcha kapital mablag‘lar, mahsulot ishlab chiqarish (ishlar) yillik dasturi (yoki kutilayotgan hajmi); xizmat muddati, sarflar me’yoriy ko‘rsatkichlari, tayyorlash, ta’mirlar, xizmat ko‘rsatishda mehnat sarfi va b. keltiriladi.

2 grafadagi harfli belgilarning umum qabul qilinganlari qo’llaniladi.

3 va 4 grafalarda asosiy va standartlashtiriladigan ko‘rsatkichlarning qiymatlari ko‘rsatiladi. 5 va b grafalarda tayyorlovchilar yoki iste’molchilarning ma’lumotlari, hisobiy yo‘l bilan olingan ko‘rsatkichlar, smeta narxi, me’yoriy ma’lumotlar va boshqa manbalar ko‘rsatiladi.

Bu bo‘limning o‘zida ITI, TKI, me’yoriy hujjatni ishlab chiqish va joriy qilishga ketgan harajatlar aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari 4.3.4-jadvalda keltiriladi.

4.3.4-jadval.

#### **Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari**

| Ko‘rsatkichlar nomi                      | Ko‘rsatkich qiymati |
|--|---------------------|
| Yillik tejam, natural birliklarda        |                     |
| Yillik tejam, ming so‘m                  |                     |
| Yillik iqtisodiy samaradorlik, ming so‘m |                     |
| Iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti     |                     |

#### **4.3.1 Standartlashtirish bo‘yicha ishlarga mehnat sarfi va ishlar narxi normativlari**

Standartlashtirish bo‘yicha ishlarga mehnat sarfi va ishlar narxi normativlari buyurtmachi bilan asosiy bajaruvchi o‘rtasida shartnoma tuzishda shuningdek, ishlarni bajarish rejalarini ishlab chiqishda va standartlashtirish doirasida ilmiy-texnikaviy mahsulotga baholarni o‘rnatishda ularning narxini baholashda asosli yondashishga imkon beradi.

Mehnat sarfi va narx normativlari quyidagilarni aniqlash uchun zarur bo‘ladi:

- standartlashtirishni rejalashtirishda me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, ularga o‘zgartirishlar kiritish yoki qayta ko‘rib chiqish smeta narxi;
- me’yoriy hujjatlarni bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar tomonidan ishlab chiqishga mehnat sarfi va smeta narxi;
- ilmiy-texnikaviy mahsulot narxi;
- me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Bunda quyidagi asosiy atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

Normativ mehnat sarfi – Muayyan ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan, kishi-soat yoki kishi-kunlarda o‘lchanadigan, ish vaqt sarfining hisoblangan qiymati;

Vaqt normasi – Mos operatsion-texnikaviy sharoitlarda mos malakali bir ishchi yoki ishchilar guruhi tomonidan ishlarning ma’lum hajmini bajarishga zarur vaqt sarfi.

Standartlashtirish bo‘yicha ish deganda, standartlashtirish bo‘yicha ma’lum tashkiliy, metodik yoki texnik masalani yechishga qaratilgan, ilmiy xodimlar,

mutaxassislar yoki texnik bajaruvchilar tomonidan bajariladigan ishlar majmui (ilmiy-tadqiqot ishlari, asos bo‘luvchi yoki bir turli mahsulotning muayyan xiliga yoki guruhiga me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, bularga o‘zgartirishlar kiritish, ekspertiza o‘tkazish) tushuniladi.

Mehnat sarfini aniqlashga quyidagi bosqichlar kiradi:

- ishlab chiquvchi-tashkilot uchun mehnat sarfi normativlari asosida mehnat sarfini hisoblash;
- hamkor bajaruvchining qatnashish ulushini hisobga olgan holda ishlarga mehnat sarfini hisoblash;
- ishlarga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ishlarga umumiy mehnat sarfini hisoblash.

Mehnat sarfi normativlari me’yoriy hujjatni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida ishlarga sarflanadigan ish vaqtini miqdori bilan aniqlanadi. Ishlab chiqish bosqichlari: loyihalarni ko‘rib chiqish va kelishish; ilmiy-texnikaviy va kelishuv kengashini o‘tkazish; ilmiy-texnikaviy ekspertiza va b. dan iborat. Agar me’yoriy hujjatni ishlab chiqishdan oldin ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari o‘tkaziladigan bo‘lsa, bu ishlarga sarflangan harajatlar ham hisobga olinishi lozim.

Mehnat sarfi normativlari ishlab chiqiladigan me’yoriy hujjat turiga va standartlashtirish darajasiga bog‘liq.

Umumiyoq mehnat sarfi asosida ishlar narxi aniqlanadi.

Me’yoriy hujjatning turiga qarab uni ishlab chiqishga mehnat sarfi kishi-soatlarda quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Tr = Tb1 + Tb2 (1 + Kn + Ka + Km + Kk + Kt), \quad (4.3.13)$$

bunda  $Tb1$  – me’yoriy hujjatni ishlab chiqishdan oldin o‘tkaziladigan ilmiy-texnik va tajriba-konstrukturlik ishlariga mehnat sarfining bazaviy (asos ) normativi, kishi-soat;

$Tb2$  – me’yoriy hujjatni ishlab chiqish bazaviy normativi, kishi-soat;

$Kn, Ka, Km, Kk, Kt$  – yangilik darajasini, axborot hajmini, kelishishning murakkabligini, ob’ektning konstruktiv murakkabligini, tasdiqlovchi tashkilotlar sonini hisobga oluvchi mos koeffitsientlar.

$Tb1$  ning qiymati 173 dan 469 kishi-kun,  $Tb2$  160 dan 430 kishi-kungacha boradi;  $Tb$  qiymati standartlashtirish bo‘yicha ishlarning turiga qarab, 5 dan 225 kishi-kungacha bo‘ladi.

Me’yoriy hujjatni ishlab chiqishda hamkor-tashkilotlar qatnashganda  $Tmh$  umumiyoq mehnat sarfi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\hat{O}_{\text{io}} = \hat{O}_{\text{o}}(1 + 0,2n), \quad (4.3.14)$$

bunda n – hamkor bajaruvchilar-tashkilotlar soni.

Standartlashtirish bo‘yicha ishlar narxi (S) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\tilde{N} = C_{\text{ia}} \times \frac{\hat{O}_{\text{io}}}{21,2} (1 + \hat{E}_{\text{e}})(1 + \hat{E}_{\text{en}}) + \hat{E}_{\text{eo}}, \quad (4.3.15)$$

bunda Zma – o‘rtacha oylik maosh, so‘m;

Kq – qo‘sishimcha to‘lanadigan haqqa chegirma koeffitsienti;

Kis – ijtimoiy sugurtaga chegiria koeffitsienti;

Kqx – qo‘sishimcha xarajatlar koeffitsienti.

Qo‘sishimcha to‘lanadigan ish haqiga chegirma, ijtimoiy sug‘urtaga chegirma xarajatlar koeffitsientlari reja bo‘limidan olinadi.

Hisoblashda quyidagi mumkin bo‘ladigan variantlarni ham hisobga olish lozim:

a) o‘z tarkibiga ikki va bundan ortiq me’yoriy hujjatni kiritgan bir me’yoriy hujjatni ishlab chiqishda umumiy mehnat sarfi K1=0,66 koeffitsient yordamida to‘g‘rilangan jami sarf kabi aniqlanadi.

b) me’yoriy hujjat varaqlarining soniga bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqishga umumiy mehnat sarfi K2 koeffitsienti yordamida ko‘paytirilishi mumkin:

– hujjat hajmi 10 dan 60 varaqgacha bo‘lganda K 2= 1,05;

– hujjat hajmi 60 varaqdan ortiq bo‘lganda K2 = 1,10 olinadi;

v) me’yoriy hujjatni mahsus mavzu bo‘yicha ishlab chiqishda asosiy mehnat sarfi K3= 1,20 koeffitsient yordamida oshiriladi.

## **V- MODUL. TARMOQLARARO STANDARTLAShTIRISH VA TASNIFLASh TIZIMLARI**

### **5.1 Tarmoqlararo standartlashtirish tizimlarining maxsus jihatlari**

Kompleks standartlashtirishning o‘ziga xos shakllaridan biri – bu oxirgi vaqtarda amalda keng qo‘llanilib kelayotgan tarmoqlararo standartlashtirish tizimlaridir.

Tarmoqlararo standartlashtirish tizimlarini (TST) maxsus ishlab chiqish, standartlashtirishning erishilgan ilmiy–texnik darajasini tavsiflab uni rivojlantirishning yangi bosqichi hisoblanadi. Standartlashtirishning ilmiy–texnik

darajasini oshishi obektiv zarurat bo‘lib fan va texnika taraqqiyotining talablaridan kelib chiqadi.

Maxsulotni ishlab chiqish, uni bozor iqtisodiyoti talablariga binoan amallashtirishning tashkiliy–uslubiy va texnik talablarining shakllanishi nafaqat shu kun talabi, balki kelajak taraqqiyotni ko‘zlab TST qo‘llanilishining kompleks umumtexnik tlablarini ko‘zda tutishni taqazo etadi.

Standartlashtirishning bunday tizimlarini joriy etish O‘zR standartlashtirish sub’ektlarining barcha amaliy faoliyatlari asoslarini uslubiy bir xilligini ta’minlaydi.

2001 yil fevral oyida ishlab chiqilgan 2001–2010 yillarda TST qo‘llash va shakllantirish konsepsiysi O‘zbekiston xo‘jalik yuritayotgan sub’ektlar va standartlashtirish strukturalarining jaxon amaliyotchiligidagi yangi testni keng qo‘llash bilan yanada integrallashuvini, uzviylashtirilgan halqaro me’yoriy–huquqiy tizimlarni O‘zstandart metodologik ta’sir rolini kuchaytirish, O‘zbekistonning barcha iqtisodiy soxasida ilmiy va ishlab chiqarish doiralarini rivojlanishiga olib keladi.

### **5.1.1 Konstruktorlik va texnologik hujjatlashtirishning yagona tizimi**

Konstruktorlik xujjatlasingning yagona tizimi. Xalq–xo‘jaligining rivojlanishi, yangi maxsulot va buyumlarning son va sifat jixatidan o‘sib borish jarayoni mazkur standartlarni takomillashtirilishi zaruratini konstruktorlik xujjatlarning yagona tizimi (KXYaT) ni ishlab chiqish yo‘li bilan amalga oshirishni taqozo etdi.

GOST 2.001–70 me’yoriy xujjatda qayd etilishiga KXYaT barcha mamlakatlarda konstruktorlik xujjatlarni bajarish qoida va usullariga bo‘lgan bir xil – yagona qoida va talablarni belgilaydi.

KXYaT maqsadlari:

–konstruktorlik xujjatlarni unifikatsiyasini kengaytirish va ulardan foydalanish, almashtirishda qayta ishlovsiz qabul qilish imkonini yaratish;

–konstruktorlik xujjatlasingning ish xajmini kamaytirishga olib keladigan, soddalashgan usullarni qo‘llash;

–xujjatlarga ishlov berishda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish imkonlarini yaratish.

KXYaT talablari barcha asosiy va yordamchi buyumlarga bir xil tarqaladi. KXYaT yangi maxsulot yoki buyum konstruktorlik xujjatlarini ishlab chiqishning

asosiy bosqichlarini hamda ishlatish va ta'mirlash xujjatlarining talab mazmunlarini belgilaydi.

Konstruktorlik xujjatlashtirishni unifikatsiyalash:

- har xil soxada xujjatlari qayta ishlovsiz qabul qilish;
- xujjatlar soni va turini ularni ishlab chiqish bosqichlarida tartibga solish;
- chizma, sxema va matnlarni ifodalashni soddalashtirish;
- xujjatlarni ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- yangi maxsulot ishlab chiqish jarayoni texnologik tayyorgarliklarini tez qayta sozlash orqali, samarali operatsiyalar qo'llash va shu kabi istiqbolli tadbirlarni amalga oshirish imkonlarini ta'minlaydi.

Yangi maxsulotni ishlab chiqish chet el analoglari texnik darajasida (balki undan ham yuqori) bo'lishi, ya'ni patent – litsenziya tadqiqot natijalari bilan va maxsulotning texnik daraja kartasini ishlab chiqish isbotlanishi zarur.

Vazifalari va mazmuniga ko'ra KXYaT standartlari 10 tavsifiy guruxlarga bo'linadi:

- 0 - umumiy qoidalar;
- 1 - asosiy qoidalar;
- 2 - buyumlarning KX da tavsiflanishi va belgilanishi;
- 3 - chizmalar bajarilishining umumiy qoidalari;
- 4 - mashinasozlik va asbobsozlik buyumlar chizmalarining bajarilish qoidalari;
- 5 - KX ga munosabatlar (xisobga olish, saqlash, nusxalashtirish, tuzatma kiritish);
- 6 - ishlatish va ta'mirlash xujjatlarini bajarish qoidalari;
- 7 - sxemalarni bajarish qoidalari;
- 8 - qurilish va kemasozlik xujjatlarini bajarish qoidalari;
- 9 - boshqa standartlar.

Standartlar KXYaT i ISO talablariga muvofiqlashtirilgan va ilmiy –texnik taraqqiyot va rivojlanish yo'nalishini xisobga olgan xolda doimiy tuzatishlar kiritish extiyojida bo'ladi.

KXYaT rivojlanishning asosiy yo'nalishlari zamonaviy informatsion texnologiya takomillashuvini hisobga olagn xolda KX lar taqdimotini elektron va mashinalashtirilgan shakl va usullari vositasida amalga oshirilmog'i darkor.

KXYaT ning asosiy qoidalari – uning ta'rifi, vazifasi, tarqalish doirasi, tasniflarining tarkibi va KXYaT ning belgilanishlari GOST 2.001–70 «YeSKD. ob'iie polojeniya» da belgtlangan.

Texnologik xujjatlashtirishning yagona tizimi. Sanoatda texnologik xujjatlarning xilma-xilligi, rasmiylashtirish qoidalarining xar xilligi ishlab chiqarish masalalarini murakkablashtiradi, xujjatlarni almashtirish imkonini cheklab, bir xillashtirish standartlashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini qo'llashga xalaqit beradi.

1975 yildan texnologik xujjatlarni unifikatsiyalash maqsadida xalqaro butjam standartlashtirish – texnologik xujjatlashtirishning yagona tizimi (TXYaT) yuritilgan. Bunda butjam xalqaro standartlashtrishning o'zaro bog'liq me'yor va qoidalari, buyumni ishlab chiqishda va ta'mirlashda butjamlash, texnologik xujjatlashtirish munosabatlari va rasmiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish o'zining butjam ifodasini topgan.

Butjam TXYaT:

- texnologik xujjatlarni ishlab chiqish va qo'llashda har xil usul va vositalardan foydalanish;
- texnologik xujjatlarni boshqa korxonalarda minimal qayta rasmiylashtirish bilan foydalanish;
- texnologik xujjatlarning unifikatsiyalashgan blanklarini qo'llash va ularni maqsadga muvofiq ko'paytirish;
- ishlab chiqarish tavsifiga binoan uning turi, tarkibi, texnologik jarayonning mohiyatiga ko'ra yagona qoida va yozuv usullarini qo'llash;
- ishlab chiqarish menejmentiga jarayonlarni avtomatlashtirish sharoitini yaratish;
- mehnat sarfi va texnologik xujjatlarni ishlab chiqarish vaqtini kamaytirish imkonlarini beradi.

TXYaT standartlari KXYaT butjam standartlari Bilan hisobga olish, ro'yxatdan qo'nim, tuzatma kiritish va shu kabi ishlar bo'yicha o'zaro bog'liqdir.

Xuddi KXYaT kabi TXYaT ham 10 ta tasnifiy guruhli tarkibdan iborat:

- 0 - umumiy qoidalari
- 1 - asoslashtirilgan standartlar
- 2 - TX tasnifi va belgilanishi
- 3 - Detal (yaroq) va yig'ma birikmalarni buyum olishda qo'lanilishini va texnologik jihozlanganlik vositalarini hisobga olish
- 4 - Asosiy ishlab chiqarish TX va ularni jarayonga rasmiylashtirish, ish turlari bo'yicha ixtisoslashtirish qoidalari shakli
- 5 - Asosiy ishlab chiqarish, TX sinash va nazorat qilishga rasmiylashtirish qoidalari shakli

6 - Yordamchi ishlab chiqarish, TX shakllari va ularni rasmiylashtirish qoidalari

- 7 - TX to‘ldirish qoidalari
- 8 - TXYaT ni rivojlantirish uchun rezerv TX
- 9 - Informatsiya bazasi

TXYaT da TX ning tasnifli belgilash tizimi qabul qilingan bo‘lib, har bir ishlab chiqilgan xujjatlar uchun bir xil mustaqil belgilash nazarda tutilgan, bu esa ularni boshqa jarayonlarda qo‘llashda o‘sha belgilashlarni saqlab qolishni ta’minlaydi.

Mahsulotga va uni ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yishda TX turi va xilini tanlash imkoniyati aniqlangan.

TXYaT standartlari buyumni ta’mirlash bo‘yicha yaxlit TX lari uchun talablarni belgilaydi.

Ishlab chiqarish taraqqiyotining dinamikasi va mahsulot sifat o‘zgarishlari jarayonlari TX ni o‘zgartirish, tuzatmalar kiritish talablarini keltirib chiqaradi.

TXYaT standartlarining asosi bo‘la oladigan standartlarga quyidagilar kiradi:

- GOST 3.1102-81
- GOST 3.1108-74
- GOST 3.1103-74
- GOST 3.1104-81
- GOST 3.1105-74

### **5.1.2 O‘zbekiston Respublikasida texnologik hujjatni ishlab chiqish va mahsulotni ishlab chiqarishga qo‘yish tizimi**

O‘zbekiston Respublikasida texnologik hujjat(TX)ni ishlab chiqish va mahsulotni ishlab chiqarishga qo‘yish (O‘zRMIChYQ) mahsulotning barcha faoliy bosqichlarida tashkiliy-texnik ishlari birligini ta’minlovchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan asosiy qoida va nizomlarni belgilaydigan butjam umumtexnik, tashkiliy-metodik standartlardan iborat bo‘ladi.

Uning asosiy maqsadi mahsulotni ishlab chiqarishda yuqori texnik daraja va sifatni ta’minlovchi tashkiliy-metodik ishlarni joriy etish bilan mahsulotni ham ichki, ham tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Uning ob’ekti bo‘lib, mahsulot faoliy bosqichlarida, barcha ishtirokchilar-buyurtmachi, ijrochi, tayyorlovchi, iste’molchi, ta’mirlovchi uyg‘unlikda ish yurita olishni yo‘riqlaydigan asosiy qoida va nizomlarni tashkil etish ishlari hisoblanadi.

Bu ishlarni amalga oshirishda «O‘zstandart»ning metodik yordami va boshqa tarmoq standart tashkilotlarining tashkiliy-metodik yordamiga tayanish mumkin.

O‘zRMIChYO‘Q dagi standartlarning umumiy tarkibi 10 ta tasnifiy guruhlarga ajraladi:

1. Umumiy nizom-qoidalar;
2. Tadqiqot, avanproekt;
3. Tajriba-konstrukturlik va tajriba-texnologik (TK va TT) ishlar;
4. Mahsulotni ishlab chiqarish;
5. O‘zlashtirish (realizatsiya), yetkazish;
6. Ishlatish, iste’mol qilish;
7. Ta’mirlash;
8. Ishlatish va ta’mirlashni ta’minlash;
9. Ishlab chiqarishdan olib tashlash;
10. Boshqa standartlar.

O‘zRMIChYO‘Q ning me’eri asosiy bo‘lib davlatlararo va davlat miqyosidagi umumtexnik va tashkiliy – metodik standartlar va boshqa me’oriy xujjatlar xizmat qiladi.

## **5.2 Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarning yagona tasniflash va kodlash tizimini yaratishning zarurati**

Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarning yagona tasniflash va kodlash tizimi (TIIA YaTKT) sanoat va qishloq xo‘jalik maxsulotlari, xizmatlar, davlat boshqaruvi organlari, ma’muriy ob’ektlarning xududiy bo‘linishi, mehnat va tabiiy resurslar, ortish va tushirish joylari, tashish transporti turlari haqidagi axborotlarni tartibga solish bo‘yicha bir qancha tasniflagichlarni o‘z ichiga oladi.

TIIA YaTKT ni barpo etish avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimlari va jamoaviy foydalanuv hisoblash markazlarini birlashtira borib, axborot yig‘ish va ma’lumotlarni qayta ishslashning yagona davlat tizimiga keltirishdan iborat.

Shu munosabat bilan 1994 y 24 avgustda O‘zR Vazirlar Mahkamasining №433 «Halqaro amaliyotda qabul qilingan hisobga olish va statistika tizimini qabul qilishga o‘tish O‘zbekiston Respublikasi Davlat dasturi haqida» gi qarori qabul qilinib, uni amalga oshirish Davlat dasturi tasdiqlangan edi.

Dasturda davlat statistika va boshqaruvining boshqa doiralarida TIIA YaTKT ni qo‘llash va rivojlantirish borasida mavjud tasniflagichlarni joriy etish bilan birga

tasniflash va kodlash soxalaridagi halqaro standartlarni davlatimiz sharoitiga moslashtirish va uyg‘unlashtirish ko‘rsatilgan.

Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlar tasniflagichi – tasnifiy guruxlashgan va kodlov belgilari bilan tizimli nomlanmani standart bo‘yicha ifodalovchi me’yoriy xujjatdir.

Kodlash – tasniflashgan guruh va tasnif ob’ektiga kod taqdim etishdir.

O‘zbekiston Respublikasida YaTKT, TIIA tasniflagichlarining ulgurji yig‘indisidan, ularni yuritish tizimlaridan, tasniflash va kodlash ishlarini olib boruvchi tashkilotlardan iborat.

### **5.2.1 Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarning yagona tasniflash va kodlash tiziminining asosiy maqsad va vazifalari.**

O‘zR TIIA YaTKT asosiy maqsadi:

- xalq xo‘jaligini boshqarish jarayonlari xisoblash texnikasi vositalarini qo‘llash asosida axborot taminotini standartlashtirish;
- xalq xo‘jaligini boshqarish jarayonlarini xisoblash texnikasi vositalarini qo‘llash asosida axborotlar qo‘shiluvchanligini ta’minlash;
- xalqaro miqyosda axborotlarni elektron almanishuvini ta’minlash.

O‘zR TIIA YaTKT asosiy vazifalari:

- xalq xo‘jaligini boshqarish tizimida TIIA tasniflash va kodlash;
- tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish soxalarida metodologik birlikni ta’minlash;
- o‘zaro bog‘langan tasniflagichlar majmuasini yaratish;
- ma’lumotlar ishlovi jarayonini avtomatlashtirish uchun sharoit yaratish;
- xalq xo‘jaligini o‘zaro ta’sirlanuvchan avtomatlashgan boshqaruv tizimlarining axborot qo‘shiluvchanligini ta’minlash;
- tasniflash va kodlash tizimlarini shunday halqaro tizimlar bilan uyg‘unlashtirish.

### **5.2.2 O‘zbekiston Respublikasida davlat tasniflagichlari va ularning qo‘llanilishi**

1995 yildan 2001 yillar davrida, bozor iqtisodiyoti sharoitida qo‘llaniladigan xisob va statistik amaliyot uchun mo‘ljallangan quyidagi umum davlat tasniflagichlarini yaratish bo‘yicha ishlar olib borildi:

OKPO, SOATO, KOU, OKVED, OKP, NSKZ, KFS, KOPF, KTF, KSE, KS, KSM, KV, SOEN (1-jadval).

Tasniflagichlarni yaratish ishlarining muhim yo‘nalishi – chambarchas bog‘langan halqaro analoglar bilan uyg‘unlashgan milliy TIIA tasniflagichlar tizimini ishlab chiqishdir.

O‘zbekistonda milliy tasniflagichlarni qayta ko‘rib chiqish va joriy etish halqaro milliy xisob raqamlar tizimi asosiy tamoillarini qo‘llash va o‘zlashtirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar bilan bog‘liq holda olib boriladi.

1995-2001 yillarda O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob-statistik amaliyatiga molik quyidagi umudavlat tasniflagichlarni barpo etish belgilandi.

Tasniflagichlarni yaratish bo‘yicha muhim yo‘nalish bu o‘zaro bog‘langan milliy texnik-iqtisodiy va ijtimoiy tasniflagichlarni ishlab chiqishdir.

O‘zbekistonda milliy tasniflagichlarni qayta ko‘rib chiqish va joriy etish milliy hisoblarning xalqaro tizimning asosiy tamoillarini o‘zlashtirish va qo‘llash ishlari bilan bog‘lab olib boriladi.

### **Umumdavlat tasniflagichlari**

*1-jadval*

| <b>№</b> | <b>Tasniflagichni<br/>o‘zbekcha<br/>talqini</b>              | <b>Tasniflagichlarning amalda<br/>qo‘llanilayotgan ruscha nomlari va mohiyati</b>  |
|----------|--|--|
| 1        | KTUT-korxona va tashkiotlarning umumdavlat tasniflagichi     | OKPO-общегосударственный классификатор предпринятий и организаций республики с включением в него дополнительных классификационных признаков организационно-правовых форм и форм собственности; |
| 2        | UTMXA-umumdavlat tasniflagichning ma’muriy-hududiy ajratmasi | SOATO – общегосударственный классификатор административно-территориального деления, который выдается честью Государственного реестра предприятий;  |
| 3        | BOUT-Boshqaruв   | KOU – общегосударственный классификатор органов управления классификатор министерств,  |

|   |   |   |
|---|---|---|
|   | organlari<br>umum davlat<br>tasniflagichlari                            | vedomstv, ob'edineniy predpriyatiy. Razraboran na baze mejdunarodnoy klassifikatsii funksiy gosudarstvennyx organov (KFGO);   |
| 4 | IFTUT-<br>iqtisodiyot<br>faoliyati turining<br>umumiyl<br>tasniflagichi | OKVED – ob'yu klassifikator vidov ekonomiceskoy deyatelnosti. Bazovym klassifikatorom poslujil yevropeyskiy standart NASE;  |
| 5 | MUT-<br>mahsulotning<br>umum davlat<br>tasniflagichi                    | OKP – ob'yegosudarstvennyy klassifikator produksii i uslug razrabatlyvaetsya na osnove staticeskoy klassifikatsii produksii po vidam deyatelnosti v Yevropeyskom ekonomiceskem soobshchestve NASE / SRA / RRODKOM. Do utverjdeniya novogo klassifikatora produksii razreshaetsya polzovatsya klassifikatorom produksii strany SNG;  |
| 6 | MSMT-milliy<br>standart<br>mashg'ulotlar<br>tasniflagichi               | NSKZ – razraboran i utverждyon natsionalnyy standartnyy klassifikator zanyatiy na baze MSKZ-88 (ISSO – 88), predstavlyayushiy soboy opisanie zanyatiy po vsem ukrupnennym, sostavnym i bazovym gruppam professiy i dolnostey.   |
| 7 | MShT-mulkchilik<br>shakli<br>tasniflagichi                              | KFS – v period razvitiya гыночных otnosheniy i svobodnogo predprinimatelstva vid sobstvennosti – один из основных критерев, xarakterizuyushix sub'ekt xozyaystvovaniya. Isxodya iz etogo i opirayas na polojenie Grajdanskogo kodeksa Respublikи Uzbekistan o sobstvennosti i o predpriyatiyax provodilas razraborka klassifikatora form sobstvennosti. V etom klassifikatore opredelenы dva vida sobstvennosti: chastnaya sobstvennost; publichnaya (gosudarstvennaya) sobstvennost; |
| 8 | TXShT-tashkiliy-<br>huquqiy shakli                                      | KOPF – klassifikator organizatsionno-pravovых form xozyaystvuuyushix sub'ektov  |

|    |  |  |
|----|--|--|
|    | tasniflagichi                                    | (KOPF) razraboran v sootvetstvii s Grajdanskim kodeksom Respublikи Uzbekistan, v kotorom opredelenы dva vida organizatsionno-pravoвых form: kommercheskie i nekommercheskie organizatsii.  |
| 9  | KTShT-korxona turi bo‘yicha shakli tasniflagichi | KTF – klassifikator tipov predpriyatiy po chislennosti zanyatых, v kotorom opredelenы chetyre tipa predpriyatiy: mikrofirmы, malые predpriyatiya, srednie predpriyatiya, krupные predpriyatiya;  |
| 10 | IST-iqtisodiy sektor tasniflagichi               | KSE – klassifikator sektorov ekonomiki, v kotorom opredelenы sleduyuщie gruppы sektorov ekonomiki: ekonomika v selom; finansovye; nefinansovye korporatsii; organы gosudarstvennogo upravleniya; nekommercheskie organizatsii, obslujivayuщie domashnie xozyaystva; domashnie xozyaystva; ostalnoy mir. Klassifikator razraboran na osnove Grajdanskogo kodeksa Respublikи Uzbekistan; |
| 11 | ST-standartlar tasniflagichi                     | KS – klassifikator standartov prednaznachen dlya ispolzovaniya pri postroenii katalogov, ukazateley, tematiceskix perechney normativnyx dokumentov. Klassifikator ustanavlivaet kodы i naimenovaniya klassifikatsionnyx gruppirovok, ispolzuемых dlya indeksatsii normativnyx dokumentov;  |
| 12 | JST-jaxon standartlari tasniflagichi             | KV – klassifikator valyut na osnove mejdunarodnogo standarta ISO 4217  |
| 13 |  | KSM – klassifikator stran mira, sozdанныy na osnove mejdunarod-nogo standarta ISO 3166;  |
| 14 | O‘BIS-O‘lchov birligini ifodalash standarti      | SOEI – klassifikator sistem oboznacheniy yedinis izmereniy, postroenny na osnove mejdunarodnoy klassifikatsii yedinis izmereniya YeEK OON,   |

|  |  |   |
|--|--|---|
|  |  | standartov<br>ISO 31 - 0:1992, ISO 1000:1992. |
|--|--|---|

### 5.2.3 Shtrix kodlash, uning xususiyatlari va qo'llanilishi

Shtrix kod – raqamlar, harflar, belgilar to‘g‘risida kompyuterga tez va aniq informatsiya kiritish uchun har xil qalnlikdagi ketma-ket joylashgan shtrixlar va oraliqlar ko‘rinishidagi kodlash tizimi bo‘lib, u optik tarzda ko‘ndalang skanerlash yo‘li bilan o‘qiladi.

Shtrix kodlash – ma’lumotlarni avtomatik tarzda yig‘ish va identifikatsiya qilish texnologiyasi va u informatsiyani ma’lum bir qoidalar bo‘yicha o‘rnatilgan forma, o‘rnatilgan kattalikda, rangda qaytarish qobiliyati, elemenlar kombinatsiyasi formalashtirilgan shakilda yozishga asoslangan.

Shtrix kodlashning huquqiy asoslari. Shtrix kodlashning huquqiy asoslari bo‘lib, 1999 yilda O‘zbekiston Respublikasida shtrix kodlashni kiritish bo‘yicha ikkita qaror qabul qilingan:

1) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi farmoyishi 21 aprel 1999 yil № 188 «O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan mahsulotlarni shtrix kodlash va sertifikatsiyaga tayyorlash to‘yg‘risidagi choralar», tovarlarni sertifikatsiyaga tayyorlash va mahsulotlarni shtrix kodlash bo‘yicha kompleks tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

Tadbirlar rejasi qo‘ydagilarni belgilangan.

- Ekspertga ishlab chiqilgan tovarlvrni shtrix kolash bo‘yicha ishlarni tugatish;
- O‘zbekiston Respublikasi xududida shtrix kodlash tizimini ishlatilishini ta’minalash uchun kerak bo‘lgan me’yoriy xujjatlar, metodik qo‘llanmalar komplektini ishlab chiqish;

- O‘zdavstandart qoshidagi tekshiruv va malaka oshirish instituda (Uz IIPK) shtrix kodlar orgenal – maketlarini ishlab chiqish bo‘yicha markazni tashkil etish va uni kerakli uskunalar bilan butlash;

- «O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan mahsulot, tovarlarni maxjburiy shtrix kodlash to‘g‘risidagi» o‘rnatilgan tartibda kelishilgan formoish loyxasini tayyorlash va vazirlar mahkamasiga kiritish;

O‘zdavstandart buyrug‘iga asosan O‘zIIPKda shtrix kodlash markazi tashkil etildi va uning nizomi tasdiqlandi. O‘zIIPKda 1999 yil aprel oyidan boshlab shtrix

kodlash markazi o‘z faoliyatini boshlagan va u kerakli uskuna va programmalar bilan taminlangan. Shtrix kodlash tizimi faoliyati ko‘rsatishi uchun o‘rnatilgan muddatlarda kerkli me’oriy xujjatlar ishlab chiqilgan.

2) O‘zbek mahsulotlari ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot ishlab chiqaruvchini xalqaro tovar raqamlashtirish tizimida identifikatsiya qilish, site’molchi huquqini himoya qilish, tovarlarni ishlab chiqarishni avtomatik hisobga olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 1 sentabrda «O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan tovarlarga shtrix kodlashni kiritish» to‘g‘risidagi № 438 sonli farmoyishi qabul qilingan.

Farmoishda quyidagilar ko‘zda tutilgan:

O‘zbekiston Respublikasining tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi qoshida tovarlar va mahsulotlarni identifikatsiya qilish markazi «EAN O‘zbekiston» yaratish va bu bilan mahsulotni shtrix kodlashtiriladigan tadbirkorlik faoliyati ko‘rsatadigan sub’ektlarini registatsiya qilish va xalqaro talablarga muvofiq identifikatsiya tizimidan foydalanuvchilar faoliyatini metodik boshqarish va O‘zdavstandart tomonidan shtrixkodlar maketini yaratish.

Shtrix kodlashni kiritish bo‘yicha O‘zdavstandart vazifasi. O‘zbekiston Respublikasidagi tovarlvrni shtrix kodlash to‘g‘risidagi formoyishlarga asosan O‘zdavstandart zimmasiga quyidagilar yuklangan:

-O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni shtrix kodlash tizimini kiritish bo‘yicha yagona siyosat olib borish;

-O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni davlat shtrix kodlar reestriga kiritish;

-O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muofiq shtrix kodlash tizimini qo‘llash tartibini belgilab beruvchi me’oriy xujjatlar va metodik qo‘llanmalarini ishlab chiqarish;

-Xo‘jalik sub’ektlarni shtrix kodlar orginal maketlari bilan ta’minlash.

Shtrix kodlashni kiritish bo‘yicha me’oriy asoslar. Shtrix kodlashtirish faoliyat ko‘rsatishi uchun quyidagi me’oriy xujjatlar ishlab chiqarilgan.

1. O‘z DSt 6. 17. 01 Davlat standartida shtrix kodlash tizimining asosiy nizomlari, termin va tavsiyalari, kodlashtirish ob’ektlarni kodlashtirish bo‘yicha umumiy prinsplari o‘rnatilgan va bu yerda quyidagilar qayt etilgan;

-O‘zbekiston Respublikasini shtrix kodlash tizimi ishlab chiqarilgan va EAN xalqaro tovar raqamlashtirish tizimi doirasida faoliyat ko‘rsatadi va informatsiya

almashinuvi uchun milliy va xalqaro kodlash tizimini yagona tilda bir – biri bilan bog‘lashini ta’minlaydi;

-Shtrix kod bilan kodlashtiriladigan ob’eklar (raqamlar, harflar, mahsuz belgilar) shtrix va oraliq ko‘rinishida yoziladi;

-Avtomatik identifikatsiya markazi – «EAN O‘zbekiston» predmet raqamlashtirish asossatsiyasining umumiyligini metodik boshqaruvini amalga oshiradi. O‘z standartning shtrix kodlash markazi esa O‘zbekiston Respublikasida shtrix kodlash bo‘yicha ishlarni bajarish va koordinatsiya qilishni amalgaoshiradi.

2. O‘z DSt 6. 17/ 03 Davlat standarti quyidagi tartibni o‘rnatadi;

-EAN shtrix kodlash xalqaro tizimdan foydalaniuvchi va EAN shtrix kod simvoli bilan mahsulotni markalashtiruvchi korxonalarini registratsiya qilish;

-korxonaga EAN kodini berish;


-har bir xil tovar uchun EAN kodini yaratish;

-shtrix kodlarning orgenali – maketini ishlab chiqish va uning sifatini nazorat qilish;

EAN kodlarini qayta ko‘rib chiqish va bekor qilish;

3. O‘z DSt 6. 17. 05 Davlat standarti iste’mol tovarlarning upokovkasi va tarasida EAN shtrix kod simvollari va ko‘rinadigan EAN belgilarni joylashtirish bo‘yicha qoidalarga umumiyligini belgilab beradi, standartda terminlarga tavsilotlar va iste’mol mahsulotlariga shuningdek transport upakovkalarida shtrix kod simvollarini joylashtirish misollari berilgan.

Shtrix kodning xususiyati. Rasmda EAN – 13 iste’molchi tovarning shtrix kod simvolikasi keltirilgan (1-rasm).



**5.2.3.1-rasm.  
13 razryadli EAN shtrix kodi**

Ma'lumotni kodlashtirish uchun simvollar, shtrixlar va oraliqlarning ma'lum bir joylashish kengligi ishlataligani.

Rasmlı sonning har bir qismi yoki ma'lumotning har bir turi kodlashtirilishi shtrix kod shaklida yozilishi mumkin (Masalan, buyurtma soni yoki tovar partiyasining soni).

Shtrix kolashni skanerlashtirish kod tagida yozilgan sonni kompyutega kiritish bilan bir o'rinda turadi va bu juda muhim. Klaviatura yoki shtrix kodni o'qish bo'yicha qanday bir ma'lumot kiritilmasin, ularning ko'rsatkichi o'zgarmay qolaveradi.

Shtrix kod simvalidagi informatsiyani o'qish uchun skanerning nuri shtrix kodga qaratiladi. Dekoder yordamida shtrix kodda kodlashtirilgan ma'lumotni olamiz. Shtrixlar va oraliq ko'rinishida kodlashtirilgan raqamli ma'lumot shtrix kod tagida yoziladi. Bu belgilar bizga tushunilarli, chunki ularni odam tomonidan o'qilsa bo'ladi.

Shtrix kodlar aniq tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, shtrix kodni o'qishda aniqlangan xatoliklar 1000 dan 1 % kam. Testlar shuni ko'rsatadiki, shtrix

kodko‘rinishidagi kodlashtirilgan informatsiyaning aniqligi 10000000 belgiga bitta xatolikni tashkil qiladi.

Shtrix kodlar – ma’lumotni tezroq kiritish usuli. Xattoki oddiy yorug‘lik nero (svetovogo nera) yordamida shtrix kodlar bir xil informatsiyani qo‘lda kiritishga ketadigan vaqtdan kam vaqtda skanerlashtiriladi. Zamonaviy skanerlar ma’lumot kiritish jarayonini bundan ham tezlashtiradi.

Shtrix kodlashtirishning xatolarining sonini kamaytirishdan tashqari boshqa avfzallik tomonlari bor: informatsiyani tez va kam xarajat bilan yig‘ish, aloqaning effektivligiga, informatsiyani topish va saqlash. Bu informatsiyani ko‘proq ishlab chiqarish va aniqligini oshirishda, operaseyalar grafigi va yetkazib berishni yaxshilaydi, bundan tashqari ishlab chiqarish vaqt sarfini kuch, odam, resurslari, materiallar va pullarni qisqartiradi va tejaydi.

### **5.3 Barcha davlatlar xalq xo‘jaligi taraqqiyoti tizimida standartlartirishning ahamiyati va ta’siri**

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib standartlashtirish xalq-xujaligi rivojlantirishning asosiy omillari qatorida joy ola boshladi. Birinchi jaxon urishidan keyin esa standarlashtirish iqtisodiy zarurat tusiga kira boshladi. XX asr boshlarida 1919 yili Belgiya va Kanada, 1920 yili Avstriyada, 1921 yili Italiya, Yaponiya va Vengriyada, 1923 yili Avstraliya, Shvesiya Chexoslaviyada, 1923 yili Norvegiyada, 1924 yili Finlandiya va Polshada, 1926 yili Danaiyada, 1928 yili Rumuniyada Standartlashtirish jamiyat va tashkilotlari tuzildi.

Xalqaro tovar almashtirivuning doymiy va zaruriy rivojlanishi, ilmiy-texnika soxasida xamkorlikni yaxshilanish 1939 yilga kelib Xalqaro standartlashtirish assosiyatisyasida (ISO) ni asoslanishiga olib keldi.

Uning taraqqiy rolini ikinchi jaxon urishi tufayli biroz toqtadi.

1943 yili birlashgan millatlar tashkiloti (BMB) doyrasida, London va New Yorkda standartlashtirish maxkamasiga ega bo‘lgan standartlashtirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi barpo etildi.

Va nixoyat ikkinchi jaxon urishi tugallangandan so‘ng 1946 yilarida xozirgi kunda muxim axamiyat kasb etaetgan standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (33 mamlakat kirgan).

Xozirda ISO eng yirik (100 dan ortiq mamlakat a’zo) xalqaro texnik tashkilotlardan xisoblanadi.

Standartlashtirish ishlarini xalq-xo‘jaligi taraqqiyotida ahamiyati oshib borar ekan, keyingi yillarda boshka xalqaro va xududiy uyushma va tashkilotlarning paydo bulishiga olib keldi. Masalan 1953 yilda oltita Yevropa mamlakatlari ko‘mir va pulat bo‘yicha iqtisodiy mafakiyatni ko‘zlab (Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Italiya, Luksinburg) po‘lat bo‘yicha muvofiklashtirish xayati tuzildi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlari vakillari, Yevropa erkin savdo va umumbozor hayatı vakillari ishtirokida 1961 yil mart oyida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Yevropa standartlarini muvofiqlashtirish qo‘mitasi tuzildi.

Bu qumita tarkibida sanoatning eng muxim tarmoqlari:

Metalurgiya, qurilish, to‘qimachilik, neft, kemasozlik, bo‘yicha ishchi guruxlar belgilandi.

Shu tariqada standartlashtirishning halq-xo‘jaligida tutgan o‘rnii salmoqli rivojlanib Yevropa butun dunyoga jadal kirib bordi. Standartlashtirishdan AQSh va Yaponiya mamlakatlari o‘ta samarali foydalanib XX asrning ikkinchi yarimida halq-xujaligi eng yuqari ko‘rsatkichga erishtilar.

Standartlashtirishning halq xo‘jaligi rivojiga tasiri kuchayib borishi natijasida Janubiy Koreya, Turkiya, Xinjistonva ayniqsa Chin mamlakatida iqtisodietdagi keskin yuksalishlarni kuzatish mungkin.

Demak, Stanlartlashtirishning xalq xo‘jaligidatutgan o‘rnii mavjud va bu o‘rin tobaro eni, bo‘yi va balandlik bo‘yicha xajmiy kengayib barmoqda.

### **5.3.1 Xalq xo‘jaligi taraqqiyotida standartlashtirishning o‘rnii**

Jamiyat rivojlanishida standartlashtirish xalq xo‘jaligining boshkarqaruvida asosiy bo‘lib xisoblanadi. Standartlashtirish umumiyl ishlab chiqarishning samradorligini oshirishda bevosita tasir etib, kengaytirishda optimalashgan ilmiy uslibini o‘zida mujasamlaydi. Standart va sifat ajralmasdir. Davlat standarti ilg‘or ishlab chiqarish usuli hamda yangi fan texnika tarqqiyoti bilan halq xo‘jaligi rivojlanish istiqbolini belgilaydi. Standart jamiyatni maxsulat sifatida eng zaruriy talablarni me’yo rlarda mujasamlaydi.

Standartlashtirishning qo‘ydagi: amali faoliyat, boshqaruv tizim va fan sifatlarida ko‘rib chiqamiz.

Standartlashtirish amaliy faoliyat sifatida o‘rnatilgan me’yoriy xujjatlar bo‘yicha standartlashtirish va koydalarini qo‘llash, ijtimoyi xayot va jamiyatning

ishlab chikarish sohalarida takrorlanuvchi masalalar yechimining optimal qarorlarini taminlaydi. Bu faoliyat qo‘ydagi yo‘nalishlarda:

–xalq-xo‘jaligini boshkarishni takomillashtirishda har tomonlama kompleks me’yoriy-texnik taminlash;

–jadal yalpi ishlab chiqarish va uning samoradorligini oshirish;

–mahsulotsifatini yaxshilash va ilmiy-texnik taraqqietini rivojlanтирish;

–resurslarni tejashva ratsionalfoydalanish.

Standartlashtirish boshqaruv tizimi sifatida O‘zbekiston Respublikasida Davlat standartlashtirish tizimi (DST) asosida rejali boshqaruv tizim sifatida amaliy faoliyatdir.

Bu faoliyat me’yoriy texnik xo‘jjatlar majmuasiga, standartlashtirish bo‘yicha amaliy ishlarni bajarish usuli va tashkillashtirish bo‘yicha talablarni o‘zarobog‘likligini o‘rnatuvchidir.

Standartlashtirish fan sifatida standartlashtirish usuli va vositalari to‘g‘risida aniqlik kiritish, standartlashtirish bo‘yicha qonunchilik faoliyatni shakllantirish va umumlashtirish fan sifatida rivojlanish ushbu faoliyat soxasida amaliy ishlarni takomillashtirish asosida bu faoliyatni tashkiliy tizimini yaxshilashga yordam beradi.

Standartlashtirish ob’ektlari (O‘z DSt 1.0 bo‘yicha )maxsulot, ish (jarahn) lar, xizmatlar standartlashtirishga molik, ya’ni xohlagan materiallarning darajasiga loyiq bo‘lgan komponentlar, qurilmalar,tizimlar, ularning kushimchalari, qoydalar, usullar yeki faoliyatlar kiradi.

Bunda xizmat standartlashtirish obekti aholi uchun madaniy-mayshiy xizmatlari qamrovi, tashkilot va korxonalar uchun ishlab chikarish xizmatlari majmui tariqasida bo‘lishi mungkin.

Mahsulot texnikaviy-ishlab chikarish tariqasida va halq istemoli tovarlari bo‘lib, standartlashtirishning ananaviy obekti, ya’ni bk borada ko‘plab standartlar ishlab chikarilgan. Standartlashtirish obektlari texnologik jaraenlar, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish usul va shakllari ishlpb chikarish va nazorat operatsiyalari qoydalari, mahsulotni saqlash va tashish qoydalari va hakozolar hisoblanadi.

Jamiyatning ijtimoiy hayotida standartlashtirish obekti aholi sog‘ligini saqlash va mehnatini muhofazalash, tabiatni quriqlash va inson xayotini yaxshilash, tabiiy boyliklardan ratsional foydalanish va shular kabi jamiyat manfati yulida umumfoyda beradigan barcha munosabat jarayonlari va tadbirlaridir.

### **5.3.2 O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligi taraqiyotida standartlashtirishning samarodorligi**

Standartlashtirishning xalq xo‘jaligidagi muhim ahamiyatini inobotga olib, 1992 yil 2 martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining (O‘zRVM), O‘zbekistoning suverenligi munosabati bilan Respublika miliy standartlashtirish, metrologiya, sertifikatsiyalash tizimini yaratish, xo‘jalik, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik munasabatlarini davlatlararo saqlash, mavjud tusiqlarni bartaraf qilish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil qilish to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi.

Bu qaror asasida UzRVM qoshida standartlashtirish, metrologiya, settifikatsiyalash (SMS) markazi tashkil etildi. Keyinchalik markaz UZRVM 1342 qarori (02.10.2002.) bilan SMS bo‘yicha O‘zstandart agentligi nomiga o‘zgartirilib, unga milliy vakolotxonlik faoliyatini yukladi.

O‘zstandart agenligi:

- standartlashtirish soxasida miliy siyosatni shakllantiradi va amalga oshiradi;
- standartlashtirish bo‘yicha davlat va ho‘jalik boshqaruvi vakolatxonalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- standartlashtirish bo‘yicha ish yuritish umumiyligi tashkiliy-uslubiy qoydalarni o‘rnatadi;
- meyoriy xujjatlarlarga, jumladan majburiy talabga mansublariga xam, rioxayetishi ustidan davlat nazorati va kuzatuvchi olib boradi;
- SMS sohasida kadrlarni profesional va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etadi.

Davlat arxitektura qurilish, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Sog‘liqni Saqlash vazirligi va boshqa davlat va ho‘jalik boshqaruvi vakolatxonalari va o‘z soxalari doirasida standartlashtirish ishlarini olib boradilar va muvofiqlashtiradilar.

Barcha soxalarga taalluqli vakolatxonalar, “O‘zstandart agenligi” bilan bircha standartlashtirish, me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish loyihalari bo‘yicha uslubiy raxbarlik ishlarini amalga oshiradi.

“O‘zstandart” agentligi, Davarxitekqurilish, Davtabiatqo‘mitasi, Sog‘sakvazirligi bosh vakolatxonalari o‘zlarini vakolot doirasidagi sohalar bo‘yicha tasdiq uchun taqdim etilgan standartlashtirish xujjatlari loyixalarini 15 kun muxlatda kurib chikib, davlat ekspertizasi o‘tkazadi va tasdiklash yoki rad etish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

Belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan standart yoki meriy xujjatlar tegishli halq-xo‘jaligi sohalarda tadbih etish uchun tavsiya qilinadi.

Davarxitekqurilish qurilishning barcha soxalarida, loyixalash va konstruksiyalash ishlarini o‘z ichiga olgan xolda korxonalarda standartlashtirish ishlarini amalga oshiradiva davlat nazoratini o‘rnatadi.

Uning qoshida Davlat qurilish nazorati birlashgan boshqarmasi tashkil etiladi.

- Qurilish industriyasi va standartlashtirish bo‘limi;
- Qarakalpoqiston Respublikasi, viloyatlar va Tashkent shaxrida Davarxitekqurilish kuzatuv.

Davtabiat qumitasi tabiiy resurlardan foydalanish va atrof-muxitning ifloslanishi va zararli tasirlardan saqlash sohalarida boshqaruv-nazorat ishlarini olib boradi.

Uning tarkibida Davlat analistik nazorat ixtisoslashgan inspeksiysi (Dav AII) standartlashtirish xizmatini o‘z ichiga oladi.

Sog‘lijni Saqlash vazirligi tibbiyot maxsulotlari sohasida medtexnika buyumlari, dori-dormon visitalari shuningdek, chetdan keltirilgan va O‘zRda ishlab chiqilgan mahsulotlarning inson uchun zararli moddalarni aniqlash massalalari bo‘yicha standartlarga rioya qilish munosabatlarini amalga oshiradi. Uning tarkibida dori-dormon vositalarining standartizatsiyasi va ekspertizasi markazini o‘z ichiga olgan.

Medtexnika va dori-dormon vositalari sifatida nazoratlash bo‘yicha Bosh boshqarma ish olib boradi. Bu boshqarmaning Qoraqalpog‘iston va viloyatlarda dori-dormon nazorati laboratoriyalari faoliyat ko‘rsatadilar.

Standartlarning O‘zR xalq xo‘jaligida qullanishidan olingan samorodorlikni aniqlashning umumiyligi tamoyillariga mos ravishda, yangi texnika va texnologiya qullashda foydalanidigan umumiyligi (maruza) usulda amalga oshiriladi. Bunda eng kamida, bir nechta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha samarodorlikni aniqlash zarur.

## **VI- MODUL. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STANDARTLASHTIRISH VA SIFATINI TA’MINLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

### **6.1 Standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimini takomillashtirish yo‘llari**

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda standartlashtirishni muntazam ravishda rivojlantirib va takomillashtirib borilishi aholi sog‘ligi, uning mol-mulki va atrof-muhitni har qanday salbiy ta’sirlardan himoya qilishda va aholining moddiy hamda ma’naviy farovonligini oshirishida muhim ahamiyat kasb etar ekan, haqiqatdan ham standartlashtirish, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, mahsulot (xizmat)ning aholi hayoti, sog‘ligi, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizligini ta’minlashda, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikda uchraydigan texnik to‘siqlarni bartaraf etishga, hamda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan eng samarali vosita hisoblanadi. Demak, standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega ekan. Shu sababli «O‘zdavstandart» markazi va uning vorisi bo‘lgan «O‘zstandart» agentligi, vazirliklar, standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar, tayanch tashkilotlar respublikamizda milliy standartlashtirish tizimini barpo etish va standartlashtirish infrastrukturasini shakllantirish bo‘yicha ma’lum darajada ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Buning natijasida respublikamiz va xalqaro tajribaga asoslangan standartlashtirishni boshqarishning o‘ziga xos modeli yaratildi.

Mamlakatda milliy standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimlarini isloh qilish 1997 yildan boshlangan va u O‘zbekiston hamda Jahon savdo tashkiloti bilan savdodagi texnik to‘siqlar bo‘yicha tuzilgan bitim bilan bevosita bog‘liq. Isloh qilishning asosiy maqsadi esa, respublikamizni Jahon Savdo Tashkilotiga teng huquqli a’zo bo‘lib kirishiga tayyorlashdan iborat.

Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Yevropa Ittifoqi eksperti o‘zining hisobotida respublikamizning standartlashtirish bo‘yicha qonunlari Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va Yevropa Ittifoqining qonunlariga to‘liq muvofiqlashtirilmaganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuning uchun respublikamizning amaldagi qonunlariga JSTning asosiy tamoyillari va me’yoriy hujjatlaridagi farqlarni hisobga olgan holda o‘zgartirishlar kiritilishi kerakligi ta’kidlab o‘tilgan.

Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi ekspertining ko'rsatib o'tgan kamchiliklari bo'yicha respublikamizning amaldagi qonunlariga standartlashtirish, sertifikatlashtirish tizimlarining asosiy qoidalariga qo'shimchalar kiritilgan.

Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini takomillashtirish xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro standartlarni qo'llash va ularning talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Demak, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro standartlar bilan bir qatorda milliy standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yetakchi chet el mamlakatlarining me'yoriy hujjatlari bilan ham uyg'unlashtirishni taqoza etadi. Buning uchun «O'zstandart» agentligi xalqaro va yetakchi chet el mamlakatlarining standartlashtirish tashkilotlari bilan standartlarning qo'llanilish qonuniyligi va ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni bir-biriga muntazam ravishda taqdim etilishi to'g'risida ikki va ko'ptomonlama bitimlar tuzishi kerak bo'ladi.

### **6.1.1 Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish konsepsiysi**

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, respublika standartlashtirish tizimlaridagi ayrim nomuvofiqlarni e'tiborga olgan holda va uni bartaraf etish maqsadida hamda xalqaro standartlashtirishning hozirga va kelajakdagi talablar asosida O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini yanada takomillashtirish maqsadida «O'zstandart» agentligi tomonidan mo'ljallangan «O'zbekiston Respublikasida xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda standartlashtirish, sifatini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish «Konsepsiysi» va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risidagi dasturi ishlab chiqilgan va u standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo'yicha idoralararo kengashida qabul qilingan.

Hozirgi kunda respublika davlat boshqaruvi idoralari, yuridik shaxslar birlashmalari va boshqa tegishli tashkilotlar mahsulot (xizmat)larga belgilangan me'yoriy hujjatlarning barcha fondini Jahon Savdo Tashkiloti talablariga muvofiq, xalqaro standartlari asosida ilmiy-texnik ekspertizadan o'tkazish ishlari tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida amalga oshirilmoqda.

«Konsepsiya»da standartlashtirishning qonuniy, me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, milliy standartlar maqomini xalqaro standartlar maqomiga yaqinlashtirish, mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimini qayta ko'rib chiqish va soddallashtiri, xalqaro standartlarni milliy standartlar sifatida qabul qilish masalalari, xavfsizlik va ekologiya, axborot texnologiyalari, resurslarni tejash va mahsulot sifatini ta'minlash kabi ustuvor yo'naliшlar o'z ifadasini topgan.

### **6.1.2 Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish Konsepsiysi**

Kirish qismi va 9ta bo'limdan tuzilgan:

1-bo'limda «Mahsulot raqobatbardoshligini va sifatini oshirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarining hozirgi holati va uni takomillashtirish vazifalari» deb ataladi. Unda amaldagi me'yoriy hujjatlar darajasi va ularning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini aniqlash, texnik reglamentlararo standartlashtirish tizimlarini shakllantirish va qo'llash, me'yoriy hujjatlarni xalqaro texnik reglamentlar va standartlarga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi vazifalar rejorashtirilgan.

2-bo'limda «Respublikani Jahon Savdo tashkilotiga kirishiga tayyorlash sharoitida xalqaro tajribani hisobga olgan holda davlat standartlashtirish tizimini takomillashtirish» deb nomlangan Jahon Savdo Tashkiloti a'zolari bo'lgan davlatlar bilan axborotlar almashish usullari, texnik qonunlar majmuini shakllantirish va rivojlantirish yo'naliшlari, xavfsizlik va ekologiya, axborotlar texnologiyalari, resurslarni tejash, mahsulot sifatini me'yoriy ta'minlash, tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari, xizmatlari va standartlashtirishning eng muhim yo'naliшlari sohalaridagi vazifalar ko'rsatib berilgan.

3-bo'limda «Standartlashtirish sohasida xalqaro hamkorlik» bo'limida Respublikaning ushbu sohada xalqaro hamkorligidagi asosiy vazifalari belgilangan.

4-bo'limda «Standartlashtirishni axborotlar bilan ta'minlanishi va mahsulotni kataloglash davlat tizimining ishlab turishini ta'minlash» masalalari o'z aksini topgan.

5 – bo'limda «Mudofaa mahsulotlarini standartlashtirish masalalari ushbu konsepsiyaning» ko'rsatib berilgan.

6-bo'limda «Standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazorati» bo'limida standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini kelajakda texnik reglamentlarga rioya qilish ustidan nazorat qilishga aylanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

7-bo‘limda «Mahsulot va xizmatlarning muvofiqligini tasdiqllovchi milliy tizimni takomillashtirish» deb nomlangan muvofiqlikni tasdiqlashning amaliy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

8- bo‘limda Xalqaro standartlar darajasida ishlab chiqarishni o‘zlashtirganligi va mahsulot ishlab chiqarganligini rag‘batlantirish masalalari o‘z aksini topgan. Konsepsiyaning «Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish» deb nomlangan 9 - bo‘limda O‘zbekistonni Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishga tayyorlash davrida o‘quv jarayonini kompleks boshqarish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Konsepsiyanı amalga oshirish chora-tadbirlar dasturi uch qismga ajratilgan:

1. Standartlashtirishni takomillashtirish;
2. Ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishni takomillashtirish;
3. Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

### **6.1.3 Mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minalashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublikamizning ichki bozorida tovar va xizmatlarning erkin aylanishi va bozor mexanizmlaridan foydalanish uchun kerakli sharoitlar shakllantirildi, bozor infrastrukturasi va raqobat muhiti yaratildi. Shu asosda ishlab chiqarish madaniyati hamda mahsulot sifati va xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha ishlab chiqaruvchilar va boshqa tovar yetkazib beruvchilarning ham mas’uliyatlari oshib bormoqda. Shuning bilan birgalikda respublikamiz milliy korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari va ko‘rsatadigan xizmatlari bilan tashqi bozorga chiqish uchun ham quay imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ma’lumki bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uning bilan tashqi bozorda qatnashishni ta’minalash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yanada yaxshilash va korxonada ko‘proq foyda olishni ta’minalaydigan sifat tizimini yaaratishga imkoniyat yaratib beradi. Bunday sifat tizimlarini yaratishda esa ISO 9000 seriyali xalqaro standartining roli juda katta. Chunki barcha rivojlangan mamlakatlarda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil etishda ajralmas qism, tashqi bozor eshigini ochuvchi «kalit» sifatida xizmat qiladi. Shuning bilan birgalikda respublikamizda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talablari asosida milliy

korxonalar sifatni boshqarish tizimlarini amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish, yuqori sifatli, inson hayoti uchun zararsiz mahsulot va xizmatlar yaratish, ularning tashqi bozorda chet matlakatlarda ishlab chiqarilgan o‘xshash mahsulotlar bilan raqobatda qatnashish va mahsulotni import qilinadigan mamlakatlar hududlarida sertifikatlashtirish va standartlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim texnik to‘sqliarni kamayishiga imkon yaratadi. Yana shu narsani ta’kidlash joizki, ISO 9000 xalqaro standarti oilasiga kiruvchi standartlarning joriy etilishi birgina ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilab va uning xavfsizligini ta’minlab qolmasdan, balki ular universal harakterga ega bo‘lganligi sababli, ularni har qanday ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida ham qo‘llash mumkin.

Respublikamizning ishlab chiqarish korxonalarida ISO 9000 xalqaro standarti bazasida sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun yuqorida takidlab o‘tilganidek, ko‘plab qo‘layliklar yaratadi. Shuningdek, ISO 9000 xalqaro standartlari bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi uchun ham ma’lum darajada foyda olish garovi hisoblanadi.

#### **6.1.4 Jahon bozorida ishtirotk etayotgan mamlakatlar tajribasida mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni yetkazib beruvchilar**

1. Yetkazib berilgan torvar sifati bo‘yicha mutloq ishonchli (korxona)lar, ya’ni, bunday guruhga ISO 9000 standartlari talablari asosida sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari mavjud korxonalar kiradi. Ular shartli ravishda «A» guruh korxonalari deyiladi.

2. Yetkazib berilgan tovar sifati bo‘yicha nisbatan ishonchli korxonalar. Bu guruhga kiruvchi korxonalar ISO 9000 xalqaro standartlari talablari asosida sifat tizimlarini endigina amalga oshirayotgan korxonalar kiradi va shartli ravishda ular «V» guruh korxonalari deyiladi.

3. Yetkazib berilgan tovar sifati bo‘yicha ishonchsiz korxonalar. Ularga ISO 9000 standarti talablari asosida sifat tizimlari yaratilmagan korxonalar kiradi va ular shartli ravishda «S» guruhi deb ataladi.

Bozor ekspertlarining ma’lumotlariga haraganda «A» guruhiga kiruvchi korxonalarning mahsulotlari «S» guruhiga kiruvchi korxonalarning mahsulotlariga nisbatan deyarli 50 foizga ortig‘i bilan sotilar ekan. ISO 9000 xalqaro standartlarining yuqorida ta’kidlab o‘tilgan afzalliklarini hisobga olgan holda, ayrim mustaqil Davlat

hamdo'stligi davlatlarida ularni joriy etgan korxonalarga qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Masalan, Rossiya Federasiyasida ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmali faqat ISO 9000 xalqaro standartlari talablari asosida sifat tizimlari sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan korxonalarga beriladi.

## **VII-MODUL. STANDARTLASHTIRISH VA O'ZAROALMASHUVCHANLIK ASOSLARI**

### **7.1 Standartlashtirish jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlarida matematik sonlar ketma-ketligining ahamiyati va qo'llanilishi**

Standartlashtirishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, u fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlariga to'la asoslanadi hamda na faqat shu kun, balki kelajak taraqqiyotining istiqbolini aniqlab, ilmiy-texnik taraqqiyotga muvofiq uyg'unlashgan uzviy jarayonda amalga oshiriladi.

Standartlashtirish tabiiy fanlarga tayangan holda nazariy va amaliy modellar asosida, umumtexnika fanlari tomonidan erishilgan fundamental va amaliy natijalar tahlili asosida, maxsus fanlar bo'yicha erishilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar ko'lамини tartiblashtirish bo'yicha me'yoriy ilmiy uslublar majmuasini barpo etar ekan, u so'zsiz nazariy asosga ega bo'ladi. Jumladan matematik sonlar ketma-ketligi standartlashtirishda muhim o'rinni tutadi.

#### **7.1.1 Arifmetik va geometrik progressiyalarning asosiy xossalari**

Standartlashtirishning nazariy asoslari - buyum va mahsulot parametrlarining miqdori va tarqalishini ma'lum bir qonuniyat asosida boshqarish imkonini beruvchi matematik sonlar ketma-ketligi to'plamlaridir. Bunday matematik ketma-ketliklardan biri bu arifmetik progressiya bo'lib quyidagicha ifodalanadi:

$$U_n = a_1 + d(n-1), \quad (1)$$

Bu yerda:  $U_n$ -istalgan hadlar yig'indisi (to'plami);

$a_1$  – birinchi hadi


$d$  – maxraji (o'zgarmas son)

$n$  – hadlari soni.

Binobarin, ketma-ketliklarning quyida keltirilgan ko‘rinishdagi sonlar qatori arifmetik progressiyaga misol bo‘la oladi.

$$\begin{cases} 1 - 2 - 3 - 4 - 5 - 6; & d = 1 \\ 0,3 - 0,6 - 0,9 - 1,2 - 1,5 - 1,8; & d = 0,3 \\ 25 - 50 - 75 - 100 - 125 - 150; & d = 25 \end{cases}$$

Uning grafik ifodasi 1 – rasmda tasvirlangan.



**7.1.1.1-rasm. Arifmetik progressiyaning grafigi**

Arifmetik progressiya qo‘llanishi jihatdan juda sodda bo‘lsada, qator soni oshib borgan sari, hadlar orasidagi nisbiy farq keskin tushib ketadi. Masalan  $a=1$ ,  $d=1$  bo‘lgan arifmetik qatorning 1 chi va 2 chi hadlari nisbiy ayirmasi :

$$\frac{2-1}{1} \cdot 100 = 100\% \text{ bo‘lsa, } 9 \text{ chi va } 10 \text{ chi hadlari nisbiy ayirmasi}$$

$$\frac{(10-9)}{9} \cdot 100 = 11\%$$


Arifmetik qator hadlarining nisbiy farqi grafik tasviri 2 – rasmda keltirilgan. Undan ko‘rinib turibdiki hadlar soni ortib borishi bilan nisbiy farq keskin kamayib bormoqda. Arifmetik qatorning bunday qonuniyatli xususiyati uning qo‘llanish doirasini cheklaydi. Shuning uchun ba’zan pog‘onali ( $d \neq \text{const}$ ) arifmetik qatorlar ham qo‘llanib turadi.

Masalan, burama (rezba) diametrlari, tishli g‘ildirak modullar qotori: 1; 1.1; 1.2 ( $d=0,1$ ) ; 1.4; 1.6; 1.8; 2.0 ( $d=0,2$ ); 2.5; 3.0; 3.5; 4.0; 4.5; 5 ( $d=0,5$ ) va hokazo (standartlashtirishda keng qo‘llaniladi ( GOST 8724-81, GOST 9513-60)).

Amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, standartlashtirish maqsadida sonlar ketma-ketligining geometrik qatori ancha qulay:

$$U_n = a_1 q^{n-1} \quad (2)$$

bu yerda:  $a_1$  – birinchi hadi,  $q$  – maxraji,  $n$  – hadlar soni. Geometrik katorning grafik ifodasi 7.1.1.2 – rasmida keltirilgan.



**7.1.1.2-rasm. Geometrik progressiyaning grafigi.**

Agar  $a_1=1$  bo'lsa:

$$U_n = q^{n-1} \quad (3)$$

Bunday progressiyaning xossalari quyidagi:

a) ikkita qo'shni hadning nisbati, progressiya maxrajiga teng.

Masalan: 1-2-4-8-16-32-64 bo'lsa

$$\frac{2}{1} = \frac{4}{2} = \frac{8}{4} \dots = 2 = q$$

yoki umumiy xolda  $\frac{N_{i+1}}{N_i} = q$  buladi.


b) progressiyaning ikkita hadi ko'paytmasi yoki bo'linmasi shu progressiyaning hadi bo'la oladi.

Masalan:  $2 \times 4 = 8$ ;  $8 \times 4 = 32$ ;  $16 \times 4 = 64$

$16:2=8$ ;  $64:8=8$ ;  $32:8=4$  natijaviy sonlar, ya'ni 4,8,32,64 progressiyaning xadlari buladi.

Shunday qilib biz yuqorida ko'rib chiqqan arifmetik va geometrik sonlar ketma-ketligi standartlashtirishda keng qo'llaniladi va uninig nazariy asosini tashkil qiladi.

Qo'shni o'lchamlar farqining naminal o'lchamlar qatoriga nisbyuatan o'zgarish qonuniyati bo'yicha geometrik progressiyadan foydaianish ancha qulay (7.1.1.3-rasm).



7.1.1.3-rasm

Qo'shni o'lchamlar farqining nominal o'lchamlar qatoriga bog'liqligi: 1 – arifmetik progressiya; 2 – pog'onali arifmetik progressiya, 3 – geometrik progressiya.

## 7.2 Maqbul sonlar ketma-ketligi va parametrik standartlashtirish

Standartlashtirishning mazmun va moxiyatiga ko'ra maqbul sonlar qatori quyidagi asosiy talablarni qondirish zarur:

- 1) Ishlab chiqarish va foydalanish ehtiyojlariga javoban, ratsional tarqalish tizimiga ega bo'lmoq'i kerak;
- 2) Sonlarning o'sishi yoki kamayishi yo'nalishda cheksiz bo'lishi kerak;
- 3) Qatorning har qanday soni o'nga karrali yoki kasrli ketma – ketlikdan iborat bo'lishi kerak;
- 4) Sodda va oson esda qoladigan bo'lishi kerak.

Bu talablarni qondiradigan muqobil sonlar qatori geometrik progressiyaga taaluqli bo'lib, darajasi va maxraji butun o'nli sonlardan iborat bo'ladi:

$$\sqrt[5]{10}; \sqrt[10]{10}; \sqrt[20]{10}; \sqrt[40]{10}; \sqrt[80]{10};$$

Qatorning maqbul sonlari yaxlitlangan quyidagi sonlardan iborat:

$$\sqrt[5]{10} = 1.6; \sqrt[10]{10} = 1.25; \sqrt[20]{10} = 1.12;$$

$$\sqrt[40]{10} = 1.06; \sqrt[80]{10} = 1.03;$$

Yaxlitlangan va hisobiy sonlarning nisbiy farqi  $+1,28 \div -1,01\%$ .

Bunday qatorning ijobiy tomoni o‘nli oraliq (1–10; 10–100; 100–1000; va hokazo, hamda 1-0,1; 0,1-0,01; 0,01-0,001; va hokazo) larda doimiy bo‘lib xadlar soni 5; 10; 20; 40 va 80; ga teng.


Standartlashtirishda geometrik katorlar ISO tomonidan kabul kilinib GOST 8084-56 xalkaro standartda makbul geoimetrik katorning yaxlitlangan kiymatlari kabul kilingan. Bunday katorlar Reno katorlari xam deyiladi va mos ravishda R5, R10, R20, R40, R80 va R160 bilan belgilanadi.

R5, R10, R20, R40 qatorlar asosiy, R80 va R160 qo‘sishmcha qatorlar deyiladi.


$\sqrt[5]{10} > \sqrt[10]{10} > \sqrt[20]{10} > \sqrt[40]{10} > \sqrt[80]{10}$ ; ko‘rinishidagi farqlanish qatorida yirikrogi (kattasi) maqbul bo‘ladi.

Maxraji  $\sqrt[5]{10}; \sqrt[10]{10}; \sqrt[20]{10}; \sqrt[40]{10}; \sqrt[80]{10}$ ; geometrik sonlar qatorida 3,15 soni mavjud bo‘lib, u taxminan  $\pi$  soniga yaqin bo‘lgan i uchun silindrsimon buyumlarni diametri bo‘yicha standartlashtirishda juda qulay ya’ni bu buyumlarning diametrlari maqbul sonlardan iborat bo‘ladi.

Faraz qilaylik, dumoloq jismlar parametrlarini standartlashtirishda, bizga tanish  $\pi$  soniga yaqin 3,15(mm) dan 50(mm) gacha bo‘lgan yettita teng o‘sib boruvchi oraliq o‘lchamli diametrlar qatorini standartlashtirish talab qilingan bo‘lsin. Arifmetik qator sonlar ketma – ketligi: a, a+x, a+2x, a+3x, a+4x, a+5x, a+6x ko‘rinishda bo‘lib, a=3,15 bo‘lgan da x=7,81 ga teng bo‘lib, 3,15; 10,96; 48,77; 26,58; 34,38; 42,20; 50,0 qiymatlar qatori mavjud bo‘ladi. Geometrik qator sonlar ketma – ketligi: a, ax,  $ax^2$ ,  $ax^3$ ,  $ax^4$ ,  $ax^5$ ,  $ax^6$  ko‘rinishda bo‘lib, a=3,15 bo‘lgan da, x=1,6 ga teng bo‘lib, 3,15; 5; 8; 12,5; 20; 32; 50 qiymatlar qatorini tashkil etadi.



a)



b)

7.2.1-rasm. Dumaloq jismlar diametrlarining 7 ta oraliq miqdori bo'yicha grafik ifodalanishi;a) arifmetik progressiyada;

b) geometrik progressiyada.

Ko'rib chiqilgan dumoloq jismlar (truba-tarnov, val, silindr) diametrлari yetita oraliq miqdor bo'yicha grafik ifodalanishi 5-rasmda ko'rsatilgan. Bunday sonlar qatoriga maqbul sonlar qatori deb nomlangan geometrik progressiya qabul qilingan.

Chizikli nominal o'lchamlarni standartlashtirishda va boshka xollarda R5, R10, R20, R40 asosiy katorlar keng kullaniladi. ularning son kiymatlaridan na muna 7.2.1-jadvalda keltirilgan.

### **Asosiy qatorlar jadvali.**

| Asosiy katorlar |         |         |         | Afzalrok<br>son raqami | Logarifm-lar<br>mantissasi | Sonlarning<br>xisoblangan<br>kattaligi | Asosiy kator<br>sonlaridan<br>xisoblangan<br>kattaliklarning<br>ayirmasi, % |
|-----------------|---------|---------|---------|------------------------|----------------------------|--|---|
| R R 5           | R<br>10 | R<br>20 | R<br>40 |                        |                            |  |   |
| 1,00            | 1,00    | 1,00    | 1,00    | 0                      | 000                        | 1,0000                                 | 0   |
|                 |         |         |         | 1,06                   | 1                          | 023                                    | 1,0593  |
|                 |         |         |         | 1,12                   | 1,12                       | 050                                    | 1,1220  |
|                 |         |         |         | 1,18                   | 3                          | 075                                    | 1,1885  |
|                 | 1,25    | 1,25    | 1,25    | 4                      | 100                        | 1,2589                                 | -0,71   |
|                 |         |         |         | 1,32                   | 5                          | 125                                    | 1,3335  |
|                 |         |         | 1,40    | 6                      | 150                        | 1,4125                                 | -0,88   |

Bu qatorlar asosida GOST 3666-69 bo'yicha 2,5-710 mm oraliklardagi chizikli o'lchamlar - parametrlar standartlashtirilgan.

Bundan tashqari xalqaro elektrotexnik komitet (MEK) tomonidan belgilangan E3, E6, E12, E24, E48, E96 elektrotexnikada, xususan, radiotexnikada keng qo‘llaniladi:  $E3 = \sqrt[3]{10} = 2,2$ ;  $E6 = \sqrt[6]{10} = 1,5$  va hakozo.

Maxraji  $\sqrt[40]{10}$  bo‘lgan geometrik qatorda 375, 750, 1500 va 3000 sonlari mavjud bo‘lib, elektrotexnika sohasida juda qulay. Assinxron elektr motorlarning daqiqadagi aylanishlar soni bilan bog‘liqdir.

Standartlashtirishda parametrli qatorlarning oraliq diapazonini tanlash. R5, R10, R20, R40, R80 parametrli qatorlar chegaralar bilan cheklanmagan. Masalan, R5 (...40...) ko‘rsatmada R5 qator quyi va yuqori chegaralar bilan cheklanmagan, ammo 40 sonini majburan o‘z ichiga oladi.

R10 (1,25...) ko‘rsatmada R10 qator, 1,25 quyi cheklanishga ega. R20 (...40) ko‘rsatmada R20 qator 40 yuqori cheklanishga ega. R40 (...75...100) ko‘rsatmada R40 qator 100 yuqori cheklanishga ega bo‘lib, 75 bilan quyi cheklanmagan va albatta 75 ni o‘z ichiga olgan bo‘ladi.

Maqbul sonlar qatorini xosil qilishda ba’zan har ikkinchi hadini yoki 3-hadini parametrlar tarqalishini va ularning sonli qiymatiga qarab tanlash ham mumkin, ya’ni xosilaviy katorlardan foydalanish imkonibor.

Masalan:  $R5/2(1\dots10)$  har bir 2-hadlardan tashkil topib, bir va 10 quyi hamda yuqori cheklanishga ega bo‘lgan hosilaviy R5 qator;  $R10/3 (...80\dots)$  har bir 3-hadlardan tashkil topib, 80 ni o‘z ichiga olgan, quyi va yuqori cheklanmagan hosilaviy R10 qator.

Parametrli qatorlar diapazonini tanlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- ishlab chiqarishning va iste’molning o’sishini bashorat (Bashoratlashlash) bilan, loyixalanayotgan parametrlar qatoridan foydalanish;
- agregatlashtirish asosida buyumlarning har xil variantlaridan foydalanish;
- parametrli qatorlarni yetarlicha uzoqabadiyligi va istiqbolli rivojlanishini ta’minlash maqsadida va boshqa muayyan holatdarda.

Ko‘pchilik mashina va jixozlar guruhi uchun diapazon tanlashda kuyidagicha:

- texnik xavfsizlik bo‘yicha;
- mazkur buyumning ba’zi bir oraliqlarda samaradorligi;
- mazkur mashina yoki buyumning boshqa jixozlar bilan birgalikda foydalanish imkoniborligi;
- tabiiy sharoit va muayyan qonuniyatlarga ko‘ra cheklanishning zarurati.

### **7.3 Standartlashtirishning texnologik asoslari O‘zaro almashuvchanlikning mohiyati bo‘yicha asosiy tushunchalar**

Detallar biri ikkinchisiga to‘liq yoki qisman kirishgan (joylashgan) holda birikma hosil qiladilar. Odatda mashinasozlikda detallar ikki yoki bir-nechtasi tutashgan holda birikma bo‘lib ishlaydilar. Bulardan biri qamrovchi (qamrab oluvchi), ikkinchisi esa qamraluvchi hisoblanadi. Qamrovchisi (tashqi) – teshik deyilib, qamraluvchisi (ichki) – val deb ataladi. Bu atalishlar istalgan ko‘rinishdagi (shakldagi) detallarga taaluqli. (1-rasm a,b, ga qarang).

O‘zaro birikkan detallarda erkin va tutashib turuvchi yuzalari (sirtlari) bor. Tutashib turuvchi yuzalar (sirtlar) va ularning o‘lchamlari xisoblash (mustahkamlikka, bukirlikka) yo‘li bilan olinib va keyin standartga muvofiq naminal chiziqli o‘lchamlar qatoridagi sonlarga yaxlitlab (odatda katta tomonga) qabul qilinadi.

Nominal chiziqli o‘lchamlarning asosan 4 ta asosiy va 1 ta yordamchi o‘lchamlar qatorlari o‘rnatilgan.

$\sqrt[5]{10} = 1,6$  bo‘lib R5 qator uchun,  $\sqrt[10]{10} = 1,25$  bo‘lib R10 qator uchun,  $\sqrt[20]{10} = 1,12$  bo‘lib R20 qator uchun,  $\sqrt[40]{10} = 1,06$  R40 qator uchun va R80 qator uchun o‘lchamlar qatorlari Odatda erkin o‘lchamlar konstruktiv tarzda olinadilar – qabul qilinadilar. Shuningdek naminal haqiqiy va chekli o‘lchamlar ham mavjud.

Nominal o‘lcham (D, d, l va boshqalar) bu o‘lchamni boshanishi bo‘lib xizmat qilib buni nisbatan chekli o‘lchamlar aniqlanadi. Chizmada butun sonda ko‘rsatilsa o‘lcham nominal o‘lcham deb ataladi. Naminal o‘lcham odatda butun mm da beriladi.

**Xaqiqiy o‘lcham** – bu tayyorlanilgan detalning yo‘l qo‘yilgan xatoliklar bilan o‘lchanilib o‘rnatilgan o‘lchamidir (ya’ni detalning tayyorlangandan keyingi o‘lchami haqiqiy o‘lcham deyiladi). Ikkita chekli o‘lcham mavjud:

Bulardan kattasi eng katta chekli o‘lcham deyilib (+), kichigi esa eng kichik chekli o‘lcham (-) deyiladi.

$D_{max}$ ,  $D_{min}$ - teshik uchun,  $d_{max}$ ,  $d_{min}$  – val uchun belgilanadi. Yaroqli detalning haqiqiy o‘lchami chekli o‘lchamlar oralig‘ida yoki ularga teng bo‘lishi kerak.

### 7.3.1 Qo‘nim va qo‘yimlar

T – bu eng katta va eng kichik o‘lchamlar orasidagi farq yoki yuqorigi va pastki chekli og‘ishlar algebraik farqining absolyut qiymatidir.

Ya’ni:  $TD = D_{\max} - D_{\min} = ES - EI$ , - teshik uchun

$Td = d_{\max} - d_{\min} = es - ei - val$  uchun.

Qo‘yim hamisha musbat miqdoridir. Qo‘yimni oshirish bilan mahsulot sifati yomonlashadi, lekin tayyorlash tannarxi kamayadi. Qo‘yimni soddalashtirish uchun qo‘yim maydoni ko‘rinishida grafik tarzda tasvirlanadi (qo‘yim maydoni bu nol chizig‘iga nisbatan yuqori va pastki chekli og‘ishlar bilan chegaralangan maydondir).

Nol chizig‘i – nominal o‘lchamni ifodalovchi, o‘lchamning chekli og‘ishlari qo‘yilgan (00) chiziqdir.

Nol chiziqdan yuqoriga (+) musbat, pastiga esa (-) manfiy og‘ishlar joylashtiriladi .

**Qo‘nimlar** - ikki detalning o‘zaro biriktirilishi (joylashtirilishi) xarakteri qo‘nim deb ataladi. Qismlar (detallar) asosan uch xil qo‘nim bilan joylashtiriladi:

1) bemalol harakatlanadigan yoki erkin qo‘zg‘aladigan yoki erkin qo‘zg‘aladigan qilib joylashtirish. Bunday biriktirilgan qismlar (detallar) bir – biriga nisbatan erkin harakatlana oladi;

2) salgina harakatlana oladigan yoki sal qimirlamaydigan (qo‘zg‘almas) qilib joylashtirish. Bunday biriktirilgan detallar bir – biriga nisbatan salgina harakatlana oladi yoki ozgina tashqi kuch bilan bir – biriga kiritilib yig‘iladi va qo‘zg‘almaydigan bo‘ladi;

3) qimirlamaydigan (qo‘zg‘almaydigan) qilib joylashtirish, qimirlamaydigan biriktirilgan qilib detallar bir – biri bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi va ularni ajratish uchun kuch sarf qilish kerak (preslab qo‘nim).

Shularga asoslanib ya’ni, teshik va val qo‘yim maydonlarining bir – biriga nisbatan joylashishiga qarab qo‘nimlar tirqish bilan, o‘tishli va taranglik bilan bo‘lishlari mumkin.

**Tirqish.**  $S$  – teshik diametri val diametridan katta bo‘lib, ikki diametrning haqiqiy o‘lchamlari orasidagi farqqa aytildi ya’ni,  $D>d$   $S=D=d$ .

Tirqish – yig‘ilgan detallarni bir – biriga nisbatan erkin harakatlana olishini ta’minlaydi – qo‘zg‘aluvchi birikma. Demak bir detalni ikkinchi detal ichiga tirqish hosil qilib joylashtirilishi – tirqish bilan qo‘nim – erkin yoki qo‘zg‘aluvchan qilib joylashtirish deyiladi.

**Taranglik.**  $N$  – yig‘ilguniga qadar val diametri teshik diametridan katta bo‘lib, bu ikki diametrning haqiqiy o‘lchamlari orasidagi farqga aytildi, ya’ni  $d > D$   $N = d - D$ .

Taranglik detallarni yig‘ishdan so‘ng qimirlamayligan birikma hosil qiladi. Taranglik bilan qo‘nim – deb birikmada detallarning tarangligini ta’minlab joylashtirishga aytildi. Qo‘zg‘almaydigan (qimirlamaydigan) qo‘nim.

Bunday joylashtirishda talab qilingan paytda kamgina tirqish va talab qilinganda kamgina taranglik bo‘lishi mumkin.

**Qo‘nim qo‘yimi** – tirqish bilan qo‘nimda ruxsat etilgan eng katta va eng kichik tirqishlar orasidagi yoki taranglik bilan qo‘nimda ruxsat etiladigan eng katta va eng kichik tarangliklar orasidagi farqqa aytildi.

$TS = S_{max} - S_{min}$  – tirqish bilan qo‘nimdagи tirqish qo‘yimi.

$TN = N_{max} - N_{min}$  – taranglik bilan qo‘nimdagи taranglik qo‘yimi.

$TS (TN) = S_{max} + N_{max}$  – erkin o‘tishli qo‘nim qo‘yimi.

Barcha turdagи qo‘nim uchun qo‘yimi miqdor jixatidan teshik va val qo‘yimlarining yig‘indisiga tengdir.

Ya’ni:  $TS(TN) = TD + Td$ .

Tirqish – tutashuvchi teshik va val o‘lchamlari orasidagi musbat farqdir.

Taranglik – yig‘ishgunga qadar val o‘lchamlaridan katta bo‘lib tutashuvchi teshik va val o‘lchamlari orasidagi musbat farqdir.

Qo‘nim qo‘yimi – eng katta va eng kichik tirqish yoki taranglik orasidagi farq.

Tirqish bilan qo‘nim – birikmada tirqishni ta’minlab qo‘nim dir.

Taranglik bilan qo‘nim – birikmada taranglikni ta’minlab qo‘nim dir.

O‘tishli qo‘nim – talab qilinganda tirqish va talab qilinganda taranglikni ta’minlab o‘tkazishdir.

### 7.3.2 Qo‘nim tizimlari va ularning standartlashtirishdagi ahamiyati

Qo‘yimi va qo‘nim lar tizimi bu tajriba nazariy va eksperimental tekshirishlar asosida aynan tuzilgan va standartlari shaklida (ko‘rinishida) rasmiylashtirilgan qo‘yimlar va qo‘nimlar qatorlarining majmuidir.

Qo‘yim va qo‘nim lar tizimi mashina detallari umumiylar birikmalari uchun minimal zaruriy, lekin amaliyot uchun yetarli bo‘lgan qo‘yim va qo‘nimlarni tanlash uchun mo‘ljallagan bo‘lib, kesuvchi asboblari va kalibrлarni standartlashtirishga buyum va ularning qismlarini (detallarni) loyihalash, ishlab chiqarish va o‘zaro

almashinuvchanlikka erishish, shuningdek ularning sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi paytda jahon mamlakatlarining ko‘pchiligi ISO ning qo‘yim va qo‘nimlar tizimini qo‘llaydilar. ISO tizimi metall ishlash sanoatida halqaro texnik aloqalarni osonlashtirish (yangilashtirish) milliy qo‘yim va qo‘nimlar tizimini unifikatsiyalash uchun yaratilgandir.

ISO halqaro tavsiyanomalarining milliy standartlarda qo‘llanish turlicha mamlakatlarda tayyorlanilgan bir turdag'i detallarni, tashkil qiluvchi qismlarni va buyumlarni (mashinalar) o‘zaro almashinuvchanligini ta’minlashga sharoit yaratib beradi. Mamlakatimizda esa ISO standartlari va tavsiyanomalarining yagona tizimi (DO‘YaT) ga o‘tmoqdalar. Bunga o‘tishdan maqsad respublikamizda sanoatni ixtisoslashtirish zaruratligi, halqaro savdoni rivojlantirish va undagi texnik to‘siqlarni bartaraf qilishdir. Bu shuningdek mamlakatimiz maxsulotlarini jahon bozorida xaridorgirligini oshirishni ta’minlaydi.

ISO ning qo‘yim va qo‘nimlar tizimi va respublikamizning DO‘YaT – umumiylar mashina detallari uchun qat’iy bir yagona prinsip asosida tuzilgan. Standart bo‘yicha qo‘nimlarning ikkita teng huquqli tizimi o‘matilgan: Teshik tizimi (TT) va val tizimi (VT). Shuningdek qo‘yim va qo‘nimlarning jadvallari ham teshik tizimi va val tizimida tuzilgan.

Teshik tizimida – (TT) teshik asosiy detal bo‘lib hisoblanib, qanday qo‘nim bilan joylashtirishdan qat’iy nazar nominal o‘lcham bo‘yicha ishlov beriladi (detalning tanasiga qo‘yim berilib), turli xildagi qo‘nimlar tirqish, o‘tishli, taranglik bilan) valning chekli o‘lchamlarini o‘zgartirish hisobiga ta’minlanadi, TT – dagi qo‘nimlar N bilan belgilanadi.

Val tizimidagi (VT) qo‘nimlarda – val asosiy detal bo‘lib hisoblanib qanday o‘tkazilishidan qat’iy nazar, nominal o‘lchov bo‘yicha ishlov beriladi (detal tanasining qo‘yimi bilan), turli xildagi qo‘nimlar esa teshikning chekli o‘lchamlarini o‘zgartirish hisobiga ta’minlanadi. VT dagi qo‘nimlar (h) bilan belgilanadi.

Barcha qo‘nimlar uchun «TT» da teshikning pastki og‘ish – EI=0, barcha qo‘nimlar uchun val tizimida (VT) valning yuqorigi og‘ishi ES=0.

Demak, asosiy teshikning qo‘yim maydonlari nol chizig‘idan yuqoriga, valniki esa nol chizig‘idan pastga joylashtiriladi. Shunday qilib, teshik tizimida teshik qo‘yimi teshikning o‘lchamini oshiradi, val tizimida esa val qo‘yimi valning o‘lchamini kamaytiradi. Mashinasozlikda qo‘yimlar joylashishining ikkala tizimi ham, teshik tizimi ham, val tizimi ham ishlataladi, val yoki teshik tizimini, u yoki bu qo‘nimlarni tanlash konstruktiv, texnologik va iqtisodiy nuqtai nazardan aniqlanadi.

Biriktirilgan detallarning o‘zaro ishlashi nuqtai nazaridan olganda bu ikkala tizim bir-biriga aynandir. Lekin, teshik tizimi val tizimidan ishlab chiqarish jixatidan birmuncha afzalroqdir. Chunki detallarni teshik tizimida yig‘ish uchun ishlov berganda kesish va o‘lhash asboblari ancha kam ishlatiladi. Bundan tashqari teshikni valga moslashdan ko‘ra, valni teshikka moslash ancha oson va arzonga tushadi. Shuning uchun ham mashinasozlikda ayrim xollarda val tizimini ishlatish ma’qulroqdir.

## **VIII-MODUL. SANOAT SOHALARIDA STANDARTLASHTIRISH**

### **8.1 Standartlashtirishning Davlat nazorati maqsad va vazifalari**

Standartashtirishning Davlat nazorati sanoat ishlab-chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot bo‘limlari, birlashmalar, ilmiy-kostrukturlik va loyihalash tashkilotlari, transport, savdo, maishiy xizmat va boshqa ommaviy tashkilotlarda standartlar hamda shu kabi tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarning amalga oshirilishi faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etiladi. Standartashtirishning Davlat nazorati mahsulot, xizmat va faoliyatini barcha turiga ta’sir doirasini o‘tkazadi.

Standartashtirishning Davlat nazoratining asosiy vazifasi fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini Vazirliklar, muassasalar, korxona va tashkilotlarda joriy etilishini, o‘lhash aniqliklari, turlari, vositalari bo‘yicha sohalarda bixillikni ta’minlash, nazorat natijalarini tahlillash asosida taklif va tavsiyalar kiritishdan iboratdir.

Standartashtirishning Davlat nazorati «O‘zstandart» agentligi organlari tamonida amalga oshiriladi. Standartlashtirish markazi, metrologiya va setifikatlashtirish bo‘limlari, Standartashtirishning Davlat nazorati laboratoriyalari bu borada xizmat qiladi.

Standartashtirishning Davlat nazorati ishlari barcha mahsulot yoki xizmat turlari bo‘yicha yetakchi tashkilotlar mutaxassislari, ilmiy-tadqiqot, loyiha konsturuktorlik tashkilotlari yuqori malakali mutaxassislari, ishlab chiqarishning novatorlari hamda tashkilotchilik vakillari jalb etiladi.

## **8.2 Davlat nazorati organlarining faoliyatlari va mansabdor shaxslarning xuquq va majburiyatlari.**

«O‘zstandart» Davlat nazorat organlari standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha keng qamrovli faoliyat ko‘rsatadi. Jumladan:

- standartlashtirish va metrologiya xizmatlari ishlarini nazorat qilish;
- mahsulot sifati nazorati bo‘yicha tavtish hay’ati ishlarini boshqarish va muofiqlashtirish bo‘yicha metodik boshqarish;
- standartashtirishning Davlat nazorati ishlarini umumlashtirish;
- davlat sinovlari o‘tkazish;
- standartlar va texnik shatlarini ro‘yxatga olish va ekspertlash;
- mahsulot sifatini shaxodatlashda qatnashish;
- muhim mahsulot va xizmat turlari bo‘yicha bosh korxonalarini shaxodatlash kabi ishlarni tizimli olib boradi;

Standartashtirishning Davlat nazorati mansabdor shaxslariga davlat tomonidan quyidagi huquqlar beriladi.

- standartlashtirish va metrologiya talablarini qondirmaydigan konstruktorlik, texnologik va boshqa ishlarni buyurtmachiga berilishini ta’qilash;
- standartlashtirish va metrologiya talablariga mos kelmagan mahsulotlarni ishlab chiqish, tashish, saqlash va foydalanishni taqiqlash;
- standartlashtirish me’yor va talablarini buzib ish ko‘rib, kelayotgan korxona va tashkilotlarga iqtisodiy sanksiya choralarini qo‘llash yo‘riqnomasini bitish;

Standartashtirishning Davlat nazorati «O‘zstandart» tomonidantasiqlangan yillik rejalar asosida muhim mahsulotlar sifatini oshirish, standartlashtirish ishlarini joriy qilish, ularni buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan xalq-xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan tadbirlarni amalga oshirib boradi.

Yillik rejalar nafaqat yetakchi korxona va tashkilotlar faoliyati, balki barcha o‘zaro munosabotdagi korxona va bo‘limlar faoliyatini tekshirish bo‘yicha komplekt nazorat ko‘rinishida tuzilgan va amalga oshirilgan bo‘lmog‘i lozim.

## **8.3 Nazorat tartiblari va tekshiruv mazmuni**

Tekshiruv mazmuni, korxona, birlashma va tashkilotlar faolitiga bog‘liq holda quyidagicha bo‘lmog‘i darkor:

- ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstrukturlik-texnologik tashkilotlarda davlat soha standartlari talablariga rioxal qilinishini, chiqarilayotgan mahsulot sifati va boshqa ko'rsatmalarini standartlart talablariga to'g'ri kelishini;

- standartlar ishlab chiqiladigan tashkilotlarda ularni sifati va maqsadli ishlab chiqalishi, joriy etilish holati, sinash va joriy etilish ketma-ketlik boshqichlarining to'g'riligi va shu kabilar;

- transport va xizmat sohalarida ko'rsatilayotgan xizmat yoki transport vositalarining mahsulotga mosligi, qadoqlash, tamirlash, yuklash-tushirish sharoitlarining talabga javob berishi;

- savdo tashkilotlarida mahsulot sifati, uni saqlash va savdoga chiqarish holatlarining muvofiqligining standart talablariga mos kelishi;

- foydalanadigan va iste'mol qiladigan tashkilotlarda, to'g'ri foydalanish va to'g'ri iste'mol qilish talablariga mos kelishi, saqlash, ishlatish, muddatlarining me'yordan oshib ketmasligi.

Ko'rsatilgan barcha ob'ektlarda nazoratning metrologik taminoti, qoida qanday o'lchab, qanday nazorat qilish vositalariga alohida e'tibor beriladi.

Standartlarga rioxal etilganlik nazorati:

Konstrukturlik-texnologik hujjatlarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki buyumga mosligi, texnologik jarayonni standart talabida tashkil etilganligi, mahsulot yoki buyumni vaqtı-vaqtı bilan tekshirib, sinab turish imkonlari mavjudligi kabi ishlarni o'z ichiga olmog'i zarur.

Korxonalarda standartlar6ni qo'llanilishi va ularga amal qilish tartiblari quyidagicha bosqichma-bosqich kuzatish yo'li bilan nazorat qilinishi mumkin.

1. Tekshiruvdan avvalgi tanishuv bosqichi.

Bu bosqichda korxona va u ishlab chiqarayotgan buyum yoki mahsulot haqida dastlabki ma'lumotlar belgilab olinadi; jumladan:

- korxonaning asosiy iqtisoslashtirilganligi;

- tekshirilayotgan mahsulotning boshqalarga nisbatan ulushi;

- etalon (namuna)ning mavjudligi;

- bosh tashkilot yoki korxona tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalarining mavjudligi.

2. Korxonada tanishuv. Korxonada muayyan tekshiruv yuzasidan barcha ma'lumotlar bilan bevosita tanishib chiqiladi.

Me'yoriy hujjatlar jumladan, standartlarning qo'llanilishi, ularga rioxal qilinishi, ko'rilebdi va ko'rilib qilayotgan chora tadbirlar. Standartlarni joriy etilishidagi

buyruqlarning mavjudligi, ularning bajarilishi. Konstruktorlik-texnologik hujjatlarning sifati, mavjudligi, ularga amal qilinish holatlari va x.k.

Tekshiruv haqidagi buyruq chiqqanidan so‘ng zarur namunalar tanlab olinadi va nazorat boshlanadi.

3. Mahsulot yoki buyumni ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan standart, texnik shart va texnologik reglamentlarga rioya qilinishning to‘g‘ri kelishligi. Texnologik reglamentlarning buzilmaganligi, texnalogik xaritaga mosligi nazorat qilinadi.

4. Mahsulot sifati nazorati bo‘yicha barcha omillarni o‘lchov asboblarining metrologik holati tekshiriladi.

5. Qo‘llanilayotgan standart talablarining buzulmaganligi, uni takomillashtirish borasidagi yangi standartlarni qo‘llanilish rejalarining mavjudligi nazorat qilinadi.

6. Barcha tekshirilgan jarayonlar ma’lumotlarni umumlashtirilganligi haqida aktlar tuzilib imzolanadi va ular tegishliy joyga taqdim etiladi.

### **Shartli qisqartirishlar**

#### **Davlat toifasidagi me’yoriy hujjatlarining indekslari quyidagicha ifodalanadi:**

O‘z DST - O‘zbekiston davlat standarti;

O‘z DT - Umum davlat tasniflagichi;

O‘z RH - O‘zbekiston rahbariy hujjati;

O‘zST DT - O‘zbekiston standartlashtirish davlat tizimi;

O‘z SDT - O‘zbekiston sertifikatlashtirish davlat tizimi;

O‘zO‘DT - O‘zbekiston o‘lhashlar birligini ta’minalash davlat tizimi;

O‘zAT - O‘zbekiston akkreditlash tizimi. Tarmoq toifasidagi me’yoriy hujjatlar indeksi:

SST - tarmoq standarti;

TT - tarmoq tasniflagichi;

RH - rahbariy hujjat;

T - tavsiyanoma.

O‘BTDT – O‘lhashlar birliligini ta’minalash davlat tizimi.

SI – Xalqaro o‘chov birliklar tizimi.

O‘zDSt – Davlat standarti.

GOST – Davlatlararo standarti.

RST – Rahbariy standarti.

SMSITI – Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti.

MOM – malaka oshirish markazi.

SSM – Sinash va sertifikatlashtirish hududiy markazlarining metrologik laboratoriyalari.

SMB – Sertifikatlashtirish va metrologiya hududiy boshqarmasi.

O‘V – O‘lchash vositalari.

MX – Metrologik xizmat.

NO‘SJ - Nazorat, o‘lchash va sinash jixozlari.

O‘BU – O‘lchashlarni bajarish usuliyatlari.

IChMT – Ishlab chiqarishning metrologik ta’minoti.

Ts, KSt – Tashkilot, korxona standartlari.

SBDFYuK – Sifat bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi komissiya.

SMM – Standartlashtirish va metrologiya markazi.

MH – Me’oriy hujjatlar.

TSh – Texnik shartlar.

TJBAT – Texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi.

ITI – Ilmiy - tadqiqot ishlari.

TKI – Tajriba - konstruktolik ishlari.

O‘TXB – O‘lchash va tarozilar xalqaro byurosi.

XMQT – Xalqaro metrologiya qonunchiligi tashkiloti.

XQMB – Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya byurosi.

XT – Xolqaro tavsiyalar.

XH – Xalqaro hujjatlar.

IMEKO – O‘lchash texnikasi va asbobsozlik bo‘yicha xalqaro anjuman.

YeVROMET – Metrologiya bo‘yicha Yevropa tashkiloti.

ISO – Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot.

XEK – Xalqaro elektrotexnik komissiya.

YoXK – Yoritilganlik bo‘yicha xalqaro komissiya.

REMKO – Standart namunalar bo‘yicha qo‘mita.

XNV – Xatoliklarning nazorat vositasi.

EYuK – Elektr yurituvchi kuch.

**Ma’muriy – hududiy toifadagi me’oriy hujjatlar indeksi:**

MH ST - ma’muriy hududiy standart;

KST - korxona standarti;

TSh - texnik shartlar.

### **Boshqa hujjatlarning qisqa shartli ifodalanishi:**

- KHT - konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi;
- TNT - texnologik hujjatlarning yagona tizimi;
- MST - Mahsulotni sinash tizimi;
- HBT - hujjatlarni birxillashtirish tizimi;
- NKAT - nashriyot, kutubxona va axborot ishlari bo'yicha standartlar tizimi;
- TP - texnik puxtaligi;
- MYaT - Mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi;
- MSKT - Mahsulot sifat ko'rsatkichlari tizimi;
- ST - sifat tizimi;
- TKT - texnik - iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlashning yagona tizimi va boshqalar.

Shu narsani qayd etish joizki, hujjat nomi lotin alifbosida faqat davlat tilida yoziladi. Masalan, O'z DSt.

Davlat miqyosidagi me'yoriy hujjatlar guruhi quyidagilarni O'z ichiga oladi:

GOST - davlatlararo standart;

O'zDST - O'zbekiston davlat standarti;

O'zDT - umumdavlat tasniflagichi.

### **Me'yorlar va qoidalar:**

O'zRST - O'zbekiston rahbariy hujjati;

O'zT - tavsiyanomalar

### **Tarmoq miqyosidagi me'yoriy hujjatlar guruhiga quyidagilar kiradi:**

sST - tarmoq standarti;

TT - tarmoq tasniflagichi.

### **me'yorlar va qoidalar:**

RH - rahbariy hujjat;

T - tavsiyanomalar

### **Korxona miqyosidagi me'yoriy hujjatlarga quyidagilar kiradi:**

TSh - texnik shartlar;

KST - korxona standarti.

## **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi", gazetasi, 2017 yil, 8 fevral)
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 октября 2002, № 342 «О мерах по совершенствованию системы стандартизации, метрологии и сертификации продукции и услуг». Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан. 2002.
3. Закон «О стандартизации». Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1994, № 2.
4. O'z DSt 1.3-2003. O'zbekiston Davlat standartlashtirish tizimi. Korxona standartlarini ishlab chiqarish, kelishib olish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.
5. O'z DSt 1.2-2003. O'zbekiston Davlat standartlashtirish tizimi. Texnikaviy shartlarni ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.
6. O'zDSt ISO/IEC 21:2001 GSS Uz. Проядок принятия международных и региональных стандартов в качестве Государственных стандартов Узбекистана (ISO/IEC 21:1999, IDT)
7. O'z DSt 1.7:1998 GSS Uz. Порядок применения межгосударственных и национальных нормативных документов других государств.
8. RD Uz 51-077-98 GSS Uz. Методика оценки научно-технического уровня нормативного документа на продукцию.
9. O'z T 51-052 GSS Uz. Методика сравнительного анализа и гармонизации требований нормативных документов с требованиями международных и зарубежных нормативных документов.
10. Ismatullaev P.R. va boshqalar. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Toshkent, 2001, -360 b.
11. Ravshanov R. «O'zaro almashuvchanlik asoslari» TDTU, 2006.
12. Абдувалиев А.А., Алимов М.Н., Бойко С.Р и др. Основы стандартизации, сертификации и управления качеством. Ташкент: "Фан ва технология". 2005, 540 с.
13. Ismatullaev P.R. va boshq. Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish. Toshkent, 2012, -303 b.

14. "Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish" / nomli darsligi M.B.Kamalova., R.A.Maxmudov.,R.T.Adizov., S.Sh.Ismatov. Toshkent «iqtisod-moliya» nashriyoti, 2019 у 386 б.
15. Основы стандартизации Под ред. Ткаченко В.В. М.: Изд. стандартов, 1988.
16. Азимов А.К. Стандартизация (учебное пособие), Ташкент, 2004. -111с.
17. Абдувалиев А.А., Авакян П.Г., Алимов М.Н., Голсов В.Ф., Мирагзамов М.М., Сабиров М.З., Садыков А.Б. Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции: Учебное пособие, Ташкент 2002.
18. Методики и практика стандартизации. Под ред. Ткаченко В.В. М.: Изд. стандартов, 1971.
19. Азимов А.К. Стандартизация (конспект лекций). Ташкент 2004. -140с.
20. O'z DSt ISO/IEK 21: 2001 GSS Uz. Принятие международных и региональных стандартов в качестве государственных стандартов Узбекистана (СО/ИЕК 21: 1999 ДТ).
21. МС ИСО 14001:1996 Система экологического управления. Требования и руководство к исполнению.
22. МС ИСО 1404:1996. Система экологического управления. Руководства по принципам организации и методам обеспечения функционирования.
23. МС ИСО 14011:199. Экологический аудит. Квалификационное требование к экологам и аудиторам.
24. ГОСТ 2.601-95 ЕСКД. Эксплуатационные документы.
25. ГОСТ 3.1001-95 ЕСТД Общие положения.
26. ЎзДСт 15.000:2001 СРПГУз. Основные положения.
27. Постановление Кабинета Министров от 21 апреля 1999 г. № 188 «О мерах по подготовке к сертификации и введению штрихового кодирования продукции (товаров), производимых в Республике Узбекистан». Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан, 1999.
28. Постановление Кабинета Министров от 21 апреля 1999 г. № 438 «О введении штрихового кодирования товаров, производимых в Республике Узбекистан», Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан, 1999.

29. РСТ Уз 6.01.1-95 Единая система классификации и кодирования технико-экономической и социальной информации Республики Узбекистан. Основные положения.

30. Ўз ДСт 6.17.01:1999 Автоматическая идентификация. Штриховое кодирование. Система штрихового кодирования продукции. Основные положения.

31. Ўз ДСт 6.17.02:1999 Автоматическая идентификация. Штриховое кодирование. Термины и определения.

32. Ўз ДСт 6.17.05:1999 Автоматическая идентификация. Штриховое кодирование. Порядок расположения штрихкодовых символов ЭАН на потребительских товарах и транспортных упаковках. Общие требования.

33. Метрология, стандартизация, сертификация и электроизмерительная техника (Под редакцией К.К. Кима, учебное пособие) Москва. Санкт-Петербург, 2006—с.314–338–(361).

34. [www.smsiti.uz](http://www.smsiti.uz)

35. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)

36. [www.unim.ru](http://www.unim.ru)

37. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

38. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)

39. <http://www.kievprribor.com.ua>

## **ILOVALAR**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI 28.12.1993 y. № 1004-XII**

#### **STANDARTLASHTIRISH TO'G'RISIDA**

Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan  
O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni,  
O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni  
O'zR 30.04.2013 y. O'zRQ -352-son Qonuni

- I Bo'lim. Umumiy qoidalar (1-4-1 moddalar)
- II Bo'lim. Standartlashtirishga doir hujjatlar (5-8 moddalar)
- III Bo'lim. Standartlar ustidan davlat nazorati (9-11 moddalar)
- IV Bo'lim. Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti. Standartlarni qo'llashni rag'batlantirish (12-19 moddalar)

#### **I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR**

- 1-modda Standartlashtirishni asosiy maqsadlari
- 2-modda Davlat standartlashtirish tizimi
- 3- modda Standartlashtirish ishlarini o'tkazish
- 4-modda Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari
- 5-modda Xalqaro shaotnomalar va bilimlar

